

SHAYX NURIDDIN XOLIQNAZAR



Yoshlarga nasihatim



Toskkent – 2024

KBK 86.38
UO'K 28:428
X 72

Shayx Nuriddin Xoliqnazar. YOSHLARGA NASIHATIM
[Matn] / Shayx Nuriddin Xoliqnazar. – Toshkent: «Shamsuddinxon
Boboxonov» NMIU, 2024. – 224 b.

Har bir jamiyat hayotida yoshlarning o'z o'rnini borki, bunga aslo befarq qarab bo'lmaydi. Chunki yoshlar uning rivoji va yuksalishida katta kuch hisoblanadi. Buning uchun ularni har taraflama ilm-ma'rifatli va odob-axloqli bo'lishi talab etiladi.

Shayx Nuriddin Xoliqnazar hazratlarining mazkur kitobi ayni mavzuga bag'ishlangan. Bu kitob bilan tanishgan o'quvchi yoshlar o'zlariga kerakli xulosa va ma'naviy ozuqa oladilar, degan umiddamiz.

Mas'ul muharrirlar:

Ravshanbek O'RINBOYEV,
Davron NURMUHAMMAD

*O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning
2024-yil 22-iyuldagi 03-07/4404-sonli xulosasi asosida
nashrga tayyorlandi.*

ISBN 978-9943-12-770-8

© N. Xoliqnazar, 2024
© "Shamsuddinxon Boboxonov" NMIU, 2024



*“Farzandlari bilimli, iste’dodli, o‘zining kuchi
va salohiyatiga ishonib, doimo oldinga intilib
yashaydigan xalq va davlatning istiqboli albatta
yorug‘ bo‘ladi. Biz O‘zbekiston yoshlarini ana
shunday ezgu fazilatlar sohiblari etib tarbiyalash
uchun bundan buyon ham bor kuch va
imkoniyatlarimizni safarbar etamiz”.*

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti



Bismillahir Rohmanir Rohim

Muqaddima

Har bir inson o'ziga berilgan umr ne'matining qadrini teran anglashi va uni g'animat bilishi kerak. Shuningdek, uni behuda va foydasiz ishlar bilan o'tkazib yuborishdan ehtiyot bo'lishi lozim. Shuni unutmaslik kerakki, umr o'tib ketganidan keyin tarixga aylanadi va hech qachon ortga qaytmaydi.

Hoshlik umrning bir qismi bo'lsa-da, u davrga alohida ne'mat deb qaraladi. Bu xususda dinimizda ko'plab tavsiya va ko'rsatmalar kelgan. Yoshlikka bu darajada e'tibor berilishiga sabab odob-axloq, ilm o'rganish, biror kasb-korning boshini tutish, o'zi uchun va yashab turgan jamiyati uchun foydali inson bo'lib yetishish aynan mana shu davrga to'g'ri keladi.

Jonajon yurtimiz qanchadan qancha alloma va fozil zotlarga beshik bo'lgan makon. Ularning qoldirgan boy ilmiy-ma'naviy merosi va nodir asarlari dunyo tamadduniga beminnat xizmat qilib kelmoqda. Qaysi sohani olib qaramang, al-



batta unda ajdodlarimiz ko‘plab ulug‘ kashfiyotlarni amalga oshirganlariga guvoh bo‘lamiz. Endi biz ham voyaga yetib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimizni o‘tgan ajdodlarimizga munosib va har taraflama barkamol etib tarbiyalashimiz zarur.

Ming afsuski, ba‘zi yoshlarni qimmatli vaqtlarini behuda o‘yin-kulgi bilan o‘tkazib, o‘tkinchi hoy-u havaslar ortidan quvayotganini ko‘rib dilimiz xira tortadi. Yoshlik davri o‘tib ketganidan keyin “qani endi yoshligim qaytsaydi” deb afsus-nadomat chekishning foydasi yo‘q.

Yoshlik inson umrining navqiron, sog‘lom va kuch-quvvatga to‘lgan davridir. Ayni shu pallada uning qarshisida yaxshilik va yomonlik eshiklari ochiq bo‘lib, xohlasa ilm olib, biror kasb-kor boshini tutib, odamlarga xayrli ishlari bilan naf yetkazish imkoni bor. Bunday hayot kechirgan inson keksayganda ham izzat-ikrom topadi. Olamdan o‘tgandan keyin ham undan yaxshi amallar va yaxshi nom odamlar xotirasida muhrlanib qoladi.

Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, yurtimizda yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigi ochiq. Yoshlarimiz yaratilgan bunday qulaylik va sharoitlardan o‘z vaqtida oqilona foydalanishlari kerak deb o‘ylayman. Shunday yo‘lni tut-



gan o'g'il-qizlarimiz kelajakda baxtli insonga aylanadilar.

Muhtaram Yurtboshimiz tashabbuslari bilan bu yilni "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilinishida o'ziga xos ma'no borligini unutmasligimiz kerak. Ayni tashabbusdan ilhom olgan holda "Yoshlarga nasihatim" kitobimizni yosh yigit-qizlarimiz hukmlariga havola etmoqdamiz.

Yaxshi bilamizki, yoshlar qalbi juda nozik, ular bilan muomala va munosabatda juda ehtiyot bo'lish lozim. Bizning niyatimiz xoliski, yoshlarimiz qimmatli vaqtlarini g'animat bilib, xayrli ishlarning oqibati va natijasini bu dunyo va oxiratda ajr-savobi ulug' ekanini teran anglab yetsinlar. Shunday hisni yoshlar qalbiga yetkaza olsak, biz kabi yoshi kattalar ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatgan bo'lamiz. Har bir ezgu va solih amalimizda Yaratganning O'zi madadkor bo'lsin va turli yomonliklardan O'z panohida asrasin.



Yoshlikni g'animat biling



Umr oqar suv kabi

Inson dunyoga kelar ekan, o'ziga berilgan umrni chiroyli va sermazmun o'tkazmog'i kerak. Aslida "umr" so'zining ma'nosi xarobning ziddi bo'lib, lug'atda tuzatish, obod qilish va isloh etish ma'nolarini anglatadi. U "ta'mir" so'zi bilan o'zakdosh. Xarob bo'lgan uyni tuzatish va obod etishni ta'mirlash deyilganidek, inson ham o'z hayotini isloh etib, uni obod qilgan holda o'tkazmog'iga "umr" deyiladi. Alloh subhonahu va taolo Qur'oni karimda bunday marhamat qiladi: **"U o'lim va hayotini sizlarning qaysilaringiz amalda yaxshiroq ekaningizni sinash uchun yaratgandir"** (*Mulk surasi, 2-oyat*).

Tafsirlarda keltirilishicha, ulamolardan biri umr bo'yi o'qigan kitoblaridan shunday xulosaga kelgan ekan: "Inson dunyoga keladi, so'ngra yaxshi amallar qiladi va undan keyin vafot etadi". Yaxshilab o'ylab ko'rsak, bu hayotimizning juda sodda formulasidir. Tug'ilish bilan o'lim o'rtasidagi fursat insonga ezgu amallar qilish uchun beriladi.

Umr oqar suvdek juda tez o'tib ketadi. Uni g'animat bilish lozim. Ba'zan inson uning g'animat ekanini teran anglamaydi. Umrni kecha-kunduz,



hafta, oy va yilga bo'lingani tez o'tishiga ishoradir. Inson umri juda ham oz. Bir zumda o'tib ketganini bir kuni o'zi ham payqamay qoladi. Ba'zi odamlar umrni g'animat bilish o'rniga uni behudaga sovruradi, umri oxirlab poyoniga yetib qolganidan keyin "Qani endi yoshligim qaytib kelsaydi" deya yoshlik davriga qaytishni qo'msaydi. O'z vaqtida qadriga yetilmagan umrning oqibati mana shunday yakun topadi. Hasan Basriy rahmatullohi alayh aytadi: «Har kun tong yorishganda Alloh taolo tomonidan bir jarchi: "Ey Odam bolasi! Men yangi kunman. Sening barcha amalingga guvohman. Meni g'animat bilgin, chunki men ketsam, qiyomatgacha senga qaytmayman", deb jar soladi».

Ulug' ajdodlarimiz o'z vaqtlaridan unumli foydalanishda ibrat va namuna edilar. Shuning uchun ham bugunlari kechagisidan, ertangi kunlari bugungisidan a'lo va afzal o'tgan. Donishmandlardan biri shunday degan ekan: "Uch kunlik dunyoni bir kun deb hisobla. Bir kun o'tib ketdi, yana bir kuni keladimi, yo'qmi, Allohning O'zi biladi. Sen hozirgi kuningni g'animat bilib, aslo harakatdan to'xtama".

Biz qancha umr ko'rib, qancha yashashimizni emas, balki uni mazmunli va foydali o'tkazish haqida o'ylashimiz lozim. Berilgan imkoniyat-



lardan qo'ldan kelgancha oqilona foydalanib qolish harakatida bo'lishimiz kerak. Ulug'lar aytganidek, odamzod hayoti tejalgan vaqtga qarab uzayadi. Insonga berilgan har bir kun, soat, daqiqa va hatto soniya g'animat bir fursatdir. Afsuski, ba'zilar uni behuda o'tkazib yuboradi.

Umr vaqt ko'rinishida o'tib, aslo ortga qaytmaydi. Ali roziyallohu anhu: "O'tib ketgan vaqt emas, u umrdir", degan. Qur'oni karimda insonning bolalik, yoshlik va keksalik davrlari bayon etilib, tez o'tib ketishi haqida bunday marhamat qilinadi: **«Ularga hayoti dunyoning misolini keltir. U Biz osmondan tushirgan suvga o'xshaydir. Uning sababi ila yer nabototlari aralashib chiqdi. Bas, xashakka aylanib, uni shamol uchirib ketdi. Alloh har bir narsaga qodir bo'lgan Zotdir»** (*Kahf surasi, 45-oyat*).

Alloh taolo to'rt faslni inson hayotiga o'xshatdi. Bahor kelib, o'lik yerdan turli o't-o'lanlarni chiqarishi odam bolalarining dunyoga kelishiga o'xshaydi. Yoz kelib, yerdan unib chiqqan o't-o'lanlar, dov-daraxtlarning hosil berishi ularni kuch-quvvatga to'lgan yoshlik davriga o'xshaydi. Kuz kelib, boyagi yashnab turgan chamanzor o'zining tarovatidan ayrilib quriy boshlaydi. Bu

insonning yoshlik vaqti o'tib, keksalikka qadam qo'yishiga ishoradir. Qish kelganda esa boyagi yashillikdan asar ham qolmaydi. Oqib turgan suvlar muzlab, oppoq qor yog'ib, hammayoq sukunatga cho'madi. Bu esa inson hayotining poyoniga yetganini bildiradi.

Yoshlik – umr bahori

Har bir inson mana shu aytilganlar haqida chuqur mulohaza yuritib, o'ziga kerakli xulosalarni chiqarishi lozim. Qiyomat kuni bo'lganda har birimiz o'tkazgan umrimizdan so'ralamiz. Bu haqda hadisi sharifda bunday deyiladi:

Muoz ibn Jabal roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Qiyomat kunida bandaning qadami to to'rt narsadan – umrini nima bilan o'tkazgani, yoshligini nima bilan band qilgani, molini qayerdan topib, qayerga sarflagani, (o'rgangan) ilmidan nimalarga amal qilgani haqida so'ralmaguncha, joyidan jilmaydi", dedilar». Bir rivoyatda: "Jismini qaysi ishlarda qaritgani haqida so'ralmaguncha qadami joyidan jilmaydi", deyilgan (Imom Tabaroniy va Imom Bazzor rivoyati).



Ushbu hadis har bir aqli raso insonni tafakkur qilishga chorlaydi. Hadisga e'tibor qaratsak, unda besh ne'mat haqida so'z borayotganini ko'ramiz. Qiyomatda har bir inson o'ziga berilgan ne'matlardan so'raladi. Bu so'rovdan faqat payg'ambarlar mustasno bo'ladi. Bandaga berilgan har bir ne'matdan, xususan, ushbu besh ne'matdan alohida so'raladi. Eng avval umrdan so'raladi. Bandaga berilgan behisob ne'matlardan eng birinchi umr ne'matidan so'ralishi uning qadri qanchalar ulug'ligini ko'rsatadi.

Shuningdek, bandaga berilgan yoshlik ne'matidan alohida so'ralishi bor. Yoshlik ham umrning bir bosqichi deb qaralsa-da, nima uchun undan alohida so'raladi? Chunki yoshlikning o'zi alohida ne'mat bo'lib, o'ziga xos jihatlari bilan umrning boshqa davrlaridan ajralib turadi. Yoshlik ikki zaiflik, ya'ni go'daklik va keksalik o'rtasidagi eng mo'tadil bosqichdir.

Inson balog'at yoshiga yetgunga qadar uning imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Aqliy va jismoniy jihatdan kamolotga yetish bosqichida bo'lgani uchun u bu davrda yaxshilik yoki yomonlik haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaydi. Bu davrda u boshqalar ko'magiga muhtoj bo'ladi. Qarigan chog'ida

ham xuddi shunday. Inson yoshi o'tib, qartayib qolganida zaiflashib qoladi. Ko'z nuri xiralashadi, belidan kuch-quvvat ketadi. Asta-sekin quvvatdan qolib, go'dak paytidagidek, boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lib qoladi. Shu sababli bu ikki davrga insonning zaiflik davri deb qaraladi. Yoshlik inson uchun har taraflama keng imkoniyatlar eshigi ochilgan, kuch-quvvat, g'ayrat-u shijoatga to'la, bir ishni o'zi mustaqil eplay oladigan bosqichdir. Shuning uchun hadisi sharifda bu davrga alohida urg'u berilgan.

Boshqa bir hadisi sharifda Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam berilgan ne'matlarni o'z vaqtida qadriga yetib, g'animat bilishga chaqirganlar.

*Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilindi: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bir kishiga nasihat qilib bunday dedilar: **"Besh narsadan oldin besh narsani g'animat bil. Keksayishingdan oldin yoshligingni, kasal bo'lishingdan oldin salomatligingni, kambag'al bo'lishingdan oldin boyligingni, mashg'ul bo'lib qolishingdan oldin bo'shligingni, o'limingdan oldin hayotingni (g'animat bil)"** (Imom Hokim rivoyati).*



Afsuski, ayrim yoshlar ayni ilm olish pallasida foydali ishlar bilan mashg'ul bo'lish o'rniga turli keraksiz o'yin-kulgilar, kompyuterxonalar, telegram, feysbuk, instagram va yutub kabi ijtimoiy tarmoqlarda umrini zoye ketkizadilar. Agar ular mana shu vaqtlarini foydali ishlarga sarflasalar, biror sohaning yaxshi mutaxassisi bo'lib yetishardilar. Bu davrda ota-onalar ham o'z farzandlari bo'sh vaqtlarini qanday ishlarga sarflayotganini nazorat qilishlari kerak bo'ladi.

Yoshlikda inson aql-zakovati o'tkir, xotirasi tinuq bo'ladi. O'sha paytdan boshlab yoshlarni asta-sekin ilmga jalb qilish samarali natija beradi. Ibn Abbos roziyallohu anhumo aytadi: *"Alloh taolo kimga ilm ato etgan bo'lsa, uning yoshligida bergan. Yaxshilikning hammasi yoshlikda bo'ladi"*.

Shuning uchun ham o'tgan solihlar vaqtlariga juda e'tiborli bo'lishgan, aslo behudaga sarflashmagan. Chunki ular vaqtning qiymatini boshqalardan ko'ra yaxshiroq bilishar edi.

Hasan Basriy rahimahulloh aytadi: *"Men bir qavmni ko'rdim, ular sizlarga qaraganda vaqtlariga dirham-u dinorlaridan ham ko'ra harisroq edi!"* Ibn Hajar rahimahulloh aytadi: *"Sog'ligi va bo'sh vaqtidan Alloh taologa ibodat qilish uchun foy-*

dalangan kishi naqadar baxtlidir! Ammo sog'ligi va bo'sh vaqtini ma'siyatga sarflagan odam naqadar ziyonkordir!"

Ibn Mas'ud roziyallohu anhu: *"Agar Allohga yaqin qiladigan ilmimni ziyoda qilmasdan o'tkazgan kunim shu kuni chiqqan quyosh menga barakali bo'lmaganidir"*, degan.

Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi yurtimiz allomalari 7–8 yoshlarida Qur'oni karimni to'liq yod olishgan. Bundan tashqari, tarix, falsafa, tibbiyot, mantiq va boshqa fanlarni chuqur o'zlashtirishgan. Ular o'n sakkiz yoshigacha kerakli barcha ilmlarni mukammal o'rganib, ilm sohasida mashhur olim darajasiga ko'tarilgan. Masalan, Alisher Navoiy yetti yoshida Farididdin Attorning "Mantiqut-tayr" asarini va "Sahihi Buxoriy" to'plamidagi olti mingdan ziyod hadisi shariflarni yoddan bilgan. U 7–8 yoshlaridan boshlab g'azallar qoralab, o'n besh–o'n olti yoshlarida ham turkiy, ham forsiy tillarda ijod qiladigan "zullisonayn" shoir sifatida tanilgan. Alisher Navoiy o'smirlik paytlarida o'zlari sevgan shoirlarning 50 ming baytdan ortiq she'rlarini yoddan ayta olgan. Bu kabi misollarni juda ko'plab keltirish mumkin.



O'tayotgan har bir lahza inson hayotining bir qismidir. U qiyomat kuni foyda yo zararga hujjat bo'ladi, guvohlik beradi. Ulamolar o'tayotgan vaqt haqida: *"Vaqt betaraf bo'lmaydi, yo senga qadrdon do'st yoki ashaddiy raqib bo'ladi"*, deganlar.

Bu dunyo hayotini uch kun desak, kechagi kun o'tib ketdi, ertangi kun esa hali kelmagan. Inson amal qiladigan asosiy kun esa bugundir. Shuning uchun yoshlarimiz yoshlikni g'animat bilib, vaqt va iqtidorlarini foydali ilm hamda mashg'ulotlarga sarflashmasa, ertangi kunlarida afsuslanib qoladilar. Zero, millatimizning kelajagi yoshlar hisoblanadi.

Farzandlarimizning aql-zakovatlarini inobatga olgan holda yashayotgan zamonasidagi kelajagi uchun zarur bo'lgan ilmlarni o'rgatishimiz bilan birga, go'zal xulq asosida tarbiyalashimiz benihoya foydalidir. Ali roziyallohu anhu: ***"Farzandlarinigizga o'zingizning emas, o'zlari yashaydigan zamondagi narsalarni o'rgatinglar. Chunki ular sizlarning emas, o'zlarining zamonida yashaydilar"***, degan.

Zayd ibn Sobit roziyallohu anhu aytadi: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam menga: ***"Suryoniy (yahudiy tili)ni bilasanmi? Menga ulardan mak-***

tublar keladi”, dedilar. Men: “Yo‘q”, degan edim, “O‘rgan!” dedilar. Men o‘sha tilni o‘n yetti kunda o‘rgandim. Shundan keyin men yahudiylardan mak-tublar kelsa, uni o‘qib berar, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ularga maktub yubormoqchi bo‘lsalar, men yozib jo‘natar edim”.

Shu paytda Zayd ibn Sobit roziyallohu anhu o‘n olti yoshdagi yigitcha bo‘lgan. Qattiq jidd-u jahd ila qisqa muddatda suryoniy tilini mukammal o‘rganishga muvaffaq bo‘lgan.

Fuzayl ibn Iyoz rahmatullohi alayh yosh-u qari-ya do‘stlari bilan o‘tirib, ularga nasihat qilib bunday degan: «Ey yoshlar jamoasi, qanchadan qancha ekin-lar hali pishib yetilmasdan ofatga uchradi. Ey qarilar jamoasi, ekinlar hosilga kirganidan keyin yig‘ib olinadi. Sizlar nimani kutmoqdasizlar? Qaysi uzr-ni bahona qilasiz? Agar amallaringizdan xabardor Rabbingiz: **“Sizlarga eslaydigan odam eslagudek umr bermagan edikmi?! Sizlarga ogohlantirguv-chi kelmagan edimi?!”** deb sizlarni so‘roqqa tutsa, yosh-u qaringiz nima deb javob berasiz?»

Shunday ekan, sog‘lik, vaqt, aqlning hammasi boylik. Bular baxt va saodatning kaliti hamdir. In-son ularning qadriga yetishi va undan to‘g‘ri foy-dalanishi lozim.



Naql qilinishicha, ming yildan ko'proq umr ko'rgan Nuh alayhissalomning jonlarini olish uchun o'lim farishtasi keldi. Jabroil alayhissalom: "Ey uzoq umr ko'rgan Payg'ambar, siz dunyoni qanday ko'rdingiz?" deb so'radi. Shunda Nuh alayhissalom: "Dunyo go'yo ikki eshikli hovliga o'xshaydi, biridan kirib, boshqasidan chiqib ketdim!" degan ekan. Bu qissadan olinadigan hissa shuki, umr qanchalik qisqa yo uzun bo'lishidan qat'iy nazar, bir kun kelib albatta tugashi muqarrar.

G'arblik bir kishining kunlik ish unumdorligi yetti soatdan kam bo'lmas ekan. Ammo musulmon kishining ish unumdorligi bor-yo'g'i o'ttiz daqiqa atrofida ekan. Abu Rayhon Beruniy: "Bir daqiqa vaqtni behuda o'tkazganim – halok bo'lganim", degan ekan. Yoshlikning qadriga yeting, u bir kuni sizdan shaksiz ketadi, uni qanchalik qattiq tutmang, bir kuni sizdan qochadi. Sizlarda yigitlik kuch-quvvati bor ekan, uni zoye ketkizmasdan burchingizni bajarishga sarflang. Alisher Navoiy: "O'tgan yigitlik orzu bilan qaytmas", degan.



Aziz o'g'il-qizlarim! Oltindan-da qimmatli va bebaho umringizni, xususan, yoshlikni g'animat biling. Uni befoyda va ikki dunyoda o'zingizga zarar bo'ladigan narsalarga sarflamang. Umr juda qisqa, ko'z ochib yumguncha bir zumda o'tib ketadi va hech qachon ortga qaytmaydi. Fursat o'tgandan keyin afsus-nadomat qilishning foydasi bo'lmaydi. Shuning uchun imkon borida umrning har bir lahzasining qadriga yetib, undan unumli va oqilona foydalaning. Shunda sizdan yaxshiliklar va yaxshi nom qoladi.





Ilm – eng katta boylik

Ilm haqida ko‘p va xo‘p gapirish mumkin. Uning barcha fazilatlarini bir o‘tirishda yoki bir mavzu doirasida tugatib bo‘lmaydi. Shuning uchun biz ham ushbu mavzuning ba’zi jihatlarini qisqacha bayon qilamiz xolos.

Ilm shunday fazilatki, insonni jaholat zulmatidan nurga olib chiqadi. Bu nur uning hayot yo‘llarini yoritadi. Og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qiladi. Ulamolar ilmni suzishga o‘xshatadilar. Suzishni bilgan kishi ko‘zlagan manziliga sog‘-salomat yetib oladi. Suzishni bilmagan esa jaholat botqog‘iga cho‘kib, halok bo‘ladi.

Ilm inson hosil qiladigan eng ulug‘ fazilatlardan biridir. Ilm egasi dunyodagi eng katta boylikka ega bo‘lgan kishidir. Johil esa juda ko‘p yaxshiliklardan mahrum bo‘lgan kishidir. Zero, ulamolardan biri: “Ilmni boy bergan kishi nimaga erishibdi-yu, ilmga yetishgan kishi nimani yo‘qotibdi?!” deb juda to‘g‘ri aytgan.

Ilm Qur’oni karimda Alloh taolo ziyoda qilishni so‘rashga buyurgan yagona fazilatdir.

«Ba: “Rabbim, ilmimni ziyoda qilgin”, degin»
(Toha surasi, 114-oyat).



Dinimiz ilm-ma'rifatga alohida e'tibor bergani uchun ilm talab qilishni farz darajasiga ko'tardi. Hadisi sharifda bunday marhamat qilinadi:

*Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Nabiysollallohu alayhi va sallam: **"Har bir musulmonga ilm talab qilish farzdir"**, dedilar" (Imom Ibn Moja rivoyati).*

"Al-Aliym" Alloh taoloning go'zal ismlaridan biri bo'lib, barcha ilmlarning egasi Udir.

Ilm o'tgan ulug' payg'ambarlar va solih kishilarning yo'lidir.

Dinimiz ilmga katta e'tibor beradi. Boshqa biror xalq yoki tuzumni ilmga bunchalik e'tibor qilganini ko'rmaysiz. Qur'oni karimda "ilm" so'zi eng ko'p zikr qilinib, yetti yuzdan ortiq o'rinda kelgan. Yuzdan ortiq hadislarda ilm va uning fazilati haqida so'z boradi. Mana shu ma'lumotlarning o'zi ham Islomning ilm-ma'rifat dini ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, Qur'oni karimning birinchi va ikkinchi nozil bo'lgan suralari "Iqro" (o'qi) va "Qalam" deb nomlanishi hamda uning ilk oyatlarida ilm va unga xizmat qiluvchi o'quv qurollarining zikr etilishi ham yuqoridagi so'zimizni yana bir karra tasdiqlaydi.

Ilm kitob o'qish bilan ziyoda bo'ladi

Alloh taolo Qur'oni karimda marhamat qilib bunday deydi: **“Yaratgan Rabbing nomi bilan o'qi. U insonni alaqdan yaratdi. O'qi! va Rabbing eng karamlidir! U qalam bilan ilm o'rgatgandir. U insonga u bilmagan narsani o'rgatdi”** (*Alaq surasi, 1–5-oyatlar*).

Tarixni bir eslaydigan bo'lsak, Alloh taolo Muhammad sollallohu alayhi va sallamni payg'ambar qilib yuborgan vaqtda odamlar jaholat botqog'iga butunlay botgan edi. “O'qi” so'zining ilk vahiy oyati bo'lishining hikmati shuki, insonlarni jaholat botqog'idan xalos bo'lishlarining birdan bir yagona yo'li o'qib-o'rganish va ilm olishdir.

E'tibor bergan bo'lsangiz, oyatda kelgan “Iqro” (o'qi) so'zi ikki marta takrorlandi. Birinchi “o'qi” so'zidan keyin insonni juda haqir va arziyas laxta qon holati zikr qilindi. Ikkinchi marta kelgan “o'qi” so'zidan keyin esa insonni qadrli va sharaflili ilm-ma'rifatli holati bayon qilindi. Shunga ko'ra, kim dunyoda o'qib-o'rgansa, ilm hosil qilsa, qadr-qiymatga ega bo'lar ekan. Yo'qsa, o'sha qadr-qiymatsiz holatida qolib ketar ekan.

Darhaqiqat, ilm olish o'qish bilan hosil bo'ladi. Taom tanaga ozuqa bo'lganidek, mutolaa ruh



va aqlning ozuqasidir. Ochiqroq aytganda, keyingi paytlarda kitobdan ancha uzoqlashib ketdik. Kitobxonlar kamaydi. Hatto oxirgi marta qachon va qaysi kitobni o'qiganimizni eslay olmaydigan darajaga yetdik. Kitobning ahamiyati haqida adiblardan biri shayx Ali Tantoviy rahmatullohi alayh juda ajoyib gap aytgan: "Biror yurtdagi taraqqiyot darajasini bilmoqchi bo'lsak, u yerda sotilayotgan kitoblar soniga qaraylik".

Yevropalik bir kishi bir yilda o'rtacha 30–35 ta kitob o'qir ekan. Sodda qilib aytganda, bu ishga ikki yuz soat vaqtini sarflaydi. Shuning uchun ular ko'p sohalarda bizdan ilgarilab ketdi. Qani, insof bilan aytaylik-chi, biz o'zimiz kitob o'qishga qancha vaqt sarflayapmiz?! Gohida haftalab, oylab, balki yillab qo'limizga kitob olmaymiz. Bugun Imom Buxoriylar avlodimiz deya quruqdan quruq maqtanib, faxr qilish davri o'tdi. Ularga munosib avlod bo'lish vaqti keldi. Bolalarimizning kitob mutolaa qilishini xohlasak, avvalo o'zimiz o'qib o'rnak bo'lishimiz kerak. Biz o'qimasak, bolalarimiz ham kitobga begona bo'lib boradi. Ularga biz o'zimiz o'rnak bo'lmasak, boshqalar o'rnak bo'ladi. Bolalarimiz o'qisin, o'rgansin. Buning uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan.

Ilm diniy va dunyoviyga bo'linmaydi


Imom Zarnujiy rahmatullohi alayh “Ta’lim-ul muta’allim” (Ilm oluvchilarga ta’lim berish) kitobida **“Har bir musulmonga ilm talab qilish farzdir”** hadisini juda go’zal tarzda sharhlagan. Mazkur sharhni muxtasar holda keltiramiz. Asarda muallif har bir musulmon erkak va ayolga barcha ilmlarni o’rganish farz emasligi, balki hol ilmini bilish farz ekaniga urg’u beradi. (“Hol ilmi” deganda har bir insonga bilishi zarur va lozim bo’lgan ilmlar nazarda tutiladi.) Ibodatlarni ado etadigan darajada bilish farzdir. Shuningdek, savdo-sotiq, kasb-hunar, qalbga oid amallar va odob-axloq masalalarida qaysi biri mumkin, qaysi biri mumkin emasligini bilish ham farzdir.

Shu o’rinda bir mulohaza borki, ayrim kishilar ilm deganda faqat diniy ilmlarni tushunib, Islomda dunyoviy ilmlarning o’rni yo’q, degan noto’g’ri fikrga borib qolgan. Aslida diniy ilmlar ham, dunyoviy ilmlar ham Alloh taoloning ilmi bo’lib, ularni bir-biridan ajratish aslo mumkin emas. Barcha dalillarni chuqur o’rgangan ulamolar ilm diniy va dunyoviyga bo’linmaydi, balki maqtalgan va mazammat qilingan turga bo’linadi, degan



xulosaga kelganlar. Niyatga qarab barcha ilmlar uxroviy ma'no kasb etadi. Diniy va dunyoviy deb ajratish ulardagi mavzular e'tiboridan xolos. Tibbiyot, hisob, sanoat va boshqa ilmlar dunyo manfaatlarini qoim qilish uchun kerak. Bu ilmlar farzi kifoya hisoblanib, unga doim ehtiyoj seziladi.

Tib ilmi zaruriy ilm bo'lib, u inson salomatligi uchun xizmat qiladi. Hisob (matematika) ilmi ham zaruriy ilmdir. Chunki moliyaviy muomalalar, meros va vasiyatlarni taqsimlashda unga ehtiyoj bor. Agar shahar yoki qishloqda bu ilmlarni biladigan kishini topib bo'lmasa, hamma teng gunohkor bo'ladi. Shahar ahlidan uni bajaradigan kishi chiqsa, boshqalardan gunoh soqit bo'ladi. Dehqonchilik, tijorat, to'qimachilik, hijoma qilish, tikuvchilik kabi kasblarni o'rganish farzi kifoya hisoblanadi. Agar yurtda bemorlarni davolaydigan birorta tabib bo'lmasa, shu joyning aholisi gunohkor bo'ladilar. Bu esa aqlan ahmoqlik, shar'an man qilingan ishdir. Chunki Alloh taolo Qur'oni karimda aytadi: **"O'zingizni halokatga duchor qilmang"** (*Baqara surasi, 195-oyat*). Shuningdek, insonlar qadimdan yuqoridagi ilmlarni o'rganib, amaliyotga tatbiq etib foyda ko'rganlar. Bu ishni haligacha hech kim inkor qilgan emas. Kim mana shu ilmlarni



O'tgan ajdodlarimiz bu borada biz uchun o'rnak va namuna. Ular ilmlar orasini ajratmaganlar. Balki barcha ilmlar bilan shug'ullanib, ularni chuqur o'rganganlar.

Imom Burhoniddin Margʻinoniy rahmatullohi alayhning “At-tajnis val mazid” (“Oʻxshash va ziyo-da qilingan masalalar”) kitobida bir ajoyib masala keltirilgan: “Agar it insondagi biror aʼzosi yoki kiyimini gʻazab holatida tishlagan boʻlsa, uni yuvish vojib boʻlmaydi. Hazillashib tishlagan holatida esa (tekkan joy va kiyimni) yuvish vojib boʻladi. Birinchi holatda it faqat tishi bilan tishlaydi, undan boshqacha boʻlmaydi. Ikkinchi holatda esa tishi va nam lablari bilan tishlaydi”.

O'tgan ajdodlarimizning ilm-zakovatiga bir qarang! Haqiqatda ilm-ma'rifat va ma'naviyatda ilg'or va yetakchi bo'lganlar. Aytilgan masalaga e'tibor qarating: biror a'zo yoki kiyimga tegib, najosat qiladigan so'lak itning labida bo'lar ekan. Shuning uchun uning hazillashib tishlagan



holatida tekkan joy va kiyimni yuvish vojib bo'lar ekan. Chunki bu holatda tish va najosat joylashgan lablar ishtirok etadi. It g'azab bilan tishlagan holatda esa lablarini orqaga tortib, tishlarning o'zi ishtirok etadi. Bunda kiyim ham, badan ham najas bo'lmaydi. Endi o'zingiz xulosa chiqaring. Agar Marg'inoniy hazratlari zoologiya fanini o'rganmaganida bunday nozik farqni qayerdan bilgan bo'lardi?! Bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Ilm erkak va ayolga birdek farzdir

Islom dini ilm-ma'rifatga targ'ib qilib, uning hukmini farz darajasiga ko'tarar ekan, bu hukm xotin-qizlarni ham chetlab o'tmagan. Chunki jamiyatning yarmidan ko'pini xotin-qizlar tashkil qiladi. Ularni ilmsiz qoldirish jamiyatni ilmsiz qoldirish demakdir. Ayniqsa, kelajak avlod tarbiyasi xotin-qizlarimizga bog'liq. Hikmatlarda "Onalar maktabdir" deyiladi. Darhaqiqat, agar ayollar odobli va bilimli bo'lsalar, ular tarbiya qilgan avlod ham bilimli va odobli bo'lishi muqarrar.

Rivoyat qilinishicha, bir kishi hakimlardan birining huzuriga kelib: "Hazrat, mening bir o'g'lim va

bir qizim bor. Ulardan har ikkisini o'qitishga qur-
bim yetmaydi, faqatgina bittasini o'qitishga im-
konim bor, qaysi birini o'qitay?" deb so'rabdi. Shun-
da hakim zot: "Qizingni o'qit, chunki u kelajakda
farzand tarbiya qiladi. Agar o'g'lingni o'qitsang, bir
kishini o'qitgan bo'lasan, ammo qizingni o'qitsang,
butun bir jamiyatni o'qitgan bo'lasan", deb javob
bergan ekan. Qanchadan qancha allomalarni
onalari tarbiyalagani hech birimizga sir emas.
"Har buyuk shaxs ortida ayol turadi" so'zi ham be-
jiz aytilmagan.

Ta'lim dargohlarini barpo qilish fazilati

Inson hayotida o'qish-yozish muhim ahami-
yat kasb etadi. Payg'ambarimiz sollallohu
alayhi va sallam ham hayotlik vaqtlaridayoq
sahobalarni o'qish-yozishga targ'ib qildilar. Hatto
o'sha vaqtlarda jangda asir tushganlar orasida
o'qish-yozishni biladiganlarini o'n nafar sahobaga
o'qish-yozishni o'rgatib qo'yishi sharti bilan ozod
qilib yuborganlar. Darhaqiqat, o'qish va yozish ulug'
fazilatlardan hisoblanadi. Chunki inson bu ikki
xislat bilan ilm-ma'rifatli bo'ladi, o'zidagi jaholat-



ni ketkazadi. Maktablar, o'quv dargohlari ma'rifat ulashuvchi mo'tabar maskanlar hisoblanadi.

Alloh taolo Qur'oni karim oyatlarida bunday marhamat qiladi:

“U sizlarni yerdan paydo qildi va unga sizni obodligi uchun qo'ydi” (*Hud surasi, 61-oyat*).

“U sizlarga yerni bo'ysundirib qo'ygan zotdir. Bas, uning turli joylarida yuring va Uning rizqidan eng” (*Mulk surasi, 15-oyat*).

Mufasssir ulamolar yuqoridagi oyati karimalarda kelgan yerni obod qilish, halol kasb orqali rizq topish dunyoviy ilmlar bilan amalga oshadi, bu esa o'sha ilmlarni o'rgatuvchi ta'lim dargohlari bilan yuzaga chiqadi, deydilar.

Usulul fiqh qoidalariga ko'ra, “Farzga olib boruvchi narsalar farz bo'ladi”. Shunga ko'ra, farzi kifoya bo'lgan dunyoviy ilmlarni o'rganish va uni o'rgatuvchi maskanlarni bunyod etish farzi kifoya hisoblanadi. Ulamolar eng yaxshi sarmoya ta'limga tikilgan mablag', deydilar.

Bog'cha, maktab, madrasa, oliygoh va ta'lim dargohlarini bunyod etish sadaqayi joriya hisoblanadi.

*Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilina-
di: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “Inson*

vafot etganda uning amali to'xtaydi, faqat uch narsa tufayli uning nomai a'moliga savob yozilib turadi: sadaqayi joriya, foydali ilm va duoi xayr qiluvchi solih farzand", dedilar» (Imom Muslim rivoyati).

Ta'lim dargohlari barpo etilar ekan, uni tashkil etgan kishiga sadaqayi joriya bo'ladi. Unda talabalar ta'lim olar ekan, foydali ilmga xizmat qilgan bo'ladi. Ta'lim-tarbiya olgan talaba ota-onasi hayot paytida xizmatini qiladi. Agar vafot etib ketgan bo'lsalar, haqlariga duoyi xayrlar qiladi. Zero, ta'lim-tarbiya olmagan, jaholatda o'sgan farzand ota-onasining haqqiga duo qilish u yoqda tursin, o'z haqqiga ham duo qila olmaydi.

Oldinlari inson hayoti uchun zarur bo'lgan o'qish-yozish, hisob-kitob qilish, odob-axloq kabi ilmlarni egallash uchun podshohlar saroyiga muallim va murabbiylarni taklif etilgan. Keyinchalik bu holat muallimlar uyiga ko'chib o'tdi. Asta-sekinlik bilan musulmonlar tomonidan maktab va madrasa qurish an'ana tusini ola boshladi. Shu tariqa birinchi maktab, madrasa va oliygohlar (jome'alar) musulmonlar tomonidan bunyod etildi. Hatto ta'limni ibtidoiy (boshlang'ich), o'rta va oliy (taxassus) ga ajratish va alohida fanlarga yo'naltirish kulli-



yot-fakultetlarga bo'lib o'qitish ham musulmonlar tomonidan o'ylab topildi.

Birinchi madrasa (maktab) Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam tomonlaridan barpo qilingan. U Dorul Arqam ibn Abu Arqam roziyallohu anhunging madrasasi bo'lgan. Ehtimol, katta-katta ilm dargohlarini "Dorul ulum" (Ilmlar uyi) deb nomlash mana shundan olingandir.

Tarix kitoblarimizda Movarounnahr aholisini "madrasaga qatnaydigan xalq" sifatida keltiriladi. Darvoqe, madrasa va maktab bir ma'noni anglatuvchi so'zlar hisoblanadi. Birinchi madrasa va maktablar Naysabur, Marv va Buxoro shaharlarida bunyod etilgan.

Barcha musulmon yurtlarida talabalarni taom, kitob, kiyim-kechak va yotoqxona bilan ta'minlash oddiy hol hisoblangan. Ta'lim dargohlarini bunyod etish va ularning moddiy ta'minoti hukumatlar, vaqflar, hattoki boy kishilar tomonidan amalga oshirilgan. Boy kishilar bu ishga o'zlarining oliy maqsadlari sifatida qaraganlar. Shu bois ham mazkur o'quv yurtlaridagi talabalar turli ilmlarni qunt bilan o'rganganlar.

Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, ilm dargohlarini qurish va unda ta'lim

oluvchi talabalarni moddiy tarafdin ta'minlash, ularning kontrakt-shartnoma pullarini to'lab berish, kitoblari va o'quv qurollarini yetkazish dinimizda targ'ib qilingan ulug' ishlardan bo'lib, sadaqayi joriya hisoblanar ekan.

O'sib kelayotgan farzandlarimizni har tomonlama yetuk, ilmi va odobli-axloqli qilib voyaga yetkazish bugungi kunimizning eng dolzarb masalalaridan biridir. Zero, qaysi davlatning yoshlari ilm-ma'rifatli bo'lsa, o'sha yurt tez taraqqiy etadi. Ilm-ma'rifat tarqatish maktab, madrasa, oliygohlarni barpo etish bilan amalga oshadi.

Toshga o'yilgan naqsh

Yoshlik juda ko'p fazilat va yaxshiliklarni hosil qilishda muhim bir davr hisoblanadi. Xususan, eng ulug' fazilatlardan biri ilm olish uchun qulay va munosib vaqt yoshlik chog'idir. Oyat va hadislarda yoshlikda ilm olishga targ'ib qilinadi. Manbalarda payg'ambarlarga ilmu hikmat ayni yoshlik vaqtida berilgani aytiladi. "Jabroil hadisi" nomi bilan mashhur hadisda bu haqda quyidagilar aytilgan. Ushbu hadis uzun bo'lgani sababli mavzuimizga taalluqli qismini keltirish bilan kifoyalanamiz. Umar ibn



Xattob roziyallohu anhu rivoyat qiladi: ***“Bir kuni kiyimi oppoq, sochlari qop-qora bir kishi keldi. Unda safar asorati ko‘rinmasdi. Bizdan hech birimiz uni tanimadik. U Rasululloh sollallohu alayhi va sallam oldilariga kelib, tizzasini ul zotning tizzalariga tekkizib, ikki kaftini ul zotning sonlariga qo‘yib o‘tirdi”.***

Hadisga e‘tibor bergan bo‘lsangiz, unda musofir kishining tashqi ko‘rinishi, liboslari va harakatlariga urg‘u berilmoqda. Ulamolar hadisni sharhlar ekan, unda ilmning eng asosiy uch poydevori – poklik, yoshlik va ustoz haqida so‘z borayotganini, mazkur qahramonimiz misolida tolibi ilmning siymosi gavalantirilganini, u musofir bo‘lsa-da, kiyimlari oqligi poklikni, sochlari qoraligi yoshlikni va Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning huzurlariga borib odob ila o‘tirishi va muhim savollarni so‘rashi ustozning ahamiyatini ko‘rsatadi, deydilar.

Imom Tabaroniy Abu Dardo roziyallohu anhudan rivoyat qilib aytadi: “Yoshligida ilm olgan kishining misoli toshga o‘yib yozilgan naqshdek, yoshi o‘tganidan keyin ilm olgan kishining misoli suvga yozgandekdir”.



Nega ilm olish uchun yoshlik davri eng munosib hisoblanadi? Chunki bu davrda bola xotirasi o'tkir, turli tashvish va yumushlardan xoli, fikri-zikri faqat o'qish bilan band bo'lganidan ilmni yaxshi o'zlashtiradi. Yoshi ulg'ayib borgach, ishlari ko'payib, fikri tarqoq bo'ladi. Shu sababli ko'pincha ilm olishga vaqt topa olmaydi. Shuning uchun dinimizda ilmni yoshlikda egallashga chaqiriladi. Hikmatlarda: **“Yoshligida ilm olmagan kishi ulg'ayganida yuksalmaydi”**, deyiladi.

Alloh taolo kelajagimiz tayanchi bo'lgan yoshlarimizga foydali ilmlarni egallashda kuch-quvvat va g'ayrat ato qilsin. Yomon illatlardan, xususan, jaholatdan hamisha O'z panohida saqlasin. Yoshlarimiz el-yurt, millat va din uchun foydali inson bo'lib yetishsinlar.



***Aziz o'g'il-qizlarim! O'qing, o'rganing, ma'rifat
hosil qiling. Bu yo'lda himmatingizni baland qilib,
yuksak marra va cho'qqilarni egallashni niyat qi-
ling. O'tgan ajdodlarimiz biz uchun ibrat. Ularn-
ing qoldirgan ilmiy-ma'naviy merosi hamon dunyo
tamadduniga xizmat qilib kelmoqda. Siz ham ular-
ning yo'lini tutib, ilmli-ma'rifatli insonga aylaning.
Zero, ilm sizlarni ikki dunyo saodatiga yetaklaydi.
Johil bo'lib qolishdan ehtiyot bo'ling. Chunki dunyo-
da jaholatdan yomonroq ma'naviy illat bo'lmaydi.***





Ustozlar ehtiromi – ajdodlar merosi



Ustozlar jamiyat bunyodkorlaridir

Har bir jamiyat rivoji va yuksalishida ta'lim muhim o'rin tutadi. Busiz rivojlanish, taraqqiyot haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Chunki jamiyatdagi qaysi sohani olmang, unda yetuk mutaxassis bo'lish uchun albatta ustoz kerak bo'ladi.

Dinimizda ustozning qadri va fazli ulug' daraja va maqomlarga ko'tarilgan. Chunki bu sharaflilik kasb egalari tufayli inson o'zidagi jaholatni ketkazib, ma'rifat sari qadam tashlaydi. Ular sababli ikki dunyo saodatini qo'lga kiritadi. Alloh taolo bu haqda Qur'oni karimda bunday marhamat qiladi:

“Alloh sizlardan iymon keltirganlarni va ilmga berilganlarning darajalarini ko'tarur”
(*Mujodala surasi, 11-oyat*).

Alloh taolo ilimli kishilarning maqom-martabalarini yuksaklarga ko'tarib qo'ygani ulug' sharaftir. Dunyoda bundan ortiq sharaf bo'lmaydi. Ustozlar haqida mana shu oyati karimadan boshqa biror fazilat aytilmaganida ham ularning fazilati uchun kifoya qilardi.

Ustoz va murabbiylik fazilati haqida hadisi shariflarda ham bir qancha marhamatlar vorid

bo'lgan. Jumladan, *Abu Umoma Bohiliy roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Nabiy sollallohu alayhi va sallam: **“Alloh, Uning farishtalari, osmonlar-u yer ahli, hattoki uyasidagi chumoli va baliq ham odamlarga yaxshilikni o'rgatuvchiga salavot aytadilar”**, dedilar» (Imom Termiziy rivoyati).*

Nima uchun bunday? Chunki ustoz va murabbiylar nafaqat insoniyatga, balki butun koinotga qanday muomalada bo'lishni ta'lim beradilar.

Ulamolardan biri juda chiroyli so'z aytgan: “Vatan uch toifa kasb egalarining xizmati tufayli obod bo'ladi: xalq uchun shirindan-shakar ne'matlar taqdim etuvchi bobo dehqon, uni turli yov va yomonliklardan himoya qiluvchi askar va tarbiya qiluvchi muallim.

Ta'bir joiz bo'lsa, ustozlar va murabbiylar jamiyat binosini mustahkam quruvchi bunyodkorlardir. Ular jamiyatni ma'naviy illatlardan asraydigan tabiblardir. Ustoz va murabbiylar shu darajada ko'p fazilatlarga egalarki, bu yerda ulardan bir shingilini keltirdik xolos.

Ta'zim sizga, aziz ustozlar!

Ustoz va murabbiylar mashaqqatli va ayni paytda sharaflı kasb egalarıdır. Ularga qancha hurmat-ehtirom ko'rsatsak, oz.

Ustozlar jamiyatimizga suv va havodek zarur. Bu muhtaram zotlarni bamisoli o'z nurini atrofga sochayotgan quyoshga o'xshatsak bo'ladi. Quyosh nuridan barcha mavjudot foydalanganidek, ularning ma'rifat ziyolaridan butun bashariyatga manfaat yetadi. Bu haqda Abdurahmon Jomiy hazratlari quyidagi go'zal misralarni keltirgan:

*Ustoz, murabbiysiz qolganda zamon,
Zulmatda qolardi bu yorug' jahon.*

Ustozga hurmat-ehtirom ko'rsatish ilmga bo'lgan hurmatning bir misoli bo'lib, har bir shogird rioya qilishi vojib bo'lgan haqlardan hisoblanadi. Agar ularga yetarli hurmat-ehtirom ko'rsatilmasa, inson juda katta xusronda qoladi.

*Ustoz ila tabibni bir umr ayla ikrom,
Hayot izdan chiqmaydi, aslo yo'qolmas orom.
Tabibga bersang ozor, dard-u g'amga sabr qil,
Ustozga bersang ozor, jaholatga sabr qil.*



Ustozga ehtirom ko'rsatgan yetar murodga

Ilmga ustoz orqali erishiladi. Shuning uchun ustozlarga doimo hurmat va odob ko'rsatish lozim. Mo'tabar kitoblarimizda ko'plab odoblar borligi zikr qilingan. Jumladan, ustozni ko'rganda salom berish, hol so'rash, uning oldida yurmaslik, ko'p savol bermaslik, joyiga o'tirmaslik, malollanib turganda ko'p vaqtini olmaslik, huzurida ruxsat bersa gapirish, haqlariga duo qilish va boshqalar.

Ustozga qanchalik hurmat ko'rsatilsa, talabanning ilmiga shuncha baraka kiradi. Yuqorida aytganimizdek, ustozlarga odob ko'rsatish bilan bir qatorda beodoblik qilib qo'yishdan saqlanish ham lozim. Chunki shogird ustozini behurmat qilish bilan juda ko'p yaxshiliklardan mahrum bo'ladi. Ilm yuqmay johil holatda qolib ketishi eng katta xusrondir. Zero, mashoyixlar: "Beodob benasib", deya bejiz aytishmagan.

O'tgan azizlarimizning ustozlariga ko'rsatgan hurmat-ehtiromlari doimo biz uchun o'rnak va namuna. Ulardan ba'zi birlarini e'tiboringizga havola qilamiz.



Abdulloh ibn Abbos roziyallohu anhumo o‘zidan yoshi ulug‘ bo‘lgan Zayd ibn Sobit roziyallohu an-huning ulovi tizginidan tutib, minishida unga yordam berib bunday degan: “Ulamolarga shun-day xizmat qilishga buyurilganmiz”.

Imomi A‘zam Abu Hanifa rahmatullohi alayh ustoziga doimo hurmat ko‘rsatar edi. Aytadiki, ustozim Hammodning hurmatini deb u zotning uyi tomonga oyog‘imni uzatmadim. Holbuki, u zotning uyi bilan mening uyim orasida yettita ko‘cha bor edi. Ustozimning vafotidan so‘ng qachon namoz o‘qisam, har safar albatta ota-onamga qo‘shib, u zotga ham Allohdan mag‘firat so‘raganman. Nafaqat u zot, balki kimdan nimadir o‘rgangan bo‘lsam yoki kimdir menga nimadir o‘rgatgan bo‘lsa, albatta ular uchun ham doim Alloh taolodan mag‘firat so‘radim.

Ustozlik buyuk sharafdir

Muallimlik eng ulug‘ kasbdir. Suyukli Payg‘am-barimiz sollallohu alayhi va sallamni bu dun-yoga muallim o‘laroq yuborilgani bu kasbning nechog‘lik ulug‘ligini ko‘rsatadi. Bir forsiy baytda ustoz ko‘rmay o‘tkazilgan umrning befoydaligi aytiladi:



*Agar shumori umrat fuzun zi hashtod ast,
Nadida xidmati ustod lag'vu barbod ast.*

Tarjimasi:

Ustozsiz yashasang agar sakson yosh,
Bu umr tarozida bosmaydi tosh.

Ya'ni sening yoshing saksondan o'tgan bo'lsa-
da, ustoz xizmatini ko'rmagan bo'lsang, bu umr
befoyda o'tibdi.

Ustozlar tarqatgan ilm-u ma'rifat sababli bu
dunyoda ko'plab ajr-u savoblarga ega bo'ladilar.
Shuningdek, ular qoldirgan foydali ilm, shogird-
lar va asarlar savobi to'xtovsiz borib turadigan
sadaqayi joriya hisoblanadi. Bu haqda Payg'am-
barimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam
bunday deganlar:

*Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilina-
di: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: **"Inson
vafot etganda uning amali to'xtaydi, faqat uch
narsa bundan mustasno: sadaqayi joriya, foy-
dali ilm va duoyi xayr qiluvchi solih farzand",**
dedilar» (Imom Muslim rivoyati).*

Foydali ilmga ergashish yo'li

Dunyoda ilmdek aziz narsa yo'q. Kishi biror ilm yoki kasb bo'yicha mohir va yetuk mutaxassis bo'lishni orzu qilar ekan, albatta, biror ustozning etagidan tutmog'i lozim. Ilm yo'liga ustozsiz kirish turli ko'ngilsiz holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Zero, xalqimizda ham: "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar", degan purhikmat naql bor.

Haqiqatdan ham har bir ilmni o'z egasidan o'rganish lozim. Hikmatlarda: "Har bir fanning o'z kitobi bor, har bir kitobning esa o'z ulamosi bor", deyilgan. Foydali ilmni egallashda kitoblarning o'zi kifoya qilmaydi.

Ayniqsa, shar'iy ilmlarni taqvodor va salohiyatli ulamo huzurida o'rganish lozim. Shar'iy ilmlarni ustozdan olish uning xosiyatlaridan biridir. To'g'ri, kitob bu – olimning hayoti. Lekin shar'iy ilmlarga faqat kitob bilangina yetilmaydi. Kitoblar tolibi ilmni maqsadga olib boruvchi ko'makchi xolos. Kitobning o'ziga cheklanish yoki internet tarmoqlarini o'ziga ustoz qilib olish eng katta balo va eng katta xatardir. Chunki ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan hamma narsani ham to'g'ri deya

olmaymiz. Uning ichida insonning saodatiga xizmat qiladigan ma'lumotlar bilan birga to'g'ri yo'ldan adashtiradigan xato va yanglish fikrlar ham bor. Ayniqsa, bugungi tahlikali zamonda bu isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylanib ulgurgan. O'tgan azizlarimiz: "Eng katta balo sahifadan o'qib olim bo'lish", deya uning xataridan ogohlantirganlar. Qadimda: "Kimning ustozini kitob bo'lsa, uning xatosi to'g'risidan ko'proq bo'ladi", deyilardi.

Kitobning o'zi bilan kifoyalanishning ba'zi ofatlari haqida so'z yuritgan ulamolar quyidagi narsalarga e'tiborimizni tortadi: "Talabalar ko'pincha nashr natijasida yo'l qo'yilgan xatolar, so'zlarning tushib yoki qo'shib qolgani, e'robni buzib o'qish, undan yuzaga kelgan buzuq ma'no, yozilmagan narsalarni o'qib olish, o'qilmagan narsalarni yozib qo'yish, kitob sohibining mazhabi, aqidasi, bilmaslik, nashr nusxasining ishonchli emasligi, naqlning sahih yoki zaifligi, soha vakillari qo'llagan istilohlar bayonini tushunmaslik va ilmga oid boshqa xatolarni bilmaydilar. Shu holatda odamlarga fatvo bersalar, o'zlarini ham, o'zgalarni ham adashtiradilar. Shuning uchun ustozda tahsil olgan talabalar bunday zararlardan



chetda bo'ladilar. Mana shu sabablarga ko'ra ilmni ustoz huzurida olishga buyuriladi".

Nima uchun ilm olishda ustoz bo'lishi kerak? Chunki ilm nur bo'lib, u qalbdan-qalbga farishta vositasida o'tadi. Ustozsiz o'rganilgan ilmda foyda bo'lmaydi. Katta ulamolarning bu borada aytgan so'zlariga e'tibor qarataylik. Abu Hanifa rahmatullohi alayhga masjidda munozara qilayotgan halqa haqida aytili. Shunda u zot:

- Ularning boshi (ustoz) bormi? – dedi.
- Yo'q, – deyishdi ular.
- Unda hargiz faqih bo'la olmaydilar, – dedi imom.

Demak, har qanday ilm yoki kasbni ustoz huzurida o'rganish darkor ekan. Ba'zi bir masalalar borki, uni faqat tajribali ustoz va mohir olimning izohi bilangina yechish mumkin. Ulug'lardan biri shunday degan: "Kim ilmga yolg'iz kirs, undan yolg'iz chiqadi". Ya'ni harakati befoyda va besamar bo'ladi.

Alloh barcha ustoz-u murabbiylarning avvalo tan-u jonlarini salomat, umr rizqlari va xonadonlariga baraka, ilm-ma'rifat yo'lida olib borayotgan ishlarida O'zi madadkor bo'lsin. Yaratgan barchalarini turli yomonliklardan panohida asrasin.



Aziz o'g'il-qizlarim! *Insonga ilm-ma'rifat
suv va havodek zarurligini, busiz inson kamolot
cho'qqilarini zabt eta olmasligini va qoloqlik va
jaholatga yuz tutishini ko'rib o'tdik. Lekin bu dara-
jaga ustoz va murabbiylar mehnati va zahmatisiz
erishib bo'lmaydi. Shuning uchun har bir inson-
ning yutuq va muvaffaqiyatlarga erishishida ustoz
va murabbiylarning xizmati juda ulug'. Shuning
uchun ustoz va murabbiylarni bir dona harf o'rgat-
gan bo'lsa ham, izzat-ikrom va hurmat qilish kerak.
Shundagina shogirdlar hayoti va ilmida baraka
bo'ladi.*





Tarbiya yo hayot, yo mamot...



Tarbiya insonga xos xususiyat

Tarbiya inson hayotida muhim o'rin tutgani uchun dinimizda ham bu masalaga alohida e'tibor berilgan. Tarbiya inson uchun suv va havodek zarur. Busiz insoniylikdan ma'no qolmaydi. Inson ta'lim-tarbiya bilan hayot. Taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniy: "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", deganda ayni mana shu ma'noni nazarda tutgan bo'lsa, ajab emas.

Tarbiya masalasining ahamiyati haqida Sa'diy Sheroziy rahmatullohi alayh bunday misralarni bitgan:

*Minbarning poyida tursa ham eshak,
Tarbiya yuqmaydi, bo'lmaydi odam.
Tarbiya ko'rmayin ulg'aysa kishi,
Eshak bo'lib qolur yuzga kirsam ham.*

Inson tarbiyaga muhtoj

Imom G‘azzoliy rahmatullohi alayh bunga ajoyib misol keltiradi. Hayvonlarga qarang. Ular tug‘ilishi bilan oyoqqa turib, o‘z ozuqasini topish harakatida bo‘ladi. Inson bolasida esa bunday bo‘lmaydi. U dunyoga kelgan vaqt hatto ustiga qo‘ngan pashshani ham hayday olmaydi. Unga qarov va tarbiya kerak. Bo‘lmasa nobud bo‘lib qolishi turgan gap. Ko‘ryapsizmi, shu holatning o‘zi ham insonga tarbiya naqadar zarur va kerakligining bir isbotidir.

Go‘zal tarbiya – ikki dunyo saodati

Abu Homid G‘azzoliy rahmatullohi alayh o‘zi-ning yetti iqlimga dong‘i ketgan “Ihyou ulumiddin” kitobida bunday deydi:

“Bilgil! Bolaning tarbiya qilish yo‘li eng muhim va dolzarb ishlardandir. Bola ota-onasi huzurida omonatdir. Uning pok qalbi har qanday naqsh va suratdan xoli sodda va nafis gavhardir. U chizilgan har qanday naqshni o‘ziga qabul qiladi. Qayoqqa burilsa, burilib ketaveradi. Agar uni yaxshilikka odatlantirilsa va o‘rgatilsa, shunday

holatda ulg'aysa, dunyo va oxiratda baxt topadi. Uning savobiga ota-onasi, muallim va murabbiylari sherik bo'ladi. Agar u yomonlikka o'rgatilsa va hayvondek o'z holiga tashlab qo'yilsa, baxtsiz va halok bo'ladi. Gunoh unga mas'ul va javobgar bo'lganning bo'ynida bo'ladi".

Alloh taolo aytadi: "Ey iymon keltirganlar! O'zingizni va ahli ayolingizni yoqilg'isi odamlar-u toshdan bo'lgan o'tdan saqlang. Uning tepasida qo'pol, darg'azab farishtalar bo'lib, ular Allohning amriga isyon qilmaslar va nimaga buyurilsalar, shuni qilurlar" (Tahrim surasi, 6-oyat).

Mazkur oyati karima tafsirida Imom Tabariy rahmatullohi alayh Ali roziyallohu anhudan quyidagi naqlni keltiradi: "Odamlar Ali roziyallohu anhuga bolalarimiz va ahlimizni do'zax o'tidan qanday saqlaymiz?" deyishganda ularga shunday javob bergan: "Ularga ta'lim-tarbiya berish bilan saqlaysizlar!"

Mas'uliyatni his etgan ota qanday bo'lmasin, o'z bolasini dunyo o'tidan saqlaydi, ehtiyot qiladi. Shunday ekan, endi uni oxirat o'tidan saqlashi oldingidan avlodir. Oxirat o'tidan saqlash bolaga odob berish va go'zal xulqlarni o'rgatish bilan



bo'ladi. Uni yomon sheriklardan ehtiyot qilish, to'kin-sochinlikka odatlantirmaslik, ziynat va hashamatga o'rgatmaslik ham muhim o'rin tutadi. Agar bola hashamatga berilgan bo'lsa, uning talabida umrini zoye qiladi va abadul abad halokatlarga yuz tutadi.

Tarbiyaning ahamiyati

Inson kamoloti va jamiyatda tutgan o'rni bolalikdan olgan ta'lim-tarbiyasiga bog'liq. U yoshlikdan ta'lim-tarbiya olib ulg'aygan bo'lsa, xush xulqli, go'zal odob sohibiga aylanadi va ikki dunyo saodatini qo'lga kiritadi. Tarbiyali insonlar ko'paygan jamiyat esa har taraflama rivojlangan va mustahkam bo'ladi. Tarbiyasi zaif yoki yomon bo'lgan inson noshukr, axloqsiz va beodob bo'lib ulg'ayadi va oxir-oqibat bundaylardan jamiyat katta zarar ko'radi.

Ma'lumki, bugungi murakkab davrda bashariyat turli fitnalar, buzg'unchi g'oyalar va axborot xurujlari kabi tahdidlardan aziyat chekmoqda. Hozirgi globallashuv zamonida dunyoda kuchayib borayotgan turli ma'naviy tahdidlarning oldini olish va ularning zararli ta'siridan yoshlarni

himoya qilish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yosh avlod o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlar ongini yot g'oyalar ta'siridan asrash, axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, jinoyatchilik, huquqbuzarlik, giyohvandlik, ommaviy madaniyat, diniy ekstremizm va terrorizm illatlarining oldini olishga ko'maklashish hamda yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish lozim. Bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash har birimizning burchimizdir. Bu borada qo'limizdagi asosiy va yagona qurolimiz ta'lim-tarbiyadir.

Tarbiyani farzand dunyoga kelmasidan oldin boshlash kerak

Islomda farzand tarbiyasi hali u dunyoga kelmasidan oldin boshlanadi. Farzandlari go'zal tarbiya olishini istagan ota eng avvalo tarbiyali ona tanlab olishi kerak. Bu ish farzand tarbiyasiga qo'yilgan ilk qadam hisoblanadi. Darhaqiqat, tarbiya masalasida onalarning o'rni beqiyos. Chunki otalar ko'proq uy-ro'zg'or tashvishlari va oila iqtisodiga mas'ul bo'lgani uchun tarbiya ishlari



ko'proq onaning zimmasiga tushadi. Bundan ayollar tarbiyasiga ko'proq ahamiyat qaratish lozimligi kelib chiqadi.

Tarbiya bolaning haqqidir

Ba'zi ota-onalar tarbiya deganda faqat moddiy ta'minotni tushunishadi. Farzandlar nafaqasi, ya'ni ularni yeb-ichish, kiyim-kechak, uy-joy bilan ta'minlash tarbiya emas, otaning zimmasidagi burch va vazifa hisoblanadi. Tarbiya esa farzandlarni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazmoqlikdir.

Tarbiya katta mavzu bo'lib, uning ma'naviy-axloqiy, aqliy, ruhiy, jismoniy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va jinsiy kabi turlari mavjud. Ota-ona farzandini voyaga yetkazar ekan, tarbiyaning ushbu turlariga ko'proq ahamiyat berishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, agar ota-ona farzandlarini yoshligidan tarbiyasiga e'tibor berib, yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalansa, ta'lim-tarbiyani o'z vaqtida bersa, yoshlarimiz albatta har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib voyaga yetishadi. Shunda ular o'z yurtiga munosib, ajdodlariga haqiqiy voris bo'lib yetishadi.



Aziz o'g'il-qizlarim! Mana tarbiya va uning inson hayotidagi ahamiyatini o'rgandik. Tarbiya shunday ulug' fazilatki, u tufayli insonning insoniyligi namoyon bo'ladi. Busiz inson degan nomdan ma'no qolmaydi. Shuni bilingki, sizning ajdodlaringiz tarbiya borasida barchaga ibrat va namuna bo'lganlar. Siz ham ularning yo'lini tutib, tarbiyali inson bo'lishga harakat qiling. Zero, ot izini toy bosadi.





Odob – inson ziynati



Odob nima?

Keling, avvalo, odob soʻzining maʼnosini bilib olaylik. “Odob” soʻzi arab tilida “odamlarni ziyofatga chaqirish” maʼnosini bildiradi. Keyinchalik bu soʻz maʼnaviy ziyofatga chaqirish, yaxshilik va goʻzal xulqlarga chorlash maʼnosida qoʻllanadigan boʻldi. Ilmiy istilohda esa odob goʻzal fazilatlar bilan sifatlanish va yomon xulqlardan tiyilishdir. “Odob” soʻzi urfda yaxshilikka ham nisbatan qoʻllanadi. Bir kishini odobli deyilganda uning yaxshiligi koʻpligiga dalolat qiladi.

Bundan tashqari, “Taomlanish odobi”, “Kiyinish odobi”, “Suhbat odobi”, “Ijtimoiy odoblar” deganda ushbu odatlarni juda maromiga yetkazib bajarishni tushuniladi. Shuningdek, inson ruhiyatini koʻtarib, unga yaxshi taʼsir etuvchi chiroyli kalomga ham “adab” deyiladi. Keyinchalik ushbu taʼsirchan kalom “adabiyot” atamasi nomi bilan alohida fan sifatida shakllandi. Bu ilm bilan shugʻullanadigan mutaxassisni “adib” deb yuritiladigan boʻldi. Oʻzbek tilida maʼno jihatdan biroz farq qilsa-da, xulq va qadriyat odob soʻzi bilan hamohang maʼno kasb etadi.

Odob-axloq uzoq asrlar davomida bizning



qon-qonimizga singib, urf-odat va qadriyatlarimizga aylangan. G'arb dunyosida esa "odob" so'zi o'rniga "madaniyat" va "etika" so'zlari qo'llanib kelinmoqda. Lekin ulardagi "madaniyat" va "etika" istilohlarida muayyan me'yor yo'q. Shuning uchun ba'zi bir beodoblik va xunuk odatlarni odob sifatida talqin qilinadi. Bunga ayni asrimizdagi "ommaviy madaniyat"ni misol keltirsak bo'ladi. Aslida madaniyatsizlik va beodoblikni targ'ib etuvchi bunday qabohatni "olomoncha madaniyat" deyish to'g'ri bo'ladi.

Odoblar asosan xos va umumiyga bo'linadi. Xos odob deganda inson o'zini-o'zi hurmat qilishi, umumiy odob deganda esa jamiyatdagi insonlarni hurmat qilishi tushuniladi.

Islom odob dinidir

Dinimizda odob masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Qur'oni karimdagi barcha oyatlar e'tiqod, hukm va odob mavzulari bilan bog'liq holda nozil bo'lgan. Hatto Qur'oni karimdagi Hujurot surasini ulamolar "Odoblar surasi" deb nomlaydilar. Bunga surada bir qancha odoblar zikr qilingani sabab bo'lgan. Hadisi shariflardagi mav-

zular ham xuddi shunday. Ko‘rib turganingizdek, dinimizning uchdan bir qismini odoblar tashkil etadi. Mana shuning o‘zidan ham bu mavzuning qanchalik ahamiyatli ekanini bilsak bo‘ladi. Alloh taolo Qur‘oni karimda bunday marhamat qiladi: **“Ey iymon keltirganlar! O‘zingizni va ahli ayolingizni yoqilg‘isi odamlar-u toshdan bo‘lgan o‘tdan saqlang”** (*Tahrim surasi, 6-oyat*).

Odamlar Ali roziyallohu anhudan: “O‘zimizni va oilamizni do‘zax o‘tidan qanday saqlaymiz?” deb so‘rashdi. Shunda hazrati Ali: “Odob va ta‘lim berish bilan saqlaysizlar”, dedi.

Insoniyat tarixida sayqallanib kelayotgan odob mavzusi dinimizda eng mukammal darajaga yetgan. Bu haqda hadislarida ko‘plab marhamatlar kelgan.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: **“Darhaqiqat, men karamli (go‘zal) xulqlarni mukammal qilish uchun yuborildim”**, dedilar» (*Imom Buxoriy rivoyati*).

Mana shu go‘zal xulqlarni o‘rganish va keyingi avlodga yetkazishda ulamolarimizning ham xizmatlari katta bo‘ldi. Ular odob mavzusi bilan bog‘liq alohida kitob va risolalar ta‘lif etdilar.



Dunyoda odob mavzusiga bag'ishlangan barcha kitoblar musulmonlar tomonidan yozilgandir. Bu haqda so'z borar ekan, muhaddislar sultoni Imom Buxoriy rahmatullohi alayhning "Al-adab al-muf-rad" kitobi bu mavzuda bitilgan shoh asardir. Imom Buxoriy rahmatullohi alayh "Sahihul Buxoriy" da bir bobni odob mavzusiga bag'ishlagan. Shunday bo'lsa-da, odob mavzusi juda muhim bo'lgani uchun alohida kitob yozib, unga "Al-adab al-muf-rad" deb nom bergan. "Al-mufrad" so'zi yolg'iz va mustaqil degan ma'nolarni anglatib, asar odob-axloqqa bag'ishlangan mustaqil kitob ekanini bildiradi. Unda odob-axloqqa oid bir ming uch yuz yigirma ikkita hadisi sharif olti yuz qirq to'rt bobda keltirilgan. Bundan tashqari, Imom Movardiy rahmatullohi alayhning "Adabud-dunyo vad-din" ("Din va dunyo odoblari") kitobi ham odob-axloq mavzusiga oid muhim manba hisoblanadi. Yana bunga o'xshash kitoblarni juda ko'plab keltirish mumkin.

Inson odobi bilan aziz

Odob inson hayotida muhim o'rin tutadi. U insonning ichki dunyosini ifodalab, boshqalar bilan



kechadigan muomala va munosabatlarni tartibga solib, uning go'zal bo'lishini ta'minlovchi mezondir.

Inson odobi bilan inson. Agar insonda odob yo'q bo'lsa, unda insoniylikdan asar ham qolmaydi. Odob insonga qiymat beruvchi asosiy omildir. Bu haqda mashhur matematik olim bobomiz Abu Muso al-Xorazmiy rahmatullohi alayh quyidagi ajoyib tenglamani aytgan: "Agar inson odobli bo'lsa, uning qiymati birga teng bo'ladi. Agar husn sohibi bo'lsa, birning yoniga nolni qo'shasiz, uning qiymati o'nga teng bo'ladi. Boy bo'lsa, bitta nol qo'shasiz, qiymati yuzga teng bo'ladi. Nasl-nasabli bo'lsa, yana bir nol qo'shasiz, qiymati mingga teng bo'ladi. Shu zaylda undagi bor xislatlarga qarab nol qo'shaversiz. Agar uning odobi yo'q bo'lsa, u holda boshidagi bir raqamini o'chirib tashlaysiz. Qiymat nolga teng bo'ladi.

Insonning sharafi uning nasabi bilan emas, odobi bilan belgilanadi. Hikoya qilinishicha, bir yigit podshoh Ma'mun huzurida chiroyli gaplarni gapirdi. Shunda Ma'mun unga: "Kimning o'g'lisan?" dedi. Yigit: "Odobning o'g'liman" deb javob qaytardi. "Qanday ham yaxshi nasab ekan", dedi Ma'mun.

Ilm va odob egizakdir

Hikmatlarda “Odobsiz ilm o’tinsiz olov, ilmsiz odob tanasiz ruh kabidir” deyilgan. Darhaqiqat, ilm va odob bir-biriga chambarchas bog’liq fazilatlar bo’lib, birini ikkinchisidan ayro tasavvur qilib bo’lmaydi. Shuning uchun Hasan Basriy rahmatullohi alayh “Odobi yo’qning ilmi ham yo’q” degan. Ilm va odob go’yo qushning ikki qanotiga o’xshaydi. Qush ikki qanoti bilan yuksaklarga parvoz qilgani kabi inson ham ilm va amal bilan yuksak maqom-u martabalarga ko’tariladi. Mashoyixlar bu haqda: “Inson qanday darajaga erishgan bo’lsa, odob bilan erishadi, nimadan mahrum bo’lgan bo’lsa, beodoblik tufayli mahrum bo’ldi”, deganlar.

Odob yoshlikda o’rganiladi

Har bir narsa o’z vaqtida bajarilsa, go’zal shaklda ado bo’lgani kabi odob-axloq yoshlikdan o’rganilishi kerak. Umar ibn Xattob roziyallohu anhu bunday tavsiya bergan: ***“Bolang bilan yetti yil o’yna, yetti yil odob ber, yetti yil do’st tut, so’ngra uni o’z ixtiyoriga qo’y”***. Hazrati Umarning ush-



bu soʻzlari tarbiya fanida oltin qoida hisoblanadi. Keling, ushbu soʻz yanada tushunarli boʻlishi uchun biroz sharhlaylik. Oila bagʻrida voyaga yetayotgan oʻgʻil-qizlarning hayoti bir necha bosqichlarga boʻlinadi. Ota-ona mana shu bosqichlar va undagi oʻziga xos jihatlarni hisobga olmogʻi va unga rioya qilmogʻi tarbiyada muhim oʻrin tutadi. Chunki har bir farzandning aqliy, ruhiy, jismoniy va ijtimoiy kamoloti uning xatti-harakati va tafakkuriga qattiq taʼsir qiladi.

Birinchi bosqich. “Bolang bilan yetti yil oʻyna”. Bu bosqich bolaning podshohlik davri hisoblanadi. Ota-ona ana shu muddat mobaynida farzandi bilan birga turli oʻyinlarni oʻynamogʻi kerak. Chunki oʻyin bolani ruhiy, aqliy va axloqiy jihatdan kamolga yetkazib, uning iqtidorini kashf etish, turli qobiliyat va koʻnikmalarini roʻyobga chiqarishga sabab boʻladi. Ota-ona oʻz farzandi bilan birga oʻynayotgan chogʻida ular oʻrtasida mehr-oqibat rishtalari mustahkamlanadi.

Ikkinchi bosqich. “Yetti yil odob ber”. Bu vaqtda bolaga odob-axloq, taʼlim-tarbiya, yaxshi va yomonni ajratishni oʻrgatiladigan bosqichdir. Mana shu davr hayotning muhim bosqichi boʻlib, inson taqdiri va kelajagini belgilab beradi. Shuning



uchun bu davrni ota-onalar g'animat bilib, bolani qattiq nazoratda tutishlari kerak. Ushbu davr ota-onadan katta sabr va yumshoqlikni talab etadi. Bu bosqichda bolaning yo'l qo'ygan xato va ayblari uchun kattalardek muomala qilinmaydi.

Uchinchi bosqich. “Yetti yil do'st tut”. Mazkur bosqich farzandning katta hayotga qadam qo'yish davridir. Farzand bu davrda katta hayotga yolg'iz o'zi qadam qo'ymaydi, balki unga har taraflama yordam va maslahatini ayamaydigan, ko'proq muloqot va suhbat qilib, bir-biriga sirlarini ayta oladigan ikki qadrdon do'sti – ota-onasi hamrohlik qiladi.

To'rtinchi bosqich. “So'ngra uni o'z ixtiyoriga qo'y”. Bu tarbiyaning oxirgi bosqichi bo'lib, agar o'g'il bola bo'lsa, yetuk erkakka, agar qiz bola bo'lsa, yetuk ayolga aylanadi.

Aytib o'tganimizdek, bolaga odob yoshlikdan beriladi. Bu haqda shoirlardan biri bunday degan:

Odob bering bolaga murg'ak chog'ida,

Shunda qadr topar hayot bog'ida.

Yoshi o'tgan sari naf bermas odob,

Adabsizlik obodni qiladi xarob.

Navnihol vaqtida egilgay nihol,

Daraxtga aylansa, bukmog'ing muhol.

Odob oilada o'rganiladi

Farzand Alloh taolo tarafidan berilgan ulug' ne'matdir. Unga odob-axloq o'rgatish, ta'lim-tarbiya berish bu ne'matning shukronasi hisoblanadi.

Bolaning odobli bo'lishida ota-onaning o'rni beqiyos. Odob asosan oilada, ota-ona tarafidan beriladi. Bu jarayon o'ta nozik bo'lib, unda kattalarning o'zlari ham odobli bo'lishga harakat qilishlari kerak. Chunki bola ota-onaning barcha harakatlarini xuddi suratga olgandek ongiga muhrlab boradi va ulg'aygach, ularni hayotiga tatbiq etadi. Dono xalqimiz: "Qush inida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytishmagan. Albatta, odob-axloq masalasida oilaviy muhitning ta'siri katta. Odobli bolalar oilaviy sog'lom muhitdan, beodob bolalar esa oilaviy nosog'lom muhitdan chiqishi hech kimga sir emas.

Shu o'rinda bir mulohaza borki, ayrim otanonalar o'z farzandlarining odob-axloqiga befarq bo'ladilar. Bu muhim vazifaga panja ortidan qarab, uni boshqalarga yuklaydilar. Bu juda ham noto'g'ri qarash. Hozirgi globallashuv sharoitida otanonalar farzandlari ustidagi mas'uliyatlarini yanada oshirib, ularni yoshligidan jismonan sog'lom,



aqlan yetuk, ilm-u ma'rifatli, biror kasb-hunarga yo'naltirgan holda tarbiyalashlari va ularni turli g'oyaviy hujumlardan ehtiyot qilishlari juda zarur bo'lib qoldi. Hadisi sharifda bolaning odobiga ota-onasi mas'ul ekani aytiladi:

*Ayub ibn Muso otasidan, u esa bobosidan rivoyat qiladi: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: **"Ota bolaga chiroyli odobdan ko'ra yaxshiroq narsa bera olmaydi"**, dedilar" (Imom Termiziy rivoyati).*

Otaning, shu jumladan, onaning o'z farzandiga beradigan eng yaxshi hadyasi, mukofoti, sovg'asi bu go'zal odobdir. Chunki moddiy hadyalarning barchasi kun kelib eskiradi yoki yo'q bo'lib ketadi. Farzandga berilgan ma'naviy hadya, ya'ni go'zal odob uni ikki dunyo saodatiga musharraf qiladi. Boshqa hadisi sharifda esa bunday deyiladi:

*Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: **"Farzandlaringizni ikrom qiling va odobini chiroyli qiling"**, dedilar» (Imom Ibn Moja rivoyati).*

Farzandlarning odob-axloqiga, ta'lim-tarbiyasiga befarq bo'lish katta xatar hisoblanadi. Chunki voyaga yetayotgan bolaning jamiyat uchun foydali yoki zararli shaxsga aylanishi yoshligidan olgan odob-axloqi va ta'lim-tarbiyasiga bog'liq.



Ulamolar buni bog' va bog'bonga tashbeh qilishadi. Agar bog'bon yerga yaxshi ishlov berib, urug'ni qadab, suvi va o'g'itidan o'z vaqtida xabar olib tursa, bog' yaxshi hosil beradi. Buning aksi bo'lib, yerga ishlov berilmasa, ekinlar vaqtida sug'o-rilmasa, zararkunandalardan himoya qilinmasa, qanday qilib yaxshi hosil kutish mumkin?

Odobning inson hayotidagi o'rni

Odob doirasi shu darajada kengki, u inson hayotini butunlay qamrab olgan. Odobli inson nafaqat odamlarga, balki jamodot, nabotot va hayvonot olamiga ham chiroyli muomala qiladi. Haqli savol tug'iladi: jamodot olamiga qanday qilib odob bilan muomala qilinadi? Egnimizdagi libosni misol qilib olaylik. Odobli kishi uni pokiza tutadi, kiyib-yechishda avaylab muomala qiladi. Natijada libos unga uzoq vaqt xizmat qiladi. Agar libosni kir holatda tutsa, kiyib-yechishda qo'pollik qilsa, yirtilib yaroqsiz holatga keladi. Natijada undan foydalanib bo'lmaydi.

Odobli inson elga namuna

Ma'lumki, insonning barcha aloqa va munosabatlari uning e'tiqodi va odob-axloqi asosida yuzaga keladi. Odobli inson o'z nafsini jilovlaydi. Odob insonga ziynat va ko'rk bo'lib, undagi ko'plab kamchiliklarni yashiradi. Aksincha, beodoblik sababli pinhoniy kamchiliklar ham fosh bo'lib qoladi.

Yoshligidan odob-axloq ila voyaga yetgan inson o'z o'rniga ega, hurmat-ehtiroimga loyiq, hayoti boshqalar uchun ibrat-namuna, jamiyat uchun foydali shaxs hisoblanadi. Odobli inson ota-onasiga mehribon, atrofdagilar bilan go'zal muomala qiluvchi, o'z ishiga sadoqatli, vataniga muhabbatli bo'ladi. Shuningdek, odobli inson odamlar orasida o'zaro mehr-muhabbat va tinch-totuvlikni tarannum etadi.

Odobsiz inson esa jamiyatda o'z aloqa va munosabatlarini yaxshi o'ringa qo'ya olmaydi. Odobsiz kishi juda ko'p yaxshiliklardan mahrum bo'ladi. Shuning uchun ham ulug'lar "Beodob benasib", deyishadi. Beadablik sabab inson mehr-muhabbatdan judo bo'ladi. U tufayli jamiyat orasida turli ixtiloflar, o'zaro nafrat va noroziliklar kelib chiqadi.



Aziz o'g'il-qizlarim! Har bir inson hayotida odob-axloqning o'rni naqadar muhim ekanini ko'rib o'tdik. Bugungi odob-axloq masalalariga futur yetayotgan bir davrda odobli bo'ling. Zero, odob sizni yomonliklardan himoya qiluvchi qalqoninigizdir. Shuningdek, odobsizlikdan doimo ehtiyot bo'ling. Chunki u sabab misqollab yiqqan obro'yingiz yo'qqa chiqadi. Ba'zan oq varaqqa tushgan dog'ni ketkazish qiyin bo'lganidek, sizlar ham hayotda bir marta adashib xatoga yo'l qo'ysangiz, uni tuzatish uchun bir umr ham yetmasligi mumkin.





Halol kasb fazilati



Dinimiz mehnat qilishga chorlaydi

Islom dini harakat, amal qilish, mehnat qilish, halol kasb-hunarga targʻib etuvchi dindir. Islom shaxs va jamiyatni goʻzal va farovon yashashga, hayotini mazmunli oʻtkazishga, vaqtdan unumli foydalanishga, oʻziga ham, oʻzgalarga ham yaxshilik qilishga chaqiradi. Shu bilan birga hayot maydonidan orqada qolib ketishdan, dangasalik, ojizlik, tamagirlik, ishyoqmaslik, boqimandalik, ishlashga qodir boʻla turib odamlardan xayr-sadaqa soʻrash kabi ijtimoiy illatlardan qaytaradi va ularni qoralaydi.

Islom mehnat va harakat dinidir

Halol kasb bilan mashgʻul boʻlish Alloh taoloning bandalariga buyurgan amridir. Bu haqda Qurʻoni karimda bunday marhamat qilinadi: **“Bas, namoz tugagandan soʻng yer yuzi boʻylab tarqaling va Allohning fazlidan talab qiling va Allohni koʻp eslang, shoyadki, yutuqqa erishsangiz”** (*Juma surasi, 10-oyat*).

Juma surasidagi ushbu oyatda Alloh taolo moʻmin-musulmonlarni yer yuziga tarqalib halol



yo'l bilan rizq topishlariga targ'ib qilmoqda va bu ishni Alloh taoloning fazlidan talab qilish deb nomlamoqda.

Rizqni turli yo'llar bilan topish mumkin. Ayrim insonlar tirikchilikning aybi yo'q-ku, deya o'z rizqini harom yoki shubhali yo'llar bilan topish harakatida bo'lishadi. Bu noto'g'ri tushuncha. Har bir inson topayotgan rizqiga jiddiy e'tibor qaratishi lozim. Shuning uchun Alloh taolo rizq talab qilishga amr qilganidan so'ng bevosita: **“Allohni ko'p zikr qiling”**, demoqda. Alloh taoloni ko'p eslash esa rizq yo'lida shubha va haromlardan chetda bo'lishga sabab bo'ladi.

Boshqa bir oyati karimada Alloh taolo bunday marhamat qiladi:

“U sizlarga yerni bo'ysundirib qo'ygan Zotdir. Bas, uning turli joylarida yuring va Uning rizqidan eng va qabrdan chiqib borish ham Uning huzuriga bo'ladir” (*Mulk surasi, 15-oyat*).

Alloh taolo yerni insonga bo'ysundirib qo'ydi. Shu bilan birga, undan to'g'ri foydalanish yo'llarini ham o'rgatdi. Inson bu imkoniyatdan foydalanishning barcha turlarini ishga soldi. Bu haqiqat hozirgi asrimizdagidek hech qachon yaqqol ko'zga tashlanmagan. Oyatdagi **“yuring”** xitobi barcha



musulmonlarni doimo mehnat qilishga chorlab, hech bir ish qilmay bekor o'tirishdan qaytaradi. Mana shuning o'zidan ham Islom mehnat va harakat dini ekanini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, ushbu oyat kasb-hunardan qaytarib, tarkidun-yochilikka chorlaydigan johil insonlarga raddiyadir. Aslida halol luqma bilan hayot kechirish bandani Rabbisiga yaqin qiluvchi farz ibodatlardan biri hisoblanadi. Kasbu hunar borasida hadisi shari-flarda ham juda ko'p marhamatlar kelgan. Jum-ladan, quyidagi hadisda suyukli Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam bunday deydilar:

*Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Nabiy sollallohu alayhi va sallam: **“Halollikni talab qilish (iymon keltirish) far-zidan keyingi farzdir”**, dedilar» (Imom Tabaroniy rivoyati).*

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam sahobalar-ni mehnat qilishga chorlardilar. Hatto ularga yo'l ko'rsatib, amaliy ko'mak berardilar.

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: **“Ansarlardan bir kishi Nabiy sollallohu alayhi va sallamning oldilariga (narsa) so'rab keldi. U zot: “Uyingda biror narsa bormi?” dedilar. U: “Ha, bir qismini kiyadigan va bir**



qismini (tagimizga) to'shaydigan, kiyim va suv ichadigan ko'za (katta idish) bor", dedi. Nabiyo sollallohu alayhi va sallam: "Ularni olib kel", dedilar. Ularni olib kelgach Rasululloh sollallohu alayhi va sallam qo'llariga olib: "Bularni kim sotib oladi?" dedilar. Bir kishi: "Men ularni bir dirhamga sotib olaman", dedi. U zot: "Kim bir dirhamdan ko'proq beradi?" deb ikki yoki uch marta aytdilar. Bir kishi: "Men ularni ikki dirhamga sotib olaman", dedi. U zot ularni unga berib, ikki dirhamni olib ansoriyga uzatdilar va: "Bir dirhamiga taom sotib ol va uni oilangga olib bor. Ikkinchisiga esa bolta sotib ol va uni mening oldimga keltir", dedilar. Boltani olib kelgach, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o'z qo'llari bilan unga bir yog'och (sop)ni mahkamlab berdilar. So'ngra unga: "Bor, o'tin terib sot, men seni o'n besh kun ko'rmay", dedilar. Kishi borib, o'tin terib sotdi. (O'n besh kunda) o'n dirhamga ega bo'lib keldi. Uning bir qismiga kiyim, yana bir qismiga taom sotib oldi. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Bu sen uchun qiyomat kuni (tilanib) so'rash yuzingda dog' paydo qilgan holda kelishingdan ko'ra

yaxshiroq. So'rash faqat uch kishiga joiz bo'ladidi: o'ta qashshoqqa, katta qarzdorga va og'rituvchi diya egasiga", dedilar" (Imom Abu Dovud rivoyati).

Halol kasb bilan mashg'ul bo'lish farzdir

Faqihlar mehnat qilishga qodir bo'lgan kishiga o'zi va yaqinlari ta'minoti uchun ishlash lozim bo'lsa, ibodatga berilib tarkidunyo qilishi halol bo'lmaydi, deganlar. Aslida inson o'zi va yaqinlarini halol luqma bilan boqishi ham Alloh taoloning bandaga farz qilgan ibodati hisoblanadi. Bu haqida fiqh kitoblarimizda bunday deyiladi:

“Mo'min kishi o'zi, ahli ayoli uchun va qarzlarini ado qilmoq uchun kifoya qiladigan miqdorcha kasb qilmog'i farzdir”.

Shuningdek, faqihlarimiz insonlarga foydasi tegib turadigan kasblarni farzi kifoya deganlar. Bu masala mo'tabar kitoblarimizda quyidagicha yoritilgan: *“Agar musulmonlar ignaga muhtoj bo'lsalar-u, lekin ularning orasida birorta igna yasovchi bo'lmasa, hammalari teng gunohkor bo'ladilar. Bir kishi igna yasashni o'rganib, ular-*

ning ehtiyojini qondirsa, qolganlardan gunoh soqit bo'ladi".

Jamiyat uchun kerak bo'lgan sohalarni mana shunga qiyos qilish mumkin.

Halol mehnat mo'minning shioridir

Mo'min kishi har bir ishda halollikni o'ziga shior qilib oladi. Halollikdan bir zum bo'lsa-da, chetga chiqmaydi. Bu ishda to vafot etguniga qadar sobitqadam bo'ladi. Bu haqda hadisi sharifda bunday marhamat qilinadi:

*Burayda roziyallohu anhudan rivoyat qilindi: "Nabiy sollallohu alayhi va sallam: **"Mo'min peshona terisi bilan vafot etadi"**, dedilar" (Imom Termiziy rivoyati).*

Shorihlar hadisni: "Mo'min kishi to vafot bo'lguniga qadar mehnatda peshona teri qilib, haqqini halollab o'tadi", deb sharhlaganlar.

Ming afsuski, keyingi paytlarda boshqa ijtimoiy illatlar qatorida boqimandalik va dangasalik illati ham omma orasida ko'payib bormoqda.

Ijtimoiy illatlardan ehtiyot bo'ling!

Dinimiz halol mehnat qilishga chaqirish bilan bir qatorda dangasalik, tamagirlik, boqimandalik va mehnat qilishga qodir bo'la turib odamlardan xayr-sadaqa so'rash kabi illatlardan qaytaradi.

Inson hayoti davomida uy-joy, ulov, oziq-ovqat, kiyim-kechak kabi ne'matlarga ehtiyot sezadi. Bu ne'matlarga ega bo'lish uchun inson biror kasbning boshini tutishi lozim.

Dangasalik eng katta ijtimoiy ofatlarning biridir. U bor joyda shaxs va jamiyat taraqqiyot karvonidan ortda qoladi. Bu o'ta xatarli va xavfli illat bo'lib, qaysi shaxsga yetsa, uni xorlaydi va halokat sari yetaklaydi.

Dangasalik ikki xil bo'ladi: birinchisi, aqlning dangasaligi, ikkinchisi, tananing dangasaligi. Aqlning dangasaligi Alloh taolo bergan ne'matlar va yaxshiliklar haqida tafakkur qilmaslik bilan, tananing dangasaligi esa hech ish qilmay bir chetga chiqib olish bilan bo'ladi. Bularning har ikkisi ham xato.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam doim dangasalikdan panoh so'rganlar: ***“Allohim, men Sendan dangasalik, ojizlik va baxillikdan***

panoh so'rayman" (Imom Termiziyning Zayd ibn Arqam roziyallohu anhudan rivoyati).

Sa'diy Sheroziy rahmatullohi alayh "Guliston" kitobida aytadi:

*Abru bodu mahu xurshedu falak darkorand,
To tu none ba kaforiyu ba g'aflat naxuri.
Hama az bahri tu sargashtavu farmonbardor,
Sharti insof na boshad, ki tu farmon nabari.*

Ma'nosi:

*Bulut, shamol, quyosh-u oy va osmon
Yetkazish-chun senga ular burda non.
Hammasi uxlamas, bedordir har on,
Insofdan emasdir tutmasang farmon.*

Qarang, butun borliq harakatda. Bizga bir burda non yetib kelishi uchun barcha xizmatda. Biz ham shunga yarasha o'sha bir burda non uchun halol mehnat qilishimiz lozim. Mana shu bizning shukronamiz bo'ladi.

Alloh taolo rizqingiz uchun "yuring" deya amr qilganda harakat va mehnat qilish o'rniga o'tirib olsak, dangasalik qilsak, bu ishimiz insofning shartiga ham to'g'ri kelmaydi.

Boqimandalik, tamagirlik, birovdan yuzning suvini ketkazib bir narsa so'rash insoniy, ijtimoiy, iqtisodiy ofat bo'lib, bu kabi illatlar mo'min kishiga



aslo yarashmaydi. Birovdan bir narsa so‘rash oxirgi choradir. Shunda ham bir kunlik narsa so‘rashga ruxsat beriladi.

Boqimandalik insoniy, ijtimoiy, iqtisodiy xavfli illatdir. Unga yechim topilmasa, shaxs, oila va jamiyatni halokat sari olib boradi. Rog‘ib Isfahoniy rahimahulloh bu illatga muhtalo bo‘lishni insoniy tabatni boy berish, deya ta’riflagan.

Insonning iffatli va nazari to‘q bo‘lishi uning go‘zal xislatlaridan biridir. Bu borada ibratga molik juda ko‘p misollarni keltirish mumkin. Ulug‘ sahobalardan Abdurahmon ibn Avf roziyallohu anhuning hayotida bo‘lib o‘tgan voqea hammamiz uchun ibratlidir.

Abdurahmon ibn Avf roziyallohu anhu Islomni birinchilar qatorida qabul qilgan, asharayi mubashsharaning biri bo‘lgan sahoba. Abdurahmon ibn Avf roziyallohu anhu rizq-ro‘z topishda ummatga o‘rnak va namuna bo‘lgan zot edi. Makka kaga borini tashlab, muhojir bo‘lib kelganida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam uni madinalik Sa’d ibn Rabi’ bilan do‘stlashtirib qo‘ygandilar. Sa’d ibn Rabi’ roziyallohu anhu Abdurahmon ibn Avfga: “Ey do‘stim, men ansorlarning eng boyiman. Marhamat, mol-dunyomning yarmi seniki”, deydi.



Shunda Abdurahmon ibn Avf: “Alloh ahlingga va molingga baraka bersin! Menga bozorni ko’rsat”, dedi. Sa’d ibn Rabi’ roziyallohu anhu Bani Qaynuqo’ bozorini ko’rsatdi. Abdurahmon ibn Avf bozorga borib, savdo bilan shug’ullandi va tez orada boyib ketdi.

Aziz o’g’il-qizlarim!

Abdurahmon ibn Avf roziyallohu anhu ehtimol Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan ko’p hadis rivoyat qilmagandir, lekin moli bilan, halol kasbi bilan musulmonlarga tarixda hech kim qilmagan yaxshiliklarni qildi. Faqir va miskinlarni qo’lladi. O’limi oldidan ellik ming dinorini Alloh yo’lida sarflashlarini vasiyat qildi.

Abdurahmon ibn Avf roziyallohu anhu birodari Sa’d ibn Rabi’ga yuk bo’lishni va unga og’irini tushirishni istamadi. Rizq-ro’zini o’z mehnati, peshona teri, sa’y-harakati bilan topib, Alloh taologa bo’lgan chin e’tiqod, ixlos va ezgu niyatlari bilan hayotini davom ettirdi. Tijoratda birovni aldamadi, yolg’on so’zlamadi. Tarozidan ham, gazidan ham urib qolmadi.

Alloh uning tijoratiga baraka berdi. Rizqini mo’l-ko’l qildi. Demak, baraka halollikda, birovga yuk bo’lmasdan, peshona teri bilan rizq axtarishdadir.

Abdurahmon ibn Avf savdo-sotiq haqida shunday degan: “Men har bir halol tijoratda foyda borligiga guvoh bo’ldim. Ba’zan toshni ko’tarsam, ostidan tilla yoki kumush chiqishiga ishonib qoldim. Hatto tuyaning tizginini sotgan paytlarimda ham foyda ko’rardim”.

Mana shu halol mehnatning dunyodagi samarasi edi.

Payg’ambarlar ham kasb-hunar bilan mashg’ul bo’lishgan

Aytib o’tganimizdek, halol mehnat mo’minning shiori hisoblanadi. Hatto insoniyatning eng sharaflı kishilari bo’lgan payg’ambarlar ham kasb-hunar bilan mashg’ul bo’lganlar. Nuh alayhissalom duradgor, Ibrohim alayhissalom bazzoz, Dovud alayhissalom temirchi, Zakariyo alayhissalom duradgor, Payg’ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam savdogar bo’lganlar. Umar roziyallohu anhu aytadi: «Sizlardan birortangiz rizq izlashdan voz kechib: “Ey Allohım, menga rizq bergin”, deb o’tirmasin. Bilasizlarki, osmondan oltin va kumush yog’maydi».



Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhu aytadi: "Men na dunyo va na oxirat ishi bilan mashg'ul bo'lmagan kishini ko'rsam, g'azabim keladi".

Bu borada shariatimiz bolalar, yoshi keksalar va bemorlarni uzrli hisoblaydi. Lekin mehnatga yaroqli, ishga qodir insonlar albatta biror kasb-korning boshini tutishlari kerak. Alloh taolo aytadi:

"Ko'rga tanglik yo'q, cho'loqqa ham tanglik yo'q. Xasta kishiga ham tanglik yo'q" (*Fath surasi, 17-oyat*).

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam doimo faqirlikdan panoh so'rardilar.

"Allohim, men Sendan faqirlik, yo'qchilik va xorlikdan panoh so'rayman". Darhaqiqat, yo'qchilik va faqirlik ko'pincha insonni yomonlikka boshlaydi. Shuning uchun Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam undan hamisha panoh so'raganlar. Shuningdek, solih boy bo'lishga undaganlar va aytganlar: ***"Solih mol solih kimsaga qanday ham go'zal yarashadi"***.

Haqiqatda mo'min kishi boy bo'lishga harakat qiladi. Boyligi bilan muhtojlarga yordam qo'lini cho'zadi. Berilgan boylik ne'matidan oqilona foydalanib, xayrli va savobli ishlarning payida bo'ladi.



Aziz o'g'il-qizlarim! Dinimiz har bir insonni halol mehnat qilishga chorlaydi. Dangasalik, yalqovlik, tama va birovlar qo'liga qaram bo'lib qolish kabi ijtimoiy illatlardan qaytaradi. Shunday ekan, hurmatli yoshlar, biror kasbning yetuk mutaxassisi bo'ling. Egallagan kasbingiz bilan odamlarga foyda keltiring. Zero, hadislarda: "Sizlarning yaxshilaringiz insonlarga foydasi ko'proq teguvchilaringizdir", deyilgan. Shuningdek, yuqorida sanab o'tilgan ijtimoiy illatlardan ehtiyot bo'ling. Dunyoda biron taom inson o'z peshana teri bilan topgan luqmasi kabi beminnat va lazzatli bo'lmaydi. Xalqimizda: "Mehnat qilib topganing qand-u novvot totganing", deb bejiz aytilmagan.





Ijtimoiy tarmoqning
zararli irmoqlari



Ijtimoiy tarmoqlarning xataridan ogoh bo'ling!

Bugun axborot xuruji shu qadar ko'paydiki, o'smirlar u yoqda tursin, aql-u hushini yig'ib olgan kishilar ham internetda berilgan xabarlarning qaysi biri to'g'ri, qaysi biri noto'g'ri ekanini ajratishi qiyin bo'lib qoldi.

Shu bois bunday sharoitda har bir ota-ona farzandlariga yo'l-yo'riq ko'rsatishi, ularni muntaзам nazoratda tutishi har qachongidan ham muhim va dolzarbdir. Qaniydi otalar o'g'illari bilan, onalar esa qizlari bilan yaqin do'st, hamfikir va sirdosh bo'lishsa. Afsuski, ayrim oila boshliqlari farzandlari tarbiyasini uy bekasi zimmasiga yuklab qo'ya qolishadi. O'zlarini oila tashvishi va katta ishlar bilan banddek ko'rsatishadi. Shu to'g'rimi? Axir, o'g'ilga beriladigan tarbiyani ona, qizga beriladigan tarbiyani esa ota eplay olmaydi.

So'nggi yillarda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar va ijtimoiy tarmoqdagi "qarmoqlar" girdobiga tushib qolganlarning aksariyati oilasida ota yoki onaning mehriga to'ymagan, ularning tarbiyasidan bebahra yoshlar ekani aniqlanmoqda.



Farzand o'zi muhtoj bo'lgan odob va tarbiyani bobo-buvilari, ota-onalari, aka-ukalaridan ololmasa, boshqa joyning "tuzog'i"ga ilinadi. Ma'naviyatidagi ana shu bo'shliqni to'ldirish ilinjida ko'chaga chiqib "do'stlar" orttiradi. Tabiiyki, hali yaxshilik va yomonlikni, ezgulik va yovuzlikni, oqu qorani ajrata ololmaydigan o'smir yaxshi gapirgan odamning ta'siriga tushadi. Bu esa juda xavflidir.

Vaqt isrofi

Ijtimoiy tarmoq orqali foydalanuvchi bir marta yozishma yoki rasm almashishni amalga oshirsa ham, bu aloqa bir necha soatlab davom etadi.

Ayrim yoshlar ana shunday oltindan-da qimmat vaqtlarini har xil foydasiz ishlarga sarflashlari isrofdan boshqa narsa emas. Alloh taolo umrni behuda o'tkazishning oqibati haqida: **"Ular u joyda: "Parvardigoro, bizlarni (azobdan) chiqargin – bizlar qilib o'tgan amallarimizdan boshqacha yaxshi (amallarni) qilaylik!" – deb faryod qilurlar. Axir, Biz sizlarga eslatma oladigan kishi eslatma olgudek uzun umr bermaganmisdik?! Sizlarga ogohlantiruvchi (payg'ambar)**

ham kelgan edi-ku! Bas, endi (jazolaringizni) **totaveringiz! Zolimlar** (kofirlar) **uchun yordamchi bo'lmas"** (*Fotir surasi, 37-oyat*), deb ogohlantirgan.

Yolg'on gap va mish-mishlar o'chog'i

Ijtimoiy tarmoq vositalaridan foydalana boshlagan kishi dastlab jiddiy, sekin-asta bo'lar-bo'lmas gap-so'zlar, hech kimga foydasi yo'q ma'lumot va xabarlarni yozishga odatlanib qoladi. Mazkur insonlar haqidagi asossiz gap-so'zlar bir suhbatdan boshqasiga joylashtiriladi va xabar tekshirilmadan keyingi muloqotlardagi tanishlariga yuboriladi. Kimningdir beparvoligi sabab tarqatilgan birgina yolg'on xabar natijasida qancha oilalar zarar ko'rish mumkin.

Fitna chiqaruvchi xabarlar

Qolaversa, yoshlar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlarda bir-birini haqorat qilish, tuhmat, bo'hton, g'iybat va hattoki jamiyatimizga fitna urug'ini sochayotganlar ham uchrab turibdi. Kimda kimning qasdi bo'lsa, to'g'ridan to'g'ri internet orqali



shu qasdini olish uchun “xumori” dan chiqmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoq vositalari orqali yuborilayotgan ma’lumot va xabarlar faqat boshqalarni hayron qoldirishga asoslanadi va uning to’g’ri yoki noto’g’riligini o’ylab ham ko’rmaydi.

Islom dinida fitna chiqarish og’ir gunohlardan bo’lib, hatto odam o’ldirishdan ham katta gunoh sanaladi. Alloh taolo: “**...Fitna qotillikdan ham ashaddiyoqdir**” (*Baqara surasi, 191-oyat*), deb ogohlantirgan.

Masxaralash makoni

Bu virtual olamda mazax va istehzoli gap-so’zlar talaygina. Jismoniy nuqsoni bor odamlarning rasmlari va videolarini qo’yib, turli masxarali izohlar qoldirishadi. Bir-birlariga turli laqablar taqishadi. Dinda birovni masxara qilish, uning ustidan kulish hamda unga turli laqablar qo’yishdan qattiq qaytariladi.

“Ey mo’minlar! (Sizlardan) **biror millat** (boshqa) **bir millatni masxara qilmasin!** Ehtimolki, (masxara qilingan millat) **ulardan yaxshiroq bo’lsa. Yana** (sizlardan) **ayollar ham** (boshqa) **ayollarni** (masxara qilmasin)! **Ehtimolki,** (mas-

xara qilingan ayollar) **ulardan yaxshiroq bo'lsa. O'zlaringizni** (bir-birlaringizni) **mazax qilman-**
giz va bir-birlaringizni laqablar bilan ataman-
giz!" (*Hujurot surasi, 11-oyat*).

Noqulay holatlar oshkor etiladigan "olam"

Birtual muloqot vositalarida og'ir yuk tashilayotgan ulovlar yoki hayvonlar suratlarini ko'p uchratish mumkin. Bu yoshlarda hayvonlarga beshafqat muomalada bo'lish kayfiyatini paydo qilmasligiga hech kim kafolat bermaydi.

Axloqsizlik avj olgan maskan

Turli shahvoniy latifalar, behayo rasmlar va uyatli tasvirga boy videolar yoshlar ongiga salbiy ta'sir qilishi aniq. Buning natijasida ular dinda qattiq qaytarilgan zinodan o'zlarini tiymasliklari mumkin. Alloh taolo bunday marhamat qiladi: **"Zinoga yaqinlashmangiz! Chunki u fahsh va yomon yo'ldir"** (*Isro surasi, 32-oyat*).



Begonalashuv

Ayni paytda bir joyda, bir xonada, bitta yig'ilish-marosimga to'planganlarning aksari bir-birlariga yoki boshqa joydagi odamlarga telefon yozishmalari jo'natish bilan mashg'ul bo'ladi. Aslida bu yig'ilish bir-birlarini uzoq vaqtdan buyon ko'rmaganlar uchun tashkil etilgan bo'ladi.

O'zgalar aybini poylash

Ko'pincha bu birovlar o'laman desa, birovlar kulaman deydi qabilidagi naqlga asosan ish tutishni eslatadi. Inson bilib-bilmay turli xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. U o'zi yo'l qo'ygan xatoni bekitishga harakat qilmoqdami, demak, o'sha odamda yaxshilik bor. Birovning aybini berkitgan odam aslida o'z aybini berkitgan bo'ladi. Alloh taolo shu qilgan ishi uchun uning bu dunyoyu oxiratdagi aybini bekitadi.

“Layk”ka o'chlik

Ijtimoiy tarmoqlar orqali fikr bildirish va uning ortidan maqtov (layk)larni qo'lga kiritishga



urinish bugungi yoshlarni tobora o'z domiga tortib, xususan, yoshlar ma'naviyati va xulqiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning salbiy tomoni shundaki, foydalanuvchi bunday maqtov (layk)larni yana olishni va tobora ko'paytirishni istaydi, shundan qalbida rohat tuyadi.

Bu rohatlanish oqibatida ular virtual olamga butkul sho'ng'ib, atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lgan holda tashqi dunyodan uziladilar. Ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolgan yoshlar boshqalar bilan jonli muloqotda qiynaladi, odamoviga aylanib, do'stlashishda adashadi, birovga hamdardlik bildirish haqida umuman bosh qotirib o'tirmaydi. Faqat ijtimoiy tarmoqda tanishgan "do'st"larining fikri bilan ish ko'radigan bo'lib qoladi.

Shuni unutmaslik kerakki, tarbiyani kechiktirishga hech kimning haqqi yo'q. Yoshlar o'rtasida kitob mutolaasiga ishtiyoqni oshirish zarur. Qo'lida smartfon yoki planshet emas, kitob tutgan bolaning dunyoqarashi keng, tafakkuri yuksak bo'ladi, turli befoyda o'yinlar girdobiga tushmaydi. Zero, teran tafakkurli, ma'rifatli va yuksak ma'naviyatli avlodni hech kim yenga olmaydi.



Aziz o'g'il qizlarim! Hozirgi ilm-fan taraqqiy topgan bir davrda internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlar ommalashdi. Ular orqali har bir inson o'zi uchun kerakli ma'lumot va xabarlarni tez fursatda bilib oladi. Lekin ulamolarimiz ijtimoiy tarmoqlarni pichoqqa o'xshatadilarki, uning foydali tarafi bo'lganidek, zararli tarafi ham bor. Siz yoshlar bunday tarmoqlardan faqatgina oqilona foydalaning. Uning zararli tarafidan ehtiyot bo'ling.





Gunohlardan
uzoq bo'ling!



Gunohlar halokatga yetaklaydi

Savbon roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “(Qiyomatda) **Odamlar Tihoma tog’i kabi (kattalikdagi) yaxshiliklar bilan kelishadi. Alloh ularning amallarini to’zigan changdek qilib qo’yadi (Ya’ni, ularning yaxshiliklarini puchga chiqaradi)**”, dedilar. Shunda Savbon roziyallohu anhu: “**Yo, Rasululloh, biz ulardan bo’lmasligimiz uchun bizga ularni ta’riflab bering**”, dedi.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “**Ular sizlarning birodarlaringiz, ko’rinishlari ham sizlarga o’xshagan odamlardir. Ular ham siz kabi tunlari ibodat qiladi. Lekin ular Alloh harom qilgan narsa bilan xoli qolishganda chegarani buzadilar**” (ya’ni, yolg’iz qolgan vaqtlarida Alloh qaytargan ishlardan tiyilmaydilar), dedilar» (Imom Ibn Moja rivoyati).

Demak, yolg’iz qolsangiz, gunoh va shahvoniy ishlarni qilishdan chetlanish lozim ekan. Axir o’sha ishlaringizni oilangiz bilishlarini istamaysiz-ku! Eshikni yopib olgan holda odamlardan uyalib, bekinib gunoh qilmoqchi bo’lasiz, lekin Rabbingiz ko’rib turganidan, U Zot qaytargan ishni qilishdan uyalmaysizmi?



Alloh kuzatib turganini, qilayotgan har bir amalingizdan xabardor ekanini unutasizmi? Alloh taolo bunday marhamat qiladi: **“Holbuki, sizning ustingizdan kuzatib turuvchilar bordir. Ular hurmatli yozib turuvchilardir. Ular nima qilayotganingizni biladir”** (*Infitor surasi, 10–12-oyatlar*).

Gunoh qilayotgan tana a’zolaringiz ziyoningizga guvohlik berganda, qo’llaringiz tilga kirganda, oyoqlaringizga zabon berilganda, mahshar maydonida butun insoniyat to’planganda, ayblaringiz oshkor qilinganda qayerga qochasiz, qanday javob berasiz?

Qur’oni karimda bunday deyiladi: **“Bugungi kunda ularning og’izlariga muhr uramiz. Nima kasb qilganlarini Bizga qo’llari so’zlar va oyoqlari guvohlik berur!”** (*Yosin surasi, 65-oyat*).

Qiyomat kuni a’zolaringiz so’zlayotganda holingiz ne kechishini qandoq bo’lishi haqida fikr yuritib ko’ring. Alloh qaytargan ishlarni qilganingiz, harom narsalarga qaragan nigohlaringizga qanchalik hasrat-nadomat qilasiz.

Yelkangizdagi ikki farishta nomayi a’molingizga har bir amalingizni yozadilar. Vafot etsangiz, kitobingiz yopilur, ammo uni mahshar maydonida



qo'lingizga tutqaziladi. Shunda Alloh sizga bunday deydi: **“Kitobingni o'qi, bugungi kunda sen o'zingga o'zing hisobchilikka kifoya qilursan”** (*Isro surasi, 14-oyat*).

Gunohlar oqibatini o'ylasangiz, ularni tark etasiz. Unutmangki, g'am-qayg'u, mahzunlik, tushkunlik, qalb torligi hamda Alloh taolodan yiroq bo'lishning barchasi gunohlaringiz tufaylidir.

Har qanday gunohdan qutulish uchun gunohga olib boruvchi sabablardan yiroq bo'ling. Alloh azza va jallaga iltijo qilib Undan yordam so'rang.

Gunohdan tiyilish va undan uzoq bo'lishning yana bir yo'li bu – yaxshi insonlar bilan birga bo'lish sanaladi. Alloh taolo bunday marhamat qiladi: **“Ey imyon keltirganlar! Allohga taqvo qilinglar va sodiqlar ila birga bo'linglar!”** (*Tavba surasi, 119-oyat*).

Ulamolar: **“Inson qachongacha solihlar bilan birga bo'lishi kerak?”** degan savolga: **“To ularga o'xshaguncha”**, deb javob berganlar. Zero, xalqimiz orasidagi: **“Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi”** degan gap buning yaqqol misolidir.

Alloh taoloning ne'matlari muntazam yetib turganini his qilish ham gunohdan uzoqlashishga sabab bo'ladi. Zero, gunoh ishlar ne'matning yo'q



bo'lishiga olib keladi. Insondan bir ne'mat ketsa, demak, bu ish biror gunoh sababli yuz bergan. Kimki Alloh taologa shukr qilsa va solih amallarda bardavom bo'lsa, ne'matlar yanada ziyoda qilib beriladi.

Shuningdek, Alloh taoloni barcha narsadan yaxshi ko'rish ham uni gunohga qo'l urishdan to'sadi. Chunki yaxshi ko'ruvchi o'zining mahbubiga doimo itoatda bo'ladi. Qalbda muhabbat kuchayib borgani sari Allohning buyurgan ishlarini zavq-u shavq bilan ado etadi.

Qolaversa, gunohdan tiyilish uchun ortiqcha yeb-ichish, kiyinish, uyqu va insonlar bilan o'zaro muomala hamda o'tkinchi hoyu havaslardan ham chetlanish talab etiladi.

Eng muhimi, qalbda iymon daraxtining ildizlarini baquvvat qilish lozim. Chunki bandani gunohdan to'sadigan narsa bu – uning iymoni. Iymon qanchalik mustahkam bo'lsa, sabri ham shunchalik kuchli bo'ladi. Agar iymon zaiflashsa, sabr ham kuchsizlashadi.



Aziz o'g'il-qizlarim! Bilingki, yaxshilik sari har qanday sa'y-harakatingiz aslo behuda ketmaydi, qilgan zarracha yaxshi amalingizni Alloh taolo ulkan yaxshiliklar bilan mukofotlaydi. Yana o'zingizni yomonlik va unga olib boradigan yo'llardan tiying. Oppoq sahifaga ozgina dog' tushsa uni qoraytirganidek, sizlar ham hayot sahifangizni turli gunohlar bilan qoraytirishdan saqlang.





Giyohvandlik – jinoyatlar asosi



Asr vabosidan ehtiyot bo'ling!

Bizning davrimizga kelib OITS, giyohvandlik kabi **“Asr vabosi”** nomini olgan illatlar ko'payib bormoqdaki, unga qarshi kurash butun insoniyat oldida turgan asosiy vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur illatlarni shaxs va jamiyatga yetkazadigan asrga tatigulik zararlarini ko'rib, unga to'g'ri nom berilganiga guvoh bo'lamiz. Asr – yuz yilni o'z ichiga olgan muddat. Vabo – oxiri o'limga olib boruvchi, o'ta xatarli va yuqumli kasallik. Keling, suhbatimizdan oldin bir hadisi sharifni eslab o'tsak.

Sog'lom tana ne'mat va omonatdir!

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: **“Qiyomat kuni bandadan ne'matlar ichida birinchi bo'lib so'raladigan narsa unga: “Jismingni sog'lom qilmadikmi, seni muzdek suv bilan qondirmadikmi, deyiladi”**, dedilar» (*Imom Termiziy rivoyati*).

Hadisi sharifda qiyomatda birinchi so'raladigan ikki ne'mat haqida so'z bormoqda.



Birinchisi, iymondan keyingi o'rinda turadigan, hayotning saodatli o'tishiga, amallarning to'g'ri bajarilishiga xizmat qiluvchi sog'lik, **ikkinchisi**, nafaqat insonni, balki butun olamni yashab qolishi uchun eng zarur bo'lgan suv. Ushbu imtihondan yaxshi o'tib olish uchun, eng avvalo, Alloh taolo bergan sog'lik ne'matining qadriga yetib, shukrini ado etishimiz hamda solih amallarni ko'paytirishimiz lozim.

Giyohvandlik – yomonliklar onasi

Tibbiyot mutaxassislarining aytishicha, giyohvand moddalar inson salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi. Jumladan, ichak, qon-tomir, jigar faoliyati buzilishiga olib keladi. Asab hujayralarini yaroqsiz holatga keltiradi. Natijada ko'rish, eshitiş, hid bilish, fikr yuritish va sezish xususiyatlari yo'qoladi. Undan tashqari, uyqusizlik, tananing qaqshab og'rishi, ishtahasizlik, g'amginlik, ko'z yoshlanishi, titroq, et uvishishi, tomirlarning bo'rtib chiqishi, yurak o'ynashi va boshqa holatlar ham kuzatiladi. Ba'zan bu holatlar o'lim bilan ham yakun topadi.

Giyohvandlik yana ko'plab gunohlarni o'zida jamlagan kabira gunoh va og'ir jinoyatlardan



biridir. Statistika ma'lumotlarida aytilishicha, jahonda sodir etilayotgan qotillik, zo'ravonlik, fahsh, tovlamachilik, firibgarlik, o'g'rilik, bezorilik kabi jinoyatlarning 57 foizi giyohvand moddalar iste'mol qilish sababli yuz bermoqda. Bugungi kunga kelib, dunyoda 500 milliondan ortiq odam giyohvandlik dardiga yo'liqqan. Eng achinarlisi, ularning aksariyatini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Giyohvandlik oqibatida har yili 208 mingdan ortiq kishi hayotdan erta ko'z yummoqda.

Giyohvandlik – saodat kushandasi

Muqaddas dinimiz insonni ikki dunyoda baxt-saodatli bo'lishi uchun quyidagi besh narsaning muhofazasiga chaqirgan:

- 1. Din muhofazasi.**
- 2. Jon muhofazasi.**
- 3. Aql muhofazasi.**
- 4. Nasl muhofazasi.**
- 5. Mol muhofazasi.**

Islom ushbu besh narsani muhofaza qilishga da'vat etish barobarida ularga xilof qilishdan ham qaytargan. Kimda-kim mana shu besh narsani



go‘zal holatda muhofaza qilsa, ikki dunyoda baxt-u saodatga erishadi. Aks holda, dunyo va oxiratda qattiq nadomat va xorlikka yuz tutadi. Shariat istilohida mazkur besh narsa **“besh kulliyot”** yoki **“besh zarurat”** deb nomlanadi.

Din muhofazasi. Din bandani dunyoda saodatga, oxiratda najotga erishtiruvchi ilohiy ko‘rsatmalar majmuidir. Giyohvand shaxs din muhofazasiga, undagi buyruq va qaytariqlarga amal qilmaydi. Harom qilinganiga qaramay, giyohvandlikka ruju qo‘yadi. U jamiyatdagi odob-axloq me‘yorlarini ham nazar-pisand etmaydi. Chunki uning nazdida ma‘naviy boylik hisoblangan axloqning zig‘irchalik ahamiyati yo‘q. Giyohvandning asosiy maqsadi kayf-u safo bo‘ladi. U bu yo‘lda har qanday narsaga tayyor turadi.

Ulamolar giyohvand moddalarni ishlab chiqarish, ekish, yetishtirish, sotish, tarqatish, uni targ‘ib qilish ham iste‘mol qilish kabi harom ekaniga fatvo berganlar.

Faqihlar giyohvandlik bilan shug‘ullanadigan kishining adolati soqit bo‘lib, guvohligi qabul qilinmaydi, deydilar.

2. Jon muhofazasi. Inson ikki asosiy unsur – tana va ruhdan iborat. Ushbu ikki unurning



uyg'unligi tufayli hayot yuzaga keladi. Alloh taolo bu ikki narsani bandaga ato etar ekan, uni muhofaza qilishga amr etgan. Shuning uchun shariatimiz inson o'zining ham, o'zganing ham na jismiga, na ruhiga daxl qilishiga yo'l bermaydi. Bunga uning haqi yo'q. Shu sababli qon to'kish, birovga nohaq jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazishning har qanday turi va ko'rinishidan qaytarilgan. Giyohvand moddalarga ruju qo'ygan inson ham jismiga, ham ruhiyatiga zarar yetkazadi. Bu bilan u jon muhofazasiga zid ish qilgan bo'ladi.

3. Aql muhofazasi. Aql Alloh taolo bergan ulug' ne'matlardan biri hisoblanadi. U bilan ishlarning mohiyati anglanadi. Aql haq bilan botil, hidoyat bilan zalolat orasini ajratib beradi, yomonlik bilan yaxshilik o'rtasini farqlaydi. Shu xususiyat tufayli inson hayvondan ajralib turadi.

Muqaddas dinimizda aqlning ahamiyati juda katta. Aql taklifning asosidir. Ya'ni islom inson zimmasiga diniy majburiyatlarni yuklashi uchun uning aqli raso bo'lishini shart qiladi. Zero, bu majburiyatlar aqli noqis kishidan soqit bo'ladi. Shu sababli dinimiz aqlga salbiy ta'sir qiluvchi, uning faoliyatini cheklovchi yoki ishdan chiqaruvchi har qanday turdagi zararli narsalarni (suyuq,



quyuq, kukun va tutun holatida bo'lishidan qat'iy nazar) iste'mol qilishni taqiqlaydi. Olimlar aqlni sarxush qiluvchi moddalarni iste'mol qilishni "ixtiyoriy majnunlik" deb atashadi. Chunki giyohvand aql-hushini o'z ixtiyori bilan yo'qotadi.

4. Nasl muhofazasi. Alloh taolo inson naslini muhofaza qilish va bir-birlariga ko'makchi bo'lib, ko'proq savob qozonish uchun nikoh atalmish aqdni joriy qildi. Bu aqd insonni o'zidan halol yo'l bilan zurriyot qoldirishga xizmat qiladi. Muqaddas dinimiz naslni muhofaza qilishga qattiq e'tibor qaratgan. Shuning barobarida buzuvchilikning har qanday turi va tarkidunyochilikdan qaytargan. Giyohvand uchun o'tkinchi "rohat" eng qadrli narsa hisoblanadi. Uning nazdida oila degan tushunchalar bo'lmaydi. Shuning uchun ham giyohvandga hech kim qizini bermaydi. Bergan taqdirda ham bu oila uzoqqa bormaydi. Bugun giyohvand modda iste'mol qilish oilaviy ajrimlarga sabab bo'layotgani hech kimga sir emas. Giyohvandlik illati nikohdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri – zurriyot qoldirishga raxna soladi. Giyohvand otonadan tug'ilajak farzandlar majruh, nogiron va aqli zaif bo'ladi. Buning haqiqat ekani tibbiyotda ham isbotlangan.



Keyingi paytlarda hali oila qurmagan yosh yigitlarni “Tramadol”, “Lirika” kabi turli psixotrop dorilarni iste’mol qilishga o’rganib qolayotgani haqida eshitib qolamiz. Bu ayanchli holat, albatta. Undan ham yomoni bir xonadon bekasi bo’ladigan yosh qizlarning ushbu illatga muhtalo bo’lib qolayotgani kishini qattiq tashvishlantiradi.

5. Mol muhofazasi. Muqaddas dinimiz mol muhofazasiga ham alohida e’tibor qaratgan. Shu bois, pora, ribo va o’g’rilik kabi molga oid barcha turdagi harom ishlarni taqiqlaydi. Shuningdek, giyohvandlik, ichkilik kabi gunohlarga pul sarflash, molni isrof qilish, uni tasarrufga layoqati yo’q kishiga berish, o’zganing ham, o’zining ham moliga talafot yetkazishdan qaytaradi. Giyohvandlik insonni peshona teri bilan halol kasb qilish va hayotda joriy bo’lib turgan sabablarga ehtirom ko’rsatishdan to’sadi.

Yechim bitta. U ham bo’lsa, farzandlarimizga go’zal tarbiya berish bilan birga ularni doimiy nazorat qilib turishimiz. Shundagina ular kamolga yetib, ikki dunyoda ota-onalariga rahmatlar olib beradilar.



Aziz o'g'il-qizlarim! *Insonga berilgan barcha imkoniyatlar uning huzurida ham ne'mat, ham omonatdir. Ne'matlarga shukrona keltirishga, omonatlarga esa vafo qilishga buyurilganmiz. Shunda bizlarga berilgan ne'matlar yanada ziyo-da bo'ladi. Agar buning aksi bo'lsa, noshukrlik va xiyonat bo'ladi. Ne'matlar haqida so'z borar ekan, insonga berilgan hayot va sog'lik ne'mati eng katta boylik ekanini yaxshi anglab olmog'imiz lozim. Bu ne'matlarning qadriga yetib, shukrini ado qilish har birimizning vazifamizdir.*





Sog'ligingiz – boyligingiz

Avvalo, sog'liq bo'lsin

Alloh taolo insonni go'zal suratda, tana a'zolari-ni mutanosib va ko'rkam qilib yaratgan hamda Yer yuzida farovon va qiyinchiliksiz yashashi uchun juda ko'p ne'mat va qulayliklarni ato etib qo'ygan. Insonga berilgan ne'matlar shu qadar ko'pki, hatto ularni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Bu haqda Alloh taolo bunday marhamat qiladi: **“Agar Alloh-ning ne'mat(lar)ini sanasangiz, sanog'iga yeta olmaysiz. Haqiqatan, Alloh kechirimli va rahm-lidir”** (*Ibrohim surasi, 34-oyat*).

Salomatlik ham Alloh taoloning buyuk in'omidir. Shu bois inson Alloh taolo omonat qilib bergan sog'ligini asrashi lozim. Zero, salomatlik bo'lmasa, boshqa ne'matlarning tatishini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Inson faqat sog' bo'lgandagina baxt ta'mini to'liq totishi mumkin. Shuning uchun ham gohida bemor dardiga shifo izlab, uzoq-ya-qin o'lkalarga yo'l oladi. Bunday vaqtda uning ko'ziga hech narsa ko'rinmay qoladi – na uy-joy, na mol-dunyo... Bir so'z bilan aytganda, baxtli tur-mush kechirish uchun esa insonga avvalo sog'lik kerak.

Allohdan ofiyat so‘rang!

Abbos roziyallohu anhu Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan duo o‘rgatishni so‘raganlarida u zot: **“Allohdan afv va ofiyat tilagin. Zero, U hech kimga qat’iy imon-ishonchdan keyin ofiyatdan afzalroq ne‘matni ato etmagan”**, deganlar.

Ofiyat bu tanlarimiz sog‘ligi, rizqlarimiz mo‘lligi va turli xavf-xatarlardan omonlikdir.

Ulamolar inson ruhi va jismini chavandoz bilan otga o‘xshatishadi. Agar chavandoz mohir bo‘lsa-yu, ammo ot zaif bo‘lsa, u harchand kuchli bo‘lmasin yoki urinmasin, ko‘zlagan marrasiga yeta olmaydi. Aksincha, ot baquvvat, chavandoz esa zaif bo‘lsa, bu holatda ham u marradan benasib qoladi. Oti uni ko‘zlangan manzilga emas, boshqa tomonlarga olib qochadi yoki yerga uloqtiradi. Ikkisi bir-biriga mutanosib holda kuchli bo‘lsa, ko‘zlangan maqsadga erishiladi. Xuddi shunday inson ham ruhiy, ham jismoniy jihatdan sog‘lom va baquvvat bo‘lsa, ibodatlarini to‘la-to‘kis bajara oladi, yaqinlari va atrofdagilarga manfaati ko‘proq tegadi.

Salomatlik birinchi o'rinda

Islom dinida inson salomatligi birlamchi o'rinda turadi. Qiyomat kuni ham bandadan avvalo unga omonat o'laroq topshirilgan salomatlik to'g'risida so'raladi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: **«Qiyomat kuni bandadan eng avval so'raladigan ne'mat unga: "Sening jismingni sog'lom qilmadikmi?", "Seni sovuq suv ila serob qilgan emasmidik?" deyilishidir»,** deganlar (Imom Termiziy rivoyati).

Islom shariatida joriy qilingan din, jon, nasl, mol va aql muhofazasining uchtasi (jonni, naslni, aqlni asrash) aynan salomatlik bilan bog'liqligi dinimizda inson salomatligining o'rni va ahamiyati muhimligini ko'rsatadi.

Hatto farz bo'lgan ibodatlar va shar'iy hukmlar inson sog'lig'iga xavf bo'lganda chekinadi, yumshatiladi yoki butunlay kechirib yuboriladi. Masalan, namoz ibodati. Agar bemor tik turib namoz o'qishga qodir bo'lmasa, unga o'tirib, hatto yonboshlab namozni ado etishiga ruxsat beriladi. Ro'za ibodati ham bemorlardan soqit qilingan.

Ne'mat qadri yo'qotilganda bilinadi

Dinimizda sog'likni asrash tananing haqqi qatorida sanaladi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: ***“Jismingning senda haqqi bor, oilangning senda haqqi bor va kuch-quvvatingning ham senda haqqi bor”***, deganlar (Imom Buxoriy rivoyati).

Lekin salomatlikning qadri ko'pincha uni yo'qotgandan so'ng bilinadi. O'z vaqtida sihat-salomatligimiz qadriga yetmaslik oqibatida xayrli amallarni ham, ibodatlarimizni ham mukammal qila olmaymiz.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: ***“Ikki ne'mat borki, ko'p odamlar undan g'aflatdalar: Sog'lik va farog'at”***, deganlar (Imom Buxoriy rivoyati).

Shifo izlash – vojib amal

Islom dinida har bir inson o'z salomatligini asrashi barobarida kasal bo'lganida dardiga shifo izlashi ham vojib sanaladi. Agar e'tibor bermaslik tufayli inson jismiga zarar yetadigan bo'lsa, gunohkor bo'ladi. Alloh taolo bunday marhamat qiladi:

“Va o‘z qo‘llaringiz (baxilligingiz) bilan o‘zlarinigizni halokatga tashlamangiz!” (*Baqara surasi, 195-oyat*).

Dinimizda zararni daf qilish foydani jalb qilishdan ustun turadi. Shu sababli inson sog‘liqqa zarar yetkazadigan omillardan uzoq bo‘lishi bilan salomatlikni saqlash sabablariga ham qat’iy amal qilishi zarur. Masalan, badantarbiya bilan shug‘ullanish, poklikka rioya qilish, me’yorida uxlash, to‘g‘ri ovqatlanish va boshqalar.

Sog‘lom tanda – sog‘lom aql

Badanni chiniqtirish va sog‘liqni saqlashda badantarbiyaning o‘rni beqiyos ekani barchaga birdek ma’lum. Ayniqsa, rivojlangan davlatlardagi yosh-u qarilar bunga qattiq e’tibor berishadi. Dinimizda badantarbiyaga ko‘p targ‘ib qilinadi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: ***“Kuchli mo‘min kuchsiz mo‘mindan Allohga sevimliroqdir, lekin har ikkisida ham yaxshilik bor”***, deganlar.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: ***“Farzandlaringizga kamon otishni, suzishni va otda sakrashni o‘rgating”***, dedilar.

Me’yorida uxlash. Uyqu salomatlik uchun



muhim sanaladi. Kam uxlash qator kasalliklar, oshqozondan tortib infarkt va alsgeymer xastaligiga olib kelsa, me'yoridan ortiq uxlash ham zararli ekanini ta'kidlab o'tish lozim. Ayniqsa, yoshlarning tunni bekorchilik bilan o'tkazishi sog'lik uchun nihoyatda xavflidir. Olimlarning 90 mingga yaqin ko'ngilli qatnashgan, olti yil davom etgan tadqiqotlari natijasiga ko'ra soat 22⁰⁰ dan 23⁰⁰ gacha bo'lgan vaqt oralig'ida uyquga yotish yurakqon tomir kasalliklari xavfini sezilarli darajada kamaytirishi aniqlangan.

To'g'ri ovqatlanish. Ko'p taom yeyish dangasalikka olib boradi. Odam ko'p uxlagani sari uning ruhiy va aqliy faoliyati, ishchanlik salohiyati pasayib boradi. Shuningdek, me'yoridan oz yeb, biror kasallikka uchramaslik, jismni toliqtirib qo'ymaslik lozim. Balki me'yorida ovqatlanish kerak. Bu haqda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: ***“Odam bolasi to'ldiradigan idishlarning eng yomoni qorindir. Odam bolasiga qaddini turg'izadigan yemaklar yetadi. Agar juda lozim bo'lsa, taomi uchun uchdan bir, sharobi uchun uchdan bir va havosi uchun uchdan bir”***, deganlar (*Imom Ahmad, Imom Termiziy rivoyati*).

Rivoyat

O'tgan zamonda bir kambag'al kishi donishmandning oldiga kelib: "Yeyishga nonim, kiyishga kiyimim yo'q, qashshoqlikdan juda qiynaldim, nima qilishimni bilmay qoldim", deb shikoyat qilibdi.

Donishmand:

– Sen kambag'al misan? – desa, u:

– Ha, bola-chaqalarim va o'zim ochman, kiyim-kechagimiz yo'q, – deb nihoyatda zorlanibdi.

Olim:

– Xo'p, bo'lmasa menga o'ng qo'lingni sot, necha pul beray? – desa, haligi yigit:

– Yo'q, o'ng qo'lim o'zimga kerak, sotmayman, – debdi. Shunda chol:

– Bo'lmasa o'ng ko'zingni sot, – debdi. Yigit:

– Nega men o'ng ko'zimni sotar ekanman, u menga doimo kerak, – debdi.

Donishmand shu tarzda yigitning tana a'zolarini birma-bir sotgin, deb aytib chiqibdi. Yigit "yo'q" javobini qaytaravergach, chol yigitga:

– Ha, tan-joning sog' bo'lsa, turmushdan zorlanib nima qilasan? Kishining sog'lig'i – tuman boylik-ku. Sog' bo'lsang, qanday ish bajarsang, qo'lingdan keladi. Kuning o'tadi, – deb javob qaytargan ekan.



***Aziz o'g'il-qizlarim!** Tanangiz va undagi har bir a'zo Alloh taoloning sizga bergan omonatidir. Sog'lom vaqtingizda ularni g'animat bilib, Yaratgan Zot rozi bo'ladigan ishlarga xizmat qildirishingiz, agar xastalansa, parvarishlab, muolaja etishingiz darkor. Alloh taolo hammamizga sihat-salomatlik-da umrguzaronlik qilishni nasib etsin.*





Mazhabsizlik – dinsizlikka ko‘prik



Ummat birligini saqlovchi omil

Alloh taologa beaded hamdlar bo'lsinki, yurtimiz mo'min-musulmonlari bir necha asrlardan beri Imomi A'zam – Abu Hanifa rahmatullohi alayhning mazhabiga og'ishmay-toyilmay amal qilib kelmoqdalar. Hanafiylik mazhabi yurtimiz musulmonlarining hamjihatligi, o'zaro inoqligi va birligini ta'minlashga, mamlakatda ilm-u irfon rivoj topishiga ulkan hissa qo'shdi.

Hanafiy mazhabining taniqli ulamolari bizning Movarounnahrda chiqqan desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Yurtimizning alloma va faqihlari insoniyat taraqqiyotida, tamaddun rivojida, bashariyat karvonida insonparvarlik, ijtimoiy adolat va axloqda yo'lboshchi bo'ldilar. Natijada Iroq (Kufa)da yuzaga kelgan bu mazhab yurtimizda o'z taraqqiyotining cho'qqisiga ko'tarildi.

Ammo afsuslar bo'lsinki, yurtimiz musulmonlari e'tiqod qilib kelayotgan hanafiylik mazhabi vakillarini adashganlikda ayblash, mazhabni inkor etish yoki boshqa mintaqa aholisi e'tiqod qilayotgan mazhabga targ'ib qilib, ixtilof chiqarishga urinuvchilarning uchrab turishi kuzatilmoqda.

Islom dinida aqidaviy va fiqhiy masalalarda

o‘zaro ixtilof qilish, turli firqa va guruhlariga bo‘linish qat’iy taqiqlanadi. Birdamlik, hamjihatlikka targ‘ib qilinadi, nizo, ixtilof, parokandalik kabi birdamlikka futur yetkazadigan omillar qoralanadi. Alloh taolo zulmning har qanday ko‘rinishidan qaytaradi va turli firqalarga bo‘linmaslikka buyuradi: **«Hammangiz Allohning “arqoni”ni mahkam tuting va firqalarga bo‘linmang...»** (*Oli Imron surasi, 103-oyat*).

Abu Lays Samarqandiy oyatdagi **«Allohning arqoni»** so‘zini Alloh taoloning dini va Qur‘onini mahkam ushlang, yahudiy va nasroniylar ixtilof qilgani kabi firqalarga bo‘linmang deb tafsirlagan. Abul Barakot Nasafiy **«Allohning arqoni»**ni “Qur‘oni karim” deb tafsir qiladi va Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning ushbu hadislarini keltiradi: ***“Qur‘on Alloh taoloning mustahkam arqonidir. Kim u bilan so‘zlasa, rost gapiradi. Kim unga amal qilsa, hidoyat topadi. Kim uni mahkam ushlasa, to‘g‘ri yo‘lda bo‘ladi”.***

Alloma Nasafiy **«...firqalarga bo‘linmang...»** oyatini: *“bo‘linishga sabab bo‘ladigan va birlik yo‘qoladigan ishni qilmang, ummat ittifoq qilgan narsani oling hamda ittifoqni bo‘lmang”*, deb tafsir qilgan.



Imom Moturidiy mazkur oyatning tafsirida Ibn Mas'ud roziyallohu anhunging **«Allohning arqoni»** bu Qur'oni karimdir deb aytgan so'zini va Ibn Abbos roziyallohu anhumoning quyidagi gaplarini keltiradi: **«Allohning arqoni»** bu jamoatdir. Qachonki ummat jamoatdan ajrasa, tafriqaga yuz tutib, halok bo'ladi. Shu bois, ushbu oyat jamoatga targ'ib etadi, guruhlariga bo'linishdan qaytaradi. Zero, Islom jamoatga va birdamlikka buyuradi. Bu haqda Alloh taolo bunday marhamat qiladi: **«Albatta, mana shu (Mening) to'g'ri yo'limdir. Unga ergashingiz! (Boshqa turli) yo'llarga ergashmangiz! Aks holda, ular sizlarni Uning yo'lidan ayirib qo'yadi»** (*An'om surasi, 153-oyat*).

Biroq hozirda deyarli 1300 yildan beri faoliyat ko'rsatib kelayotgan mazhablarning inkor qilinishi musulmon ummatining ixtilofiga sabab bo'lmoqda. To'rt mazhab va boshqa imomlarning fatvolari, ko'rsatmalari, tutgan yo'llarini rad etish va noto'g'riga chiqarish, mazhablar Rasululloh sollallohu alayhi va sallam vaqtida bo'lmagan bid'at narsa, shuning uchun unga amal qilish kerak emas, Qur'on va Islom ta'limotini puxta o'zlashtirgan har bir musulmon ijtihod qilishi mumkin degan da'volar tobora ko'payib bormoqda.

Muhammad Said Ramazon Butiy rahmatullohi alayh mazhabga rioya etmay, o'zicha shar'iy hukm chiqarishni qoralab, bunday deydi: *“Odamlarni uy-joy qurilishi loyihalarida muhandislarga suyanishdan voz kechishga, salomatlik bilan bog'liq muammolarda esa shifokorlarning so'zlariga amal qilmaslikka chaqiradigan bo'lsak, mutaxassislarga ergashishni tark qilishga, uning o'rniga o'zlari ijtihod qilishlariga, undan keladigan shaxsiy qanoatiga e'timod qilishga chaqiradigan bo'lsak nima bo'ladi? Odamlar uylarini obod qilaman deb, xarob qiladilar, davolanaman deb, jonlarini halok etadilar, ishlab chiqaraman deb, o'zlariga tanazzul orttiradilar. Odamlarning dunyoviy sohalarda ijtihod qilish maydoniga kirib kelishlarida paydo bo'ladigan natija barcha odamlar shar'iy ilmlar va halol-haromga doir ahkomlar borasida ijtihod qilish maydoniga bostirib kelganda paydo bo'ladigan natijaning aynan o'zidir”.*

Shayx Muhammad Xizr Jangi Shinqitiiy: *“Imom Abu Hanifa, Imom Molik, Imom Shofe'iy va Imom Ahmad ibn Hanbal ijmo qilingan to'rt mazhabdir. Barcha ulamolar ulardan boshqa mujtahidning mazhabiga ergashishni man qilganlar”,* degan.



Alloma Tahonaviy aytadi: *“Dinda iqtido qilinadigan imomlarning barchasi mustaqim hidoyatda bo‘lib, ularning mazhablaridan qay biri yurtda keng tarqalgan va uning ulamolari ko‘p bo‘lsa, ijtihod darajasiga yetmagan kishi uchun o‘sha mazhabga ergashmoq vojib bo‘ladi. Unga o‘zga yurtda mazhabi tarqalmagan va ulamolari ko‘p bo‘lmagan imomning mazhabiga ergashish joiz emas. Chunki bunday holatda mazkur mazhabning barcha hukmlarini o‘rganish imkoni bo‘lmaydi”.*

Fiqhiy mazhabga amal qilish, ayniqsa, bugungi kunda yanada ahamiyatli va zarur. Chunki mazhabga ergashish mavjud turli ixtiloflar va kelishmovchiliklarning oldini olib, hamma o‘z mazhabiga amal qilgan holda, o‘zga mazhablarni ham hurmatlashiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun ham ulamolarimiz: ***“Ijtihod darajasiga yetmagan kishilar muayyan bir mazhabni ushlashi lozim. Shunda ixtiloflardan saqlaniladi”***, deydilar.

Samhudiy “Iqd al-fariyd fiy ahkom at-taqlid”da aytadi: *“To‘rt mazhabni ushlashda katta foydalar, ulardan yuz o‘girishda esa katta fasod-buzuqlik bor.*

Birinchidan, ummat shariatni tanishda o‘tgan olimlarga suyanishga ijmo qilganlar. Tobeinlar

sahobalarga, tabaa tobeinlar esa tobeinlarga suyanganlar. Qolaversa, har bir tabaqadagi olimlar o'zlaridan oldingilarga suyanganlar.

Ikkinchidan, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "O'zingizga katta jamoani – savodi a'zamni lozim tuting!" deganlar. Mazhablarga ergashish savodi a'zamga ergashish demakdir".

Shu o'rinda yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mazhablardagi ixtiloflar dinimizning kamchiligi ham, undagi qarama-qarshilik ham emas. Bunday ixtilofning bo'lmasligi mumkin ham emas. Shu bois, qiyosga murojaat qilish va hukmlarning illatiga, shariat sohibining g'araziga, shariatning umumiy maqsadlariga nazar solish hamda hodisalar-u yangi paydo bo'lgan masalalarda uning hukmini joriy qilish lozim bo'ladi. Bunday holatda ulamolarning fahmlari va bir necha ehtimoldan birini ustun qo'yishlari hamda shunga binoan bir masala bo'yicha chiqaradigan hukmlar har xil bo'lishi tabiiydir.

Shuningdek, to'rt mazhab imomlari Qur'onni shar'iy ahkomlarning birinchi manbasi qilib olishlari, avvalo, ularni o'zaro birlashtirgan, qolaversa, musulmonlar jamoasini ham birlashtirish orqali turli tafriqalardan saqlab qolgan. Agar bunday



qilinmaganda, hamma o'zicha ish ko'rishi va ummatning turli ixtiloflarga duch kelishi tayin edi.

Shuni bilingki, mazhablarga ergashish – shariat ko'rsatmasiga ergashishdir! Uni inkor qilish esa shar'iy ko'rsatmalarga va butun Islom ulamolariga qarshi chiqish hisoblanadi. Zero, Islom tarixida biror mufassir yoki muhaddis yoxud faqihni bemazhab bo'lgani ma'lum emas.

Bir misol, to'rt mazhab go'yoki to'rtburchak hovuzning to'rt tarafiga o'xshaydi. Uning asoschilari to'rt tomonda tursalar-da, barchalari bir hovuzdan suv olishgan. Ya'ni suvdan murod – shariat manbalari Qur'on, sunnat, ijmo, qiyos. Har bir mazhab albatta shariatga tayanib hukm chiqargan. Shundan kelib chiqib, fiqhiy mazhabga amal qilish hadisni qo'yib, birovning fikriga yurish, degani emas. Ya'ni Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamni qo'yib, masalan, Abu Hanifaga ergashish degani emas. Aksincha, mazhabga ergashish Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamga ko'r-ko'rona emas, balki oqilona va Payg'ambarimiz alayhissalom ko'zlagan va maqtagan ma'noda ergashishdir.

Shunday ekan, birorta hadisni sanadi bilan to'liq yod bilmay turib, minglab hadislarini sana-

di bilan yod bilgan, hamma jihatdan ularni sinchiklab o'rganib chiqqan muhaddis va mujtahid faqihlardan o'zimizni yuqori qo'yamaylik. Uch-to'rt hadis ma'nosini chala-chulpa tushunib olib, o'tgan aziz ulamolarga tosh otmaylik. Buning o'rniga hadislar va fiqhiy kitoblarni chuqurroq o'rganishga harakat qilaylik. Ana shunda hamma narsa o'z o'rniga tushadi.

Qur'on va sunnatdan har kim o'zboshimchalik bilan hukm chiqarishi – musulmonlarni kuforda ayblash, ularning qonini to'kishni halol hisoblash, bog'iylik, fitna va ixtilof qo'zg'ash kabi dinimizda qat'iyan man qilingan xatti-harakatlarga sabab bo'lmoqda.

Mazhabboshimiz buyuk imom – Abu Hanifa rahmatullohi alayh

“Modomiki odamlar orasida hadis talabida yurganlar bor ekan, ular yaxshilikda bardavom bo'ladilar. Agar ular ilmni hadissiz talab qilgudek bo'lsalar, barbod bo'ladilar”.

* * *

“Allohning dinida o'z ra'yingiz bilan aslo bir so'z ayta ko'rmang. Sunnatga ergashing, chun-

ki kim sunnatdan chetga chiqsa, adashadi”.

Abu Hanifa rahmatullohi alayh

Shayx Mas’ud: «Abu Hanifa rahmatullohi alayhga ta’na toshlarini otadigan ba’zi kimsalar o’ylaganidek, hadisni kam bilganlari uchun oz hadis rivoyat qilmaganlar, balki hadis rivoyat qilishda yuqorida aytilgan shartni qat’iy qo’yganlari uchun roviylardan ko’p hadis rivoyat qilmaganlar», dedilar.

Buyuk muhaddis ulamolar ham u kishining ilmiy maqomini e’tirof qilganlar. O’sha e’tiroflarning barchasini bu yerda naql qilinsa, katta bir kitob bo’ladi.

1. Makkiy ibn Ibrohim rahimahulloh Imom A’zam Abu Hanifa rahmatullohi alayh haqlarida shunday deyilar:

“U o’z zamonasining eng olimi edi!”

Makkiy ibn Ibrohim rahimahulloh Imom Buxoriy rahimahullohning eng qadrli buyuk ustozidir. Imom Buxoriy o’zlarining aksar sulosiyotlarini aynan u kishidan rivoyat qilganlar. Makkiy ibn Ibrohim esa Imomi A’zam Abu Hanifaning shogirdidirlar. Shunga ko’ra, Imom Abu Hanifa rahmatullohi alayh hadis ilmida o’z zamonasining eng katta olimi edilar.

2. Mashhur muhaddis Yazid ibn Horun rahmatullohi alayh aytadi:

“Men ming nafar shayxni ko’rdim va ulardan (hadis) yozib oldim. Bu besh shayxdan faqihrog’ini, taqvolirog’ini, olimrog’ini topmadim. Ularning eng birinchisi Abu Hanifadir”.

3. Imom Sufyon ibn Uyayna rahmatullohi alayh aytadi:

“Ko’fada Abu Hanifa zamonida undan afzal, undan taqvoli va undan faqihroq kishi yo’q edi”.

4. Imom Abu Dovud rahmatullohi alayhi rahmat qiladi:

“Shak-shubhasiz, Abu Hanifa imom edi”.

Hofiz Abulhajjoj Mazziy rahimahulloh “Tahzibul kamol” kitobida Imom Abu Hanifa rahmatullohi alayhning 74 shayxini sanab o’tgan.

Mulla Ali Qori rahimahulloh «Musnadu Abu Hanifa»ga yozgan sharhlarida Imomi A’zam rahmatullohi alayhning shayxlarining sonini 4000 (to’rt ming) deydi. Bu 4000 ustozlar – yoki sahoba, yoki tobein, yoki tabaa tobeinlardir. Ustozlari ichida bundan keyingi tabaqa shayxlar yo’qdir. Bunday ustozlar mashhur muhaddislardan hech birlariga nasib qilmagan.

“Bizga kema kerak emas”

Rivoyat qilishlaricha, bir olim kemada kitob o‘qib ketayotgan ekan. Kemadagi kishilardan biri u zotga yaqinlashib:

– Hazrat, Alloh bizga aql bergan, yana payg‘ambarlar yuborgan va sahifalar hamda kitoblar nozil qilgan bo‘lsa, shunda ham biror ulamoga ergashishimiz shartmi? Aqlimizni ishlatib to‘g‘ri yo‘lni topib keta olamiz-ku?! – dedi.

Shunda olim kitobdan boshini ko‘tarib:

– Suzishni bilasanmi? – dedilar. U:

– Ha, bilaman, – deb javob berdi.

Najib Fozil:

– O‘zing suzishni bilsang, kemaga nima uchun chiqding, dengizda o‘zing suzib ketavermaysanmi? – dedi.

Olimning bu savoliga u nima deb javob berishini bilmay qoldi.

Bu qissadan xulosa shuki, Islom shariati ulkan dengiz bo‘lsa, “mazhab kerak deyish” esa dengiz safari uchun kemaga chiqishdir. “Shariat dengizida o‘zim suzaman, mazhab kerak emas” deyish esa dengiz safariga kemasiz chiqish va o‘zini halokatga qo‘yishdir.



Aziz o'g'il-qizlarim! Yurtimizda ming yillardan beri amal qilib kelinayotgan hanafiy mazhabi ta'limoti yo'l-yo'riq va ko'rsatmalariga amal qiling. Mana shu sizni Kitob va sunnatga olib boradigan eng to'g'ri va ishonchli yo'ldir. Turli ommaviy axborot vositalarida ba'zi bir o'zini ahli ilm deya tanishtirib, mazhabni tark etishga da'vat etayotgan kaslarning so'ziga quloq tutmang. Ba'zi bir yoshlar ularning targ'ib-tashviqiga uchib, gulday umrini xazon qilayotganlari juda achinarlidir.





Vatanga muhabbat – muqaddas tuygʻu



U Vatandir

Vatan – Odam alayhissalom birinchi qadam qo'ygan tuproq, zurriyotlari to qiyomatga qadar istiqomat qiluvchi mo'tabar zamin.

Vatan – nafaqat inson, balki butun mavjudot – tirik jon uchun o'ziga xos, qo'nim topadigan maskan.

Vatan – din, millat, elat, boylik, nasab, yosh, rang, joy tanlamaydigan, chegarasi ko'rinmas ajib bir tuyg'u.

Vatan – eng ko'p qalamga olingan, sirli-sinoatli, serqirra, serjilo go'sha.

Vatanli inson baxtli insondir. Bevatan inson esa baxtsiz insondir.

Kim Vatan tushunchasini yaxshi anglab yetmas ekan, uning bag'rida yashashidan ma'no yo'qdir. Shunga ko'ra, Vatanni bilmagan kas, ta'bir joiz bo'lsa, hayvondan ham, parrandadan ham, hasharotdan ham tuban hisoblanar ekan.

Vatan yaxshi va yomon kunlarni xotiraga muhrlovchi, insonning qadr-qiymatini o'lchab beruvchi hayot maktabidir.

Vatanga muhabbat qo'yish juda ham nozik va ayni paytda muhim mavzu bo'lib, buni izohlash



uchun zamondosh olimlardan birining xolisona aytgan fikrini keltirish yetarli: “Bugungi kunda bo‘layotgan to‘s-to‘polonlar, urush-janjallar, nohaq qon to‘kilishi, notinchlik hamda obod joylarning vayron etilishidagi eng katta va asosiy sabab odamlarda Vatanga bo‘lgan muhabbatning yetishmaslidir”, degan edi.

Darhaqiqat, bugungi kunda ommaviy axborot vositalarida dunyoning turli joylarida bo‘layotgan xurujlar haqida xabarlar berib borilmoqda. Unda muqaddas dinimizdagi mo‘tabar tushunchalarni buzib talqin qilish natijasida mana shu kabi holatlar bo‘layotgani hech kimga sir emas.

Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi asrda buzg‘unchi g‘oyalarni tarqatib, tinch yurtlarni vayron qilayotganlarning borligini hammamiz yaxshi bilamiz. Nima emishki, Islom dinida Vatan tushunchasi haqida biror so‘z aytilmagan, qiymatsiz oddiy bir so‘z ekan.

Ana o‘sha puch va hech qanday dalilga ega bo‘lmagang‘oyalar girdobiga tushib qolib, Vataniga, xalqiga, oilasiga, kerak bo‘lsa, ota-onasiga qarshi chiqayotgan, hozirgi zamon ta‘biri bilan aytganda, vatanfurushlik qilayotgan g‘alamislarning borligi achinarli holat, albatta. Ular qilayotgan razolatlar

asosida Vatan tushunchasini yaxshi anglab yetmaslik yotibdi desak, xato qilmagan bo'lamiz.

Vatanga muhabbat fitriy tuyg'udir

Inson uchun eng qadrli va qimmatbaho ne'matlardan biri Vatandir. Biror inson yo'qki, vatanini sevmasa, ulug'lamasa. Qanday ulug'lamasin?! Chunki Vatan uning kindik qoni to'kilgan, beg'ubor bolalik chog'i o'tgan, ilk qadamlarini qo'ygan, yoshlik, keksalik davrlarini surgan, o'chmas xotiralari muhrlangan ota-bobolarining yurti, farzand-u nabiralari ulg'aygan zamindir!

Inson o'z vatanidan juda ko'p yaxshiliklar ko'rgani uchun uni onaga taqqoslab, "Ona-Vatan" deyiladi.

Faqat inson emas, hattoki hayvonlar ham o'z vatani – inini boshqa hech bir narsaga alishmaydi. Alishishga rozi ham bo'lmaydi. Uning yo'lida har qanday qimmat va nafis narsalarini qurbon qiladi.

Qushlar inida baxtiyor yashaydi. Biror narsani xas-cho'pdan bo'lgan iniga alishmaydi.

Baliqlar dengiz va ummonlar osha minglab chaqirimlarni suzib o'tadilar. Yana baribir o'z vatanlariga qaytadilar.



Mitti chumolini ko'ring, rizq talabida qancha joylarga boradi, tepaliklarga qiynalib chiqadi. U ham yana o'z iniga – vataniga qaytadi.

Ba'zi hayvonlar asl vatanidan boshqa joyga ko'chirilsa, nobud bo'lib qoladi. Ko'ryapsizmi, hamma – hazrati insondan tortib to mayda hasharotlarga o'z vatanini sevadilar. Demak, bu mavjudotlar ustidagi Allohning odati, sunnati, qonuni! Uni insonning ham, boshqa jonzotlarning ham fitratiga Alloh solib qo'ygan. Bo'lmasa, harorati oltmishga yetadigan issiq joylarda yoki harorat noldan past bo'lgan shimoliy qutblarda yoxud o'rmonlarda, har kun hayot uchun xavfli yerlarda yashashga ularni nima majbur qiladi?! Ularni bunga undagan narsa faqatgina vatanlariga bo'lgan muhabbatdir.

Vatanga muhabbat qo'yish – shar'iy amal

Vatanga muhabbat shar'iy amal hisoblanib, unga Qur'oni karim va hadisi shariflarda juda ko'p dalillar bor. Biz bir oyat va bir hadis keltirish bilan kifoyalnamiz.

“Senga Qur’onni farz qilgan Zot, albatta, seni qaytar joyga qaytarguvchidir” (*Qasos surasi, 85-oyat*).

Abdulqodir Mullo Havish rahmatullohi alayh o’zining “Bayonul ma’oniy” tafsirida keltiradi:

«Davoniy “Al-avd” kitobida aytadi:

Yahyo ibn Salomdan rivoyat qilinadi:

«Menga yetgan xabarga ko’ra, Nabiy sollallohu alayhi va sallam Makkadan Madinaga yuzlanib, Juhfaga yetganlarida Jabroil alayhissalom tushib:

– Ey Muhammad! Tug’ilgan yeringizni sog’in-yapsizmi? – deb so’raydi.

– Ha, – deydilar.

Shunda **“Senga Qur’onni farz qilgan Zot...”** oyati nozil bo’ldi».

Hazrati Payg’ambarimiz sollallohu alayhi va sallam do’sti Jabroil alayhissalomga Makkadan chiqqanlariga endi uch kun o’tgan bo’lsa-da, Vatamlarini sog’inganlarini ochiq izhor qildilar.

Alloh taolo bandalari qalbiga qayerda bo’lsalar ham, Vatamlari muhabbatini jo qilgan. Har bir maskan o’z ahliga mahbub ko’rinadi. Qachon bo’lmasin, uni boshqasidan ustun qo’yadilar. Faqat unda xotirjam bo’ladilar. Hattoki hozirgi vaqtda qishloqdagilar shaharga borsalar, u yerdagi



holat qishloqlaridan chiroyli va qulay bo'lishiga qaramay, yaxshi uxlay olmaydilar. Shaharda qishloqda yo'q, ko'rmagan narsalari bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, vaqt kechami, issiqmi yoki sovuq, butun kuchini ishini yakunlab, o'z oilasida uxlashga sarflashiga guvoh bo'lasiz. Alloh iroda qilgan hikmat sababli shunday bo'ladi. Shuning uchun har bir mavjudot o'zi tug'ilgan vatanga oshiqadi. Bu narsani Alloh mavjudotlarda tabiiy xislat qilib qo'ygan. Tuya o'z yeriga, qush iniga, vahshiy – yovvoyi hayvonlar o'rmoniga, baliqlar suviga va inson o'z vataniga oshiqishini ko'rasiz. Garchi manfaati va rizqi boshqa joyda bo'lsa ham”.

Demak, Alloh taolo bandalari qalbiga vatanlari muhabbatini jo qilgan. Har bir maskan o'z ahliga go'zal ko'rinadi. Inson faqat undagina xotirjam bo'la oladi. “O'z uying – o'lan to'shaging”, degan o'zbek maqoli bejizga aytilmagan. Unga o'xshagan maqollar har bitta xalqda borligi tayin. Chunki vatan muhabbati millat, yurt tanlamaydi. Alloh taoloning O'zi shunday bo'lishini iroda qilgan.

Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam safardan qaytayotib Madina ko'chalarini ko'rgan vaqtlarida tuyalarini tezlatardilar. Ulovda bo'lsalar, uni

niqtardilar”. Abu Abdulloh aytadi: Horis Ibn Umayr Humaydning “Ulovni uni (Madinani) sevganlaridan niqtardilar” rivoyatini ziyoda qilgan (Imom Buxoriy rivoyati).

Ibn Hajar va Badriddin Ayniy rahmatullohi alayhlar: “Hadisda Madinaning fazilati, vatanni sevish va unga oshiqishning shariatda borligiga dalil mavjud”, deganlar.

Yurt haqiga hatto payg‘ambarlar duo qilgan

Yurt haqiga duo qilish bizga payg‘ambarlardan meros. Alloh taolo Qur’oni karimda payg‘ambarlar otasi nomini olgan Ibrohim alayhissalomni o‘z yurtiga duo qilgan duosini zikr qiladi:

«Ibrohimning: “Rabbim, buni omonlik yurti qilgin va ahlidan Allohga va qiyomat kuniga iymon keltirganlarini mevalar ila rizqlantirgin”, deganini esla» (Baqara surasi, 126-oyat).

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga mevaning avvali keltirilar edi. Shunda u zot: ***“Allohumma barik lana fi madinatina va fi samarina va fi muddina va fi so’ina barokatan***



ma'a baroka" duosini aytardilar. So'ngra uni hozir bo'lgan bolalarning eng yoshiga berardilar» (*Imom Muslim rivoyati*).

Duoning tarjimasini: "Ey Alloh! Bizning shahrimizga, mevamizga, muddimizga va so'imizga baraka ustiga baraka ber".

Mud va so' – hajm o'lchov birliklari.

Yuqoridagi oyati karima va hadisi sharifda kelgan bu muborak odatga xalqimiz go'zal holatda amal qilib keladi. Yoshi kattalar qachon duoga qo'l ochsalar, avvalo, yurt haqqiga duo qiladilar.

Uqba ibn Omir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «*Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Uch kishining: ota, musofir va mazlumning duosi ijobat qilinadi", dedilar*» (*Imom Tabaroniy rivoyati*).

Alloma Munoviy rahmatullohi alayh "Fayzul Qodir" kitobida yozadi: "Uch kishining: otaning farzandga, musofirning va mazlumning zolimga qilgan duosi ijobat bo'ladi.

Safar vatandan uzoq, g'urbatda bo'lish, mashaqqatlarni boshdan kechirish sababli qalbdagi siniqlik paydo qiladigan o'rindir. Siniqlik duo ijobat bo'lishining eng katta sabablaridan biri. Mazlum esa nochordir".

Nozik tuyg'uning go'zal ta'rifi

Zamondosh olimlardan Shayx Muhammad G'azzoliy rahmatullohi alayh vatannni sevish haqida oz va soz, zarhal harflar bilan yozib qo'yadigan juda go'zal ta'rif aytgan:

“Bashariyat o'z yerini undagi narsalari bilan, garchi u hech kim yashamaydigan cho'l bo'lsa ham yaxshi ko'raveradi. Vatanni sevish – yurakka singib ketgan, insonni unda bo'lganida xotirjam, yiroq ketganida talpinadigan, hujum qilinganida asraydigan va kamsitilganida g'azablanadigan qilib qo'yuvchi tuyg'u”.

Keling, Shayx Muhammad G'azzoliy rahmatullohi alayhning aytgan so'zlarini biroz sharhlaylik.

“Bashariyat o'z yerini undagi narsalari bilan, garchi u hech kim yashamaydigan cho'l bo'lsa ham yaxshi ko'raveradi”.

Nega bunday? Chunki bu tuyg'uni, bu muhabbatni inson o'zidan o'zi paydo qilgan emas. Uni bandasi qalbiga solgan, qon-qoniga, jon-joniga singdirib qo'ygan, yaratishda muhabbati ila qorib yaratgan Zot uning Xoliqidir. Demak, bu shunchaki oddiy emas, ilohiy tuyg'udir. Qalbga muhabbatni Alloh



solganidan keyin, garchi u hech kim yashamaydigan cho'l bo'lsa ham, uni yaxshi ko'raveradi. Imkoniyatlar chegaralanganligi, rizqining tangligi va sharoitning torligiga e'tibor bermaydi, undan shikoyat ham qilmaydi. Chunki Laylining haqiqiy jamolini ko'raman deganlar unga Majnun ko'zi bilan qaramog'i kerak!

“Vatanni sevish – yurakka singib ketgan...”

Boisi, insonning yaratilishi ham, qaytadigani ham ayni shu vatan, shu zamin-da!

“insonni unda bo'lganida xotirjam...”

Haqiqatda, inson qiynalsa-da, vatanida boshqa joyga qaraganda xotirjam va hur yashaydi. “O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l”, hikmati ham bejiz aytilmagan. Kambag'al inson o'z yurtida podshohlar kabi hayot kechiradi. Ba'zilar o'zga yurtda boy-badavlat yashagani bilan, aslida, ular g'aribdir. Hikmatlarda: “Kishining rizqi o'z vatanida bo'lishi saodatdir”, deyilgan.

“yiroq ketganida talpinadigan...”

Imom Shofe'iy rahmatullohi alayh: “Insonning xor-u zor bo'lishi uchun vatani va yaqinlaridan ayrilishining o'zi kifoya!” deganlar.

Inson uzoqlarda bo'lsa-da, vatani uning xotirasidan o'chmaydi.



“hujum qilinganida asraydigan...”

Vatanni-ku qo'yaturing, inson o'ziga tegishli bir qarich yerni ham birovga bergisi kelmaydi. Ki-shi Vatani sarhadlariga hujum qilinganini ko'rsa, himoyaga shaylanadi. Kerak bo'lsa, uning yo'lida jonini qurbon qiladi. Yovga vatanning bir hovuch tuprog'ini ham berib qo'ymaydi.

“va kamsitilganida g'azablanadigan qilib qo'yuv-chi tuyg'u”.

Qay bir insonning vatani kamsitilsa yoki millati pastga urib masxara qilinsa, albatta, uning qalbida g'azab uyg'onadi. Demak, musulmon odam vatani do'stiga do'st, dushmaniga dushman bo'lmog'i kerak.

Vatanning qanday haqlari bor?

Har bir inson zimmasida o'z vatani oldida bir necha haqlari bor. Ularning eng muhimlari quyidagilar:

1. *Vatanni sevish.* Bu borada sevikli Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam bizga o'rnak-namuna.

Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi va sallam



Makkaga qarab: “Ey Makka! Sen qanday go‘zal shaharsan! Sen menga qanday suyuklisan! Agar qavmim meni sendan chiqarmaganlarida edi, boshqa joyda turmasdim”, dedilar” (Imom Termiziy rivoyati).

2. Yurt obodligi uchun hissa qo‘shish. Yurt ravnaqi va taraqqiyoti o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi, albatta. Uning rivoji, gullab-yashnashi bag‘rida yashayotgan odamlarga bog‘liqdir. Mamlakatning har bir fuqarosi yurt rivoji va taraqqiyotiga o‘zini daxldor deb bilishi, vazifasini sidqidildan, chiroyli ado qilishi lozim. Bu yo‘lda bir zum tin olmaslik, qo‘ldan kelgan barcha imkoniyatlarni ishga solmoqlik darkor. Yurt rivojiga har bir soha vakili mas’ul. Fuqaroning yurti taraqqiyotiga qo‘shayotgan hissasi uning qilayotgan mehnatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Alloh taolo Qur’oni karimda bunday marhamat qiladi:

“U sizlarni yerdan paydo qildi va unga sizni obodligi uchun qo‘ydi” (Hud surasi, 61-oyat).

Hadisi sharifda esa bunday deyilgan:

Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasullulloh sollallohu alayhi va sallam: **“Agar biringizni qo‘lida xurmo ko‘chat turgan holatda**

(qiyomat) soati qoim bo'lib qiyomat bo'lguncha uni ekib olishga qodir bo'lsa, o'sha ishni qilsin", dedilar» (Imom Bazzor rivoyati).

3. U yerda buzg'unchilik va fasod ishlardan saqlanish. Yerda fasod va buzg'unchilik qilish kabira gunoh hisoblanadi. Alloh taolo Qur'oni karimda bundan qaytaradi:

"Va isloh qilingandan keyin yer yuzida fasod qilmang" (*A'rof surasi, 56-oyat*).

4. Yurtni himoya qilish. Vatanni himoya qilish, dushmanlardan asrash, ravnaqi va farovonligi yo'lida xizmat qilish har bir insonning muqaddas burchi. Vatan himoyasi yo'lida mijja qoqmay posbonlik qilgan kishini do'zax otashi ham kuydirmaydi.

Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan eshitdim: "Ikki ko'zni do'zax o'ti tutmaydi: Alloh-dan qo'rqib yig'lagan ko'z va Allohning yo'lida qo'riqlab tong ottirgan ko'z", dedilar» (Imom Termiziy rivoyati).

Shuni ta'kidlash kerakki, Vatan himoyasiga faqat harbiylar emas, balki yosh-u qari barcha birdek mas'ul. Himoya qilish deganda faqat qurol ko'tarib emas, ilm-u ma'rifat bilan, g'anim-



larga raddiya berish bilan vatanga tosh otuvchi ig'vogarlariga qarshi kurashish yo'llari bilan yurt-ni, millatni himoya qilish mumkin. Bu har bir yurt farzandining oliy vazifasi bo'lmog'i darkor.

Ajdodlardan ibrat

Yurtimiz dovrug'ini dunyoga taratgan buyuk ajdodlarimizdan biri Najmiddin Kubro haqiqiy Vatan himoyachisi qanday bo'lishining yorqin timsolidir. Zamonasining yirik allomasi, minglab muridlarning ustozlari sanalgan ushbu tariqat peshvosi mo'g'ullar bostirib kirganidan xabar topgach, birinchilardan bo'lib Vatan himoyasiga o'tlanadi. Mo'g'ul hukmdorlari Najmiddin Kubroning xalq orasidagi obro'-e'tiborini ko'rib, unga shaharni tashlab, o'zi ixtiyor qilgan tarafdagi ketishni taklif qiladi. Vatanni jonidan aziz bilgan Najmiddin Kubro bosqinchilarga qarshi jangga kiradi va tug' ko'tarib, lashkarni olg'a chorlab borayotgan holida shahid bo'ladi. U zot tug'ni shu qadar mahkam ushlagandiki, bayroqni olish uchun barmoqlarini kesishga majbur bo'lishadi.

XX asr boshlaridagi buyuk ma'rifatparvar, jaddid bobolarimiz – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla

Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabilarning milliy istiqlol yo'lidagi jasoratlari hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi. Tariximizda bunga o'xshash misollar juda ko'p.

Vatanga xiyonat – og'ir gunoh

Vatanni himoya qilish naqadar ulug' savob hisoblansa, unga xiyonat qilish shu qadar katta gunoh, eng oliy jazoga loyiq jinoyat hisoblana-di. Har bir inson o'z vatani, oilasi va xalqini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashi lozim. Aksincha, Vatanga xiyonat qilish, ota-onasi, farzandlari va xalqining qadriga yetmaslik, ularni o'ylamaslik yoki ularga qarshi qurol o'qtalish – shariatimizga ko'ra eng og'ir gunoh va qonunchilikka ko'ra mud-hish jinoyatdir. Bu narsa insoniylik mezoniga ham to'g'ri kelmaydi. Zero, inson o'z Vatanining ravnaqi uchun fidoyilik ko'rsatishi, bu yo'lda kerak bo'lsa, jonini ham fido qilishi lozim.



Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi asrda buzg'unchi g'oyalarni tarqatib, tinch yurtlarni vayron qilayotganlarning borligini hammamiz yaxshi bilamiz. Vataniga, xalqiga, oilasiga, kerak bo'lsa, ota-onasiga qarshi chiqayotgan, vatan-furushlik qilayotgan g'alamislarning borligi o'ta achinarli holdir. Ular qo'l urayotgan bunday razolatlar zahirida Vatan tushunchasini yaxshi anglab yetmaslik yotibdi.

Afsuski, vatan qadriga yetmagan ayrim kimsalar, go'yoki "hijrat qilish" degan soxta da'voni qilib, oilasi bag'rida tinchgina hayot kechirayotgan musulmonlarni o'zga yurtlarga chiqib ketishga da'vat qilmoqda. Ammo turli siyosiy kuchlarning qo'lida qo'g'irchoq bo'lgan go'l va johil vatangadolar dunyoning notinchlik hukm surayotgan va o'zlari qo'nim topgan mintaqalarga mutaassib kimsalarni bir joyga jamlab berish orqali rahnamolari rejalashtirgan manfur siyosiy o'yiniga xizmat qilmoqda xolos. Xususan, ular ilm-ma'rifatdan yiroq kimsalarni o'z atrofiga to'plashga intilib, Islom diyori bo'lgan, besh mahal azon aytiladigan, juma va hayit namozlari bimalol o'qiladigan, xullas, Islomning besh arkoni emin-erkin ado etilayot-

gan va tinchlik-xotirjamlikda hayot kechirayotgan vatanlarini tark etishga targʻib qilishmoqda.

Vatanga xiyonat, ota-onasi, farzandlari va xalqining qadriga yetmaslik, ularni oʻylamasdan vatanga qarshi qurol koʻtarishi – eng ogʻir gunoh va juda katta jinoyatdir!

Vatan uchun nima qildik?

Vatan biz uchun keng va ravon yoʻllarni barpo qildi. Kechalari qiynalmasligimiz uchun charogʻon chiroqlarni oʻrnatdi. Bolalarimizga odob, taʼlim-tarbiya berdi. Oʻqitdi, oʻrgatdi, kasb-hunarli qildi. Biz va farzandlarimiz uchun bogʻcha, maktab, oliygohlar, shifoxonalar, masjid-u madrasalar, yer, havo va suvda uzogʻimizni yaqin, yukimizni yengil qiluvchi vositalar hamda boshqa moddiy va maʼnaviy ehtiyojlarimizni qondirish uchun imkoniyatlar yaratib berdi. Bularning hammasini biz uchun barpo qildi. Bularning hammasi bizning xizmatimizda. Bularga javoban biz nima qildik?

Yurtingizga Xudo nazar qilgan...

Bir ulug' zotning ziyoratiga borgan kishi nasihat so'radi:

– Menga shunday nasihat qilingki, avvalo, o'zim amal qilay, qolaversa, yurtdoshlarimga ham aytib, yetkazay.

– Qaysi yurtdansiz?

– O'zbekistondan.

– Bo'lmasa, eshiting. Alloh taolo qaysi insonga rahmat nazari bilan qarasa, uni avliyolik maqomiga ko'tarib qo'yadi. Nazari ilohiyga sazovor bo'lgan kishi Allohning do'stiga aylanadi. Kun kelib o'sha avliyo olamdan o'tsa, rahmat nazari u bilan birga ketadi.

Ammo qarang, Alloh taolo qay bir yurtga rahmat nazari bilan qarasa, u to qiyomatgacha o'sha joydan ketmaydi. Alloh taolo sizlarning yurtingizga rahmat nazari bilan qaragan. Hali ham bo'lsa, o'qisa, o'rgansa, Buxoriy, Zamaxshariy, Marg'iloniydek zotlar chiqadi, albatta! Bunga shubha yo'q.

Alloh taolo aziz diyorimiz osmonini musaffo, vatanimiz tinchligini barqaror va xalqimiz hayotini bundan ham farovon aylasin.

***Aziz o'g'il-qizlarim!** Har bir inson dunyoga kelar ekan, unga bir tuyg'u hamroh va yo'ldosh bo'ladi. Bu ona-yurti va Vataniga muhabbat tuyg'usidir. Ana shu tuyg'u undan bir umr ajralmaydi. Mabodo u begona yurtlarga safar qilganida ham ko'p o'tmay o'z yurti va kindik qoni to'kilgan tuproqni sog'ina-di, o'zi tug'ilib o'sgan maskaniga talpinadi. Shuning uchun siz yoshlar bu tuyg'uning qadriga yeting, ona-Vatan va yurt ravnaqi yo'lida qo'ldan kelganicha xizmat qiling, ilm oling va olgan ilmingiz bilan yurt taraqqiyotiga hissa qo'shing. Sizlar ham ajdodlaringiz kabi vatanparvar va xalqparvar insonlar bo'lib yetishingki, kelajakda sizlarning nomingizni ham Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Ahmad Farg'oniy va Abu Muso Xorazmiy bobolarimiz kabi tug'ilgan joyi nomi bilan tilga olishsin.*



Islom terrorga qarshi

Tinchlik – dinimiz shiori

Islom – omonlik va xotirjamlik dini. Tinchlik – Islom dinining shiori, bosh g'oyasi. Uning ta'limoti bashariyatni tinchlikka chaqirish, yer yuzida osoyishta hayot o'rnatish, o'zaro mehr-muruvvatli bo'lishga chaqirishdan iborat. Zo'ravonlik, janjal, qotillik va buzg'unchiliklarning har qanday ko'rinishini qoralaydi hamda ulardan qaytaradi. Terror va din bir-biriga tubdan zid tushunchalardir. Terrorchilik zulm, qotillik, urushlar, odamlarning jabr-sitam ko'rishi va xo'rlanishini o'ziga maqsad qilib olgan. Bularning hammasi Qur'onda ulkan buzg'unchilik hisoblanadi.

Alloh taolo mo'minlarga tinchlik va adolat o'rnatishni, yaxshilik qilishni va odamlar orasini isloh etishni buyuradi. Alloh taolo zulm-zo'ravonlikni va yer yuzida buzg'unchilik qilishni taqiqlagan. Alloh taolo bunday marhamat qiladi: **“Allohga bergan ahd-paymonlarini mustahkam bo'lganidan keyin buzadigan, Alloh bog'lanishiga buyurgan narsalarni uzadigan va yer yuzida buzg'unchilik qilib yuradigan kimsalar ham borki, ular uchun (Allohning) la'nati bo'lur va ular uchun eng yomon diyor – jahannam bordir”** (*Ra'd surasi, 25-oyat*).

Sizlarga tinchlik bo'lsin!

Abdulloh ibn Amr roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam musulmon bandani ta'riflab: ***"Musulmon boshqa musulmonlarga tili bilan ham, qo'li bilan ham ozor yetkazmagan kishidir"***, dedilar (Imom Buxoriy rivoyati).

Shuning uchun ham musulmonlar o'zaro muomalalarini doimo bir-birlariga tinchlik tilash, ya'ni salomlashish bilan boshlaydilar. Alloh taolo bunday marhamat qiladi: ***"Sizlarga salom bo'lsin, Rabbingiz O'z zimmasiga rahmatni yozdi"*** (An'om surasi, 54-oyat).

Shuningdek, jannatning nomlaridan biri ***"Dorus-salom"*** (tinchlik diyori) deb nomlangan. Alloh taolo bunday marhamat qiladi: ***"Ularga Rabbilari huzurida dorus-salom (tinchlik uyi) bordir"*** (An'om surasi, 127-oyat); ***"Alloh (odamlarni) tinchlik diyori (jannat)ga chorlaydi va xohlagan kishini to'g'ri yo'lga hidoyat etadi"*** (Yunus surasi, 25-oyat).

Jannatda faqat tinchlik, xotirjamlik, salomatlik, rohat-farog'at, anvoyi noz-u ne'matlar bo'lib, unda o'lim, kasallik, uyqu va g'am-tashvish yo'q.

Tinchlik haqidagi oyatlar

Shuningdek, Qur'oni karimda tinchlik va xotirjamlik haqida yana boshqa ko'plab oyatlar mavjud:

“U (jannat)larga tinchlik, omonlik ila kiringlar (deyilur)” (*Hijr surasi, 46-oyat*);

“Bizdan (bo'lmish) salomatlik va senga va sen bilan birgalikdagi jamoalarga (atalgan) barakotlar bilan (kemadan yerga) tushgin!” (*Hud surasi, 48-oyat*);

“U bilan Alloh rizosini topishga intilganlarni (U) tinchlik va salomatlik yo'llariga yo'llab, O'z izni bilan ularni zulmatlardan nurga chiqarur va to'g'ri yo'lga hidoyat qilur” (*Moida surasi, 16-oyat*);

“ ... johil kimsalar (bema'ni) so'z qotganda «Salomatlik bo'lsin!» deb javob qiladigan kishilardir” (*Furqon surasi, 63-oyat*).

“(Ularga) rahmli Parvardigor (tomoni)dan salom (aytilur)” (*Yosin surasi, 58-oyat*);

“(Alloh yo'lida turli mashaqqatlarga) sabr qilib o'tganlaringiz sababli (endi bu yerda) sizlarga tinchlik bo'lgay” (*Ra'd surasi, 24-oyat*).

Bu oyatlar Islom – tinchlik, omonlik, xotirjamlik va sihat-salomatlik dini ekanining yaqqol isboti sanaladi.



Terrorning asl maqsadi

Alloh taolo rahm-shafqat va tinchlik-osoyishtalik, kamtarlik, adolat, hurmat va tinchlikka buyuradi. Terror esa buning aksidir. U o'z oldiga berahmlik, shafqatsizlik, zulm, qotillik va azob-kulfatlarni maqsad qilib qo'yadi. Eng achinarlisi, gunohi yo'q kishilar terrorning nishoni bo'lishadi. Terrorchilar nazdida ana shu odamlarning birdan-bir aybi ularning "boshqa tomonda" bo'lganlaridir.

Demak, terror begunoh odamlarga qarshi zo'ravonlikni anglatadi, uni ma'naviy jihatdan hech qachon oqlab bo'lmaydi. Hech qanday gunohi, aybi bo'lmagan odamni o'ldirish buzg'unchilikning eng ulkan ko'rinishi hisoblanadi. Alloh taolo Qur'oni karimda bunday ogohlantiradi: **"Kimki biron jonni o'ldirmagan va yerda buzg'unchilik qilib yurmagan odamni o'ldirsa, demak, go'yo barcha odamlarni o'ldiribdi va kimki unga hayot ato etsa (ya'ni o'ldirishdan bosh tortsa), demak, go'yo barcha odamlarga hayot beribdi"** (*Moida surasi, 32-oyat*).

"Boshqa birovni o'ldirmagan va buzg'unchilik qilmagan" odamni o'ldirgan kishi butun insoniyatni o'ldirishga teng ulkan gunohni qilgan bo'ladi.



Aziz o'g'il-qizlarim! Begunoh odamlarga qarshi qaratilgan har qanday ko'rinishdagi shafqatsizlik dinimizga mutlaqo zid. Hech bir musulmon hech qachon insonlarga qarshi jinoyatga qo'l urmaydi, aksincha, jinoyat rejasini qilayotgan, yer yuzida buzg'unchilik va yovuzlik tarqatayotganlar yo'lini to'sish, butun insoniyat tinchligi va xavfsizligi uchun barcha choralarni ko'rish har bir mo'minning burchidir. Buning ustiga dinimiz – Islom terror yo'lidagi to'siq va insoniyat uchun isnod bo'lgan bu holatni yer yuzidan yo'qotishning asosiy yo'lidir.





Qimor – ijtimoiy illat

Islom dini poklik, iffat, halollik kabi ulug' fazilatlarga chorlaydi. Shuning barobarida qimor, sudxo'rlik, ichkilik, zino va boshqa nopok ishlardan qaytaradi.

Alloh taolo insonlarga behisob ne'matlarini ato qilgan. Mol-dunyo ham ulug' ne'matlardan bo'lib, inson hayoti u bilan bardavom. Undan tashqari mol-dunyo bandaga berilgan omonat ekanini unutmaylik. Kimda-kim topayotgan mol-dunyosiga e'tiborli bo'lib, uni o'z joyiga sarflasa, shunda ne'matga shukr keltirgan va omonatga vafo qilgan bo'ladi. Aksincha, inson noshukr va xiyonatkorga aylanib qoladi.

Ziynat bo'ling!

“Mol-mulk, bola-chaqa hayoti dunyo ziynatidir” (*Kahf surasi, 46-oyat*).

“Va bilingki, mollaringiz va farzandlaringiz fitnadan o'zga narsa emas va, albatta, Allohning huzurida ulug' ajr bordir” (*Anfol surasi, 28-oyat*). Mazkur ikki oyati karima zohiran o'zaro zidga o'xshab ko'rinsa-da, aslida bir-birini to'ldiradi. Birinchi oyatga ko'ra, kim molini haloldan topib, uni halolga sarflasa va farzandlarini chiroyli



tarbiyalasa, mana shu mol-davlati-yu farzandlari nafaqat dunyo hayoti, balki oxirat hayoti uchun ham ziynat bo'ladi. Ikkinchi oyatga ko'ra, kimning topayotgan mol-davlati haromdan bo'lsa, farzandlariga chiroyli tarbiya bermasa, mana shu mol-davlat va farzandlar dunyo hayotida fitna, oxiratda esa oyog'iga tushov bo'ladi.

Shayton tuzog'idan ehtiyot bo'ling!

Ming afsuski, keyingi paytlarda ijtimoiy illatlardan biri – qimor o'yinlari ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalmoqda. "Qimor" so'zi lug'atda xatarli degan ma'noni anglatadi. Istilohda esa kamida ikki tomondan biriga xatar keltiradigan muomalaga "qimor" deyiladi. Shunga ko'ra, nomi o'zgarsada ushbu ta'rifga tushgan har qanday o'yin turi qimor hisoblanadi. Qimor o'yinlari shar'an harom, qonunan jinoyat sanaladi. Qimor Kitob, sunnat va ummat ijmosiga ko'ra harom deb hukm qilingan. Qimordan topilgan molni yeyish sudxo'rlik bilan topilgan molni yeyishdan ham og'ir. Chunki qimorboz shariatda harom qilingan ikki gunohi azimga qo'l uradi. Harom o'yin o'ynaydi va o'yinda yutib

olgan harom molni o'zlashtiradi. Qimor o'yini sudxo'rlikdan oldin harom qilingan.

Tush ta'biriga mahoratli ulamolar qimorning yomonligini quyidagicha izohlaydilar. Qimor shu darajada jirkanch ishki, uni uyg'oq paytida o'ynash u yoqda tursin, hatto tushda ko'rish yomonlik va xusumat belgisi hisoblanadi.

Qimor yomonliklar onasidir

Qimorning juda ko'p zararlarini sanab o'tish mumkin. Quyida uning eng asosiy diniy-axloqiy, ijtimoiy, tibbiy va iqtisodiy zararlarini o'rganamiz.

Diniy-axloqiy zarari. Qimorboz jamiyatdagi odob-axloq me'yorlariga amal qilmaydi. Chunki uning nazdida ma'naviy boylik hisoblangan axloqning zig'irchalik ahamiyati bo'lmaydi. Moddiy foyda va unga erishishni qimorboz birinchi o'ringa qo'yadi. U bu yo'lda har qanday narsaga tayyor turadi. Faqihlar qimor o'ynaydigan kishining adolati soqit bo'lib, guvohligi qabul qilinmaydi, deydilar.

Ijtimoiy zarari. Qimor katta gunoh, og'ir jinoyatlardan biri hisoblanadi. Chunki uning ortida yana ko'plab gunohlar qatorlashgan. Qimor insonni



ko'plab jinoyatlar sari undaydi. Ayniqsa, yutqazgan vaqtda o'g'irlik, aldov, firibgarlik, tovlamachilik va boshqa qator jinoyatlardan tap tortmaydi. Qimor-boz uchun eng qadrli narsa qimor hisoblanadi. Uning nazdida oila degan tushunchalar bo'lmaydi. O'zi yashab turgan uyni bo'lsa ham qimorga tikib yuboradi. Eng dahshatlisi, u nikohidagi ayolini qimorga tikishdan ham toymaydi. Natijada hayoti zulmatga aylanadi. Obro'sini yo'qotadi, o'zini xor qilgani qoladi. Qimorning diniy-axloqiy va ijtimoiy zararlari quyidagi oyatda bayon qilingan:

“Ey iymon keltirganlar! Albatta, xamr, qimor, butlar va (fol ochadigan) cho'plar iflosdir. Shaytonning ishidir. Bas, undan chetda bo'ling. Shoyadki, najot topsangiz. Albatta, shayton xamr va qimor tufayli oralaringizga adovat va yomon ko'rishlikni solishni hamda sizlarni Allohning zikridan va namozdan to'sishni xohlaydi. Endi to'xtarsizlar?!” (*Moida surasi, 90–91-oyatlar*).

Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: ***“Agar sen Alloh taoloni “Ey iymon keltirganlar!” degan so'zini eshitsang, bas, unga quloq tut. Chunki u buyurilgan yax-***

***shilik yoki qaytarilgan yomonlik bo'ladi"* (Imom Bayhaqiy rivoyati).**

Oyati karimada Alloh taolo bu ikki narsa – xamr va qimorni “ifloslik va shaytonning ishi” deb atamoqda. Haq taolo O'z bandalariga mehribon bo'lgani uchun ularni ifloslik va shayton ishidan qaytaradi. Zararli bo'lgani uchun nopok taomlarni harom qilganidek, iflos ishlarni ham harom qilgan.

Tibbiy zarari. Tibbiyot olimlarining aytishicha, qimor o'ynaydigan insonlar og'ir turdagi kasalliklarga muhtalo bo'ladilar. Jumladan, doimiy asabiylik, shizofreniya (og'ir ruhiy kasallik), umidsizlik, haddan tashqari vahima, aql ketishi (majnunlik) kabi qator holatlar. Bundan tashqari, qimor o'ynash surunkali og'ir kasalliklar, ba'zan o'z joniga qasd qilishgacha olib boradi.

Iqtisodiy zarari. Qimorga odatlangan inson peshona teri bilan halol kasb qilish va hayotdagi joriy bo'lib turgan qonun-qoida va qadriyatlarini hurmat qilmaydi. Qimor insonni tasodif, omad va quruq hoy-u havaslarga tobe qilib, hayotga yengil qaraydigan qilib qo'yadi. Hozirgi zamon iqtisodchilari nazdida qimor o'yinlari “iqtisodiy inqiroz” hisoblanadi.



“Ey imon keltirganlar! Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo‘l bilan yemanglar. Magar o‘zaro rozilik ila tijorat bo‘lsa, mayli. O‘zingizni o‘zingiz o‘ldirmang. Albatta, Alloh sizlarga rahmlidir” (*Niso surasi, 29-oyat*).

Alloh taolo botil yo‘l bilan mol-dunyo va rizq topishning har qanday turidan qaytarmoqda. Birovning molini botil yo‘l bilan yeyishga ribo, qimor, poraxo‘rlik, aldamchilik, narxni sun‘iy ravishda ko‘tarish, o‘g‘rilik, qimorbozlik, tovlamachilik, qarzga olgan mollarni qaytarib bermaslik va boshqalar kiradi. Mazkur oyati karima tafsirida bir hikoya keltiriladi. Xattotlardan biri aytadi: “Men Qur’oni karimdan oltmish marta nusxa ko‘chirdim. Mushafni ko‘chirar ekanman, bir ajib holatga guvoh bo‘ldim. Yozayotgan oyatlarimga pashshalar qo‘nib, uning siyohidan ichardi. Bu deyarli Mushafning butun sahifalarida kuzatilgan. Lekin Qur’ondagi bir oyatga hatto pashshalar yaqinlashmas edi. U Niso surasining 29-oyati”.

Bu ibratli voqeani eshitgach, nopok yo‘llar orqali pul topayotgan ba’zi shaxslarni ko‘rib, nahotki ularni pashshachalik himmati bo‘lmasa, deb yuborasiz.

Hadisi sharifda har bir kasallikning shifosi borligi aytilgan. Demak, kim kasal bo'lsa, uning shifosini izlashi lozim. Bu ishda beparvolik va dangasalik yaramaydi. Shorihlar hadisda moddiy-jismoniy kasalliklar nazarda tutilgan bo'lsa-da, ijtimoiy kasalliklar ham ushbu ma'no zimniga kiradi, deydilar. Jismoniy kasalliklarni tabiblar davolasa, ijtimoiy kasalliklarni ummat tabiblari bo'lgan ulamolar davolaydi. Qimor ham bir kasallik. Bu xastalikka chalingan kishiga davo choralari-ni izlash tavsiya qilinadi. Xulosa esa o'zingizdan.

Ne'matlardan so'ralasiz

Abu Barza Aslamiydan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: ***“Qiyomat kuni bandaning qadami to umrini nimada o'tkazgani, ilmida nimalarga amal qilgani, molini qayerdan topib, qayerga sarflagani, jismini nimada qaritgani haqida so'ralmagunicha joyidan aslo jilmaydi”***, dedilar» (Imom Termiziy rivoyati).

Hadisi sharifda aytilganidek, har bir kishi qiyomatda hisobga tortiladi. Bunga iymon keltirganimiz. Bu imtihon faqat payg'ambarlarga bo'lmaydi.

Shunday ekan, ushbu imtihonga doimo tayyorgarlik ko'rib borishimiz darkor.

“Umrini nimada o'tkazgani haqida so'raladi”. Umr insonga berilgan eng katta boylik, eng aziz ne'mat hisoblanadi. Har bir kishi undan oqilona foydalanishi kerak. Umrni bekorchi ishlarga sarflash, uni isrof qilish yaramaydi. Umrning har bir lahzasi qadrli va hisoblidir. Sa'diy rahmatullohi alayh bu haqiqatni bir go'zal o'xshatish bilan tushuntirib berganlar:

*Umr o'xshaydi misoli qorga,
Erib ketayotgan quyosh taftida.
Tugab boradi u bir zum ham turmay,
Hamon bu qor sohibi o'yin-kulguda.*

Qimor o'yinlarida vaqt bekorga sarflanadi. Dastlab mo'may daromad topish maqsadida qimor o'ynaganida yutqazib, bo'ynidan qarzga botgan kishi kunlab, haftalab, oylab va hatto yillab behuda sovrilgan vaqt natijasida o'zi uchun qadrli ne'matni yo'qotadi.

“Ilmida nimalarga amal qilgani haqida so'raladi”. Qimorning harom ekanini bilmagan odam bo'lmasa kerak. ***“Molini qayerdan topib, qayerga sarflagani haqida so'raladi”.***

E'tibor bering, mana shu joyga kelganda savol ikkita bo'lib qoldi. Qiyomatda pulni qayerdan topgansan va qayerga sarflagansan, deyiladi. Shuning uchun mol-davlatni haloldan topib, halolga sarflashimiz lozim. Islom dinida insonlar halol mehnat orqali pul topishga buyurilgan. Birovni aldab, xiyonat va muttahamlik bilan uning mulkiga ega bo'lish haromdir. Qimor esa aynan shunday yo'l bilan pul topishdir.

“Jismini nimada qaritgani haqida so'raladi”:
Tana va undagi a'zolar omonat. Ularning sog'ligiga mas'ulmiz. Bundan ham bir kun hisob beramiz. Yuqorida qimorning inson sog'ligi va hayotiga naqadar katta xavf solishini o'rgandik.

Alloh taolo barchamizni O'zi rozi bo'ladigan ishlarga muvaffaq aylab, ikki dunyo saodatini nasib qilsin!



Aziz o'g'il-qizlarim! Qo'lingizdagi mol-davlat Alloh taoloning sizlarga bergan ne'mati va omonatidir. Ne'matini qadrlab, shukrona keltiring. Omonatligini his qilib, xiyonat qilmang. Mehnat va mashaqqat ila topayotgan molingizda halollikka e'tibor qiling. Shubha va harom narsalardan juda ham ehtiyot bo'ling. Mol-davlatni o'zingiz, oilangiz, yaqinlaringiz va yurtingiz ravnaqi yo'lida xayrli ishlarga sarflang.



G'uluvga ketish fitnadir

Tarixda juda ko'p insonlar yashab o'tgan. Shular orasida oxirzamon ummatini Alloh taolo xoslab, bir qancha fazilatlar bilan siyladi. O'sha fazilatlardan biri bu ummatning o'rta va mo'tadil ummat ekanidir. Qachonki mo'tadillik qo'ldan chiqar ekan, bu holat insonni halokat sari yetaklaydi. Ahli ilmlar zimmasida insonlarni yaxshilikka yetaklash vazifasi bo'lgani kabi yomonlikdan qaytarish mas'uliyati ham bor. Alloh taolo marhamat qiladi:

“Odamlar uchun chiqarilgan eng yaxshi ummat bo'ldingiz. Ma'rufga buyurasiz va munkardan qaytarasiz...” (*Oli Imron surasi, 110-oyat*).

“Ma'rufga buyurasiz...” bu ummatni eng yaxshi ummat qilgan birinchi sababdir. Musulmon kishi avvalo o'ziga, qolaversa, boshqalarga ham yaxshiliklarni ilinadi va buni o'ziga farz deb biladi.

“...va munkardan qaytarasiz...” Musulmon, avvalo, o'zi, qolaversa, boshqalarni yomonlikdan qaytaradi va buni o'ziga farz deb biladi.

Ayniqsa, yoshlar o'rtasida g'uluv ketish holatlari keyingi vaqtlarda kuzatilmoqda. Bu illatdan qaytarish va ogohlantirish ahli ilmlar vazifasidir.

Alloh taolo bizlarni mo'tadil ummat qilib qo'ydi.
Alloh taolo bunday marhamat qiladi:

“Ana shunday qilib, odamlar ustidan guvoh bo'lishingiz va Rasul ustringizdan guvoh bo'lishi uchun sizlarni o'rta ummat qildik” (*Baqara surasi, 143-oyat*).

Alloh taolo ushbu oyati karimada musulmonlarni o'rta ummat qilganini e'lon qilmoqda. “Vasat” so'zi “yaxshi”, “o'rta”, “markaz” va “adolatli” degan ma'nolarni anglatadi. Demak, vasatiylik, mo'tadillik xayr-barakaga sabab bo'ladi. Buni yaxshi anglab, unga amal qilishimiz lozim.

Qarangki, vasatiylikka chaqirgan ushbu oyati karima Qur'oni karimdagi Baqara surasida kelgan. Ushbu holat bir tomondan e'tiborimizni o'ziga tortsa, yana boshqa tomondan Alloh taolo haqiqatda bu ummatni mo'tadil qilganiga ishoradek. “Vasat” so'zi ikki tarafning o'rtasi ma'nosidadir. Bir narsaning vasati uning eng yaxshisidir. Shuningdek, “vasat” so'zi adolat, fazilat va yaxshilikka nisbatan ham qo'llangan.

Vasatiylikning ikki ma'nosi bor:

- adolat va yaxshilik. Adolat deganda insofli bo'lish va zulm qilmaslik tushuniladi;
- ishlarda haddan oshish va nuqsonga yo'l



qo'yish o'rtasidagi me'yorni ushlash, ya'ni mo'tadil va o'rtamiyona bo'lish nazarda tutiladi.

Shuni yaxshi bilib olishimiz kerakki, keyingi vaqtlarda vasatiylikka noto'g'ri ta'riflar ham berilmoqda. Bunday ta'riflar amalda turgan mazhablarni bir-biriga qorishtirib, ulardan yengil bo'lgan hukmni olishga nisbatan qo'llanmoqda. Ulamolar bu narsadan ummatni ogohlantirmoqda. Bundayin qo'shtirnoq ichidagi vasatiylikni vasatiylik emas, "talfiq"¹ deb atash to'g'ri bo'ladi.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: ***"Darhaqiqat, bu din yengildir. Biror kishi dinni qiyinlashtirsa, uni mag'lub qiladi. Shunday ekan, to'g'ri bo'ling, yaqinlashing, bashorat bering, yengillashtiring va ertalab, zavoldan keyin hamda tunning bir qismida (ibodat) bilan yordam so'ranglar"***, dedilar» (Imom Nasoiy rivoyati).

"...diningizda haddan oshmang..." (Niso surasi, 171-oyat).

¹ Talfiq – ijtihod darajasiga yetmay, to'rt mazhabdan nafsiga muvofiq fatvoni olishdir. Talfiq bilan shug'ullanuvchi insonni "mulaffiq" deyiladi. To'rt mazhab faqihlari talfiqni harom deganlar. To'liq ma'lumot olish uchun ushbu mavzu haqida yozilgan maqolalarga qaralsin.

Mana bu oyati karimada Alloh taolo bizlarni dinda gʻuluv ketishdan qaytarmoqda.

“Tafsiri Qurtubiy”da oyati karima haqida bunday deyilgan: “Gʻuluv – bir ishni odatdagidan ziyoda yoki nuqsonga yetkazib haddan oshishga aytiladi. Gʻuluv ikki xil boʻladi: haddan oshish va kamchilikka yoʻl qoʻyish. Har ikkisida ham haddan oshish bor. Dinda gʻuluv ketish asosan ikki xil boʻladi: eʼtiqoddagi gʻuluv va amaldagi gʻuluv. Dinimizda ham har ikkisidan qaytarilgan.

Gʻuluvga ketish halokatga olib boradi

Ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilina-di: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: ***“Aqaba tongida tuyalarini mingan holda menga tosh terib ber”, dedilar. Keyin men u zotga yettita tosh terib berdim. Ular mayda toshlar edi. Kaftlarida toshlarning changini yetkazib, soʻng: “Mana bularga oʻxshashlarini otinglar”, dedilar. Soʻngra: “Hoy insonlar! Dinda gʻuluv ketishdan saqlaninglar. Zero, sizlardan oldingilarni dinda gʻuluv ketish halok qildi”, dedilar***» (Imom Ibn Moja rivoyati).



Haqiqatda gʻuluvning oxiri halokat bilan xotima topadi. Bunga tarixda ham, hozirgi kunimizda ham juda koʻplab misollar mavjud. Eng yomoni, eʼtiqodda gʻuluvga ketishdir. Bunga xavorij, moʻtazila va murjia kabi toifalarni misol keltirish mumkin. Eʼtiqodiy gʻuluvga ketgan toifalar Rasullulloh sollallohu alayhi va sallamning davrlarida boʻlmagan boʻlsalar ham, ularning chiqishlari haqida juda koʻp hadislar mavjud.

Amaldagi gʻuluvga kelsak, bu ham yomon. Amaliy gʻuluvga juda koʻp misollar mavjud. Jumladan, Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Uch kishilik guruh Nabiy sollallohu alayhi va sallamning zavjalarining uylariga u zotning ibodatlari haqida soʻrab keldi. Bas, ularga xabar berilganida, xuddi u (ibodat)ni oz sanaganday boʻldilar. Shunda ular: “Biz qayoqda-yu, Nabiy sollallohu alayhi va sallam qayoqdalar, u zotning oldingi-yu keyingi gunohlari magʻfirat qilingan”, dedilar. Ulardan biri: “Men umrbod tunlarni namoz oʻqish bilan oʻtkazaman”, dedi. Boshqasi esa: “Men umrbod roʻza tutaman, ogʻzim ochiq yurmayman”, dedi. Yana boshqa biri: “Men ayollardan chetda boʻlaman, abadul-abad uylanmayman”, dedi. Bu

gap Rasululloh sollallohu alayhi va sallamga yetgach, Allohga hamd-u sano aytdilar, so'ng: ***“Odamlarga nima bo'ldiki, mana bundoq demoqdalar.., lekin men namoz ham o'qiyman, uxlayman ham, ro'za ham tutaman, og'zim ochiq ham bo'ladi va ayollarga uylanaman ham. Bas, kim mening sunnatimdan yuz o'girsas, mendan emas”***, dedilar» (Imom Buxoriy rivoyati).

Shayton insonni to'g'ri yo'ldan ozdirish uchun turli hiyla-nayranglar qo'llaydi. Uning yo'liga tuzoq qo'yib, zalolat botqog'iga yetaklaydi. Shayton insonni ko'proq ikki xil yo'l bilan vasvasa qilib, g'uluvga ketkazadi. Shu yo'lning qay biriga yursa, u inson shayton tuzog'iga tushadi. Agar musulmon kishi zaiflashib qolsa, uni chalg'itish uchun gunoh amallarni ziynatlab, chiroyli ko'rsatadi. Natijada bunday kishi gunohlarga muhtalo bo'lib, toatibodatlardan uzoqlashib ketaveradi. Oxiri halokatga duchor bo'ladi.

Agar mo'min kishi kuchli va g'ayratli bo'lsa, shayton uning amallarini ko'ziga oz qilib ko'rsatadi. Uni yanada ko'proq amal qilishga va nafsini isloh qilishga chorlaydi. “Mana shu ishing seni komillikka yetaklaydi” deb uning qalbiga g'ul'ula



soladi. Bir kun, bir hafta, bir oy o'tganidan keyin bu inson qilayotgan amallaridan malollana boshlaydi. Avval ibodatlardan xushu-xuzu qochadi, keyin esa dangasalik va uzilish yuzaga keladi. Oxiri amaldan to'xtab qoladi.

Botil e'tiqod g'uluvdir

Aqidasi buzuq kishilar ijtimoiy tarmoqlarda "shahidlik", "jihod", "hijrat", "takfir", "xalifalik" kabi tushunchalarni buzib talqin qilishmoqda. Ayrim yoshlar ularning tuzoqlariga ilinib qolayotgani achinarli hol, albatta.

Shu o'rinda mashhur olim Muhammad Said Ramazon Butiy rahmatullohi alayhning bu xususda aytgan so'zlarini keltirish maqsadga muvofiq: *"Ular bir vaqtning o'zida biror aybi yo'q musulmonlarni kechasi bo'g'izlab ketishni "shariat ruxsat bergan ish" deydilar. Ular oddiy yo'lovchilar to'la samolyotni ichidagi aybsiz insonlar bilan qo'shib portlatib yuborishni ham "shariatda bor ish" deydilar. Har kim ko'zlarini yumib, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bugun oramizda yuribdilar, deb xayol qilsin. Ul zot shunday razil ishlarga rozi bo'larmidilar?"*



Muqaddas dinimiz begunoh insonni qo'rqitish, uning moli va joniga qasd qilishdan qaytaradi va bunday qabihlikni katta gunoh deb baholaydi. Islom dini va uning vakillari inson tugul hatto chumoliga ham ozor berishdan o'zini ehtiyot qiladi. Bunday razolatni qilayotganlar din nomidan qancha gapirmasin, ularning da'volari soxta ekani hammaga fosh bo'lib ulgurdi.

Bugungi kunda bo'layotgan to's-to'polonlar, urush-janjallar, begunoh insonlar moliga, joniga bo'layotgan tajovuzlar, obod joylarning vayron qilinishi, hamma yoqqa fitna-fasod urug'lari sochilishi, gunoh va jinoyatlar ko'payib borayotgani zamirida aqidaning buzilishi turadi. Avvalo, aqida va adashish so'zlarini biroz tahlil qilib olaylik.

"Aqida" bir narsani mahkam tugun qilib bog'lash ma'nosini anglatadi. Shunga ko'ra, e'tiqod qo'yish lozim bo'lgan narsalarni qalbgah mahkam tugib qo'yishdir. "Adashish" arab tilida "zalolat" deyiladi. "Zalolat" yo'lni yo'qotish ma'nosini beradi. Aqidada adashgan dunyo va oxiratning saodat yo'lini yo'qotgan kishidir. Bu juda katta xatardir. Yo'lida adashgan kishini birov to'g'ri yo'lga solib qo'yishi mumkin. Lekin aqidada adashgan inson-

ni dunyo ahli yig'ilib kelgan taqdirda ham yo'lga solish dushvordir.

Shuning uchun banda Alloh taolodan doimo hidoyatga yo'llashini so'rab duo qilmog'i farzdir. Har ishda bo'lganidek, bu borada Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam bizlarga namunadir. U zot doim Alloh taolodan hidoyat so'rab duo qilardilar. Anas roziyallohu anhuning rivoyatida hidoyat so'rash duosini sahobalarga ham ta'lim berganlari aytilgan.

Duoning ma'nosi: *“Ey Allohim, hidoyat qilgan bandalaring qatorida bizni ham hidoyat qilgin”.*

Hidoyatda yurish – ulug' amal. Shuning uchun banda bu ishda doimo Alloh taolodan madad so'rashi lozim. Fiqh kitoblarida namozxon namozida Fotiha surasini o'qishi vojib deyiladi. Buning hikmati nimada? Ulamolar Fotiha surasida **“Bizni to'g'ri yo'lga yo'llagin”** duosi bor, deb javob beradilar.

Shariatlar zamon va makonga qarab o'zgaradi. Aqida esa o'zgarmaydi. Odam alayhissalomdan to qiyomatga qadar barcha mo'minlar bir aqidada yashab o'tmoqlari lozim.

Amallar e'tiqod ustiga quriladi. Agar e'tiqod buzilsa, amallar habata – bekor bo'ladi. E'tiqodsiz

yoki e'tiqodi buzuv inson shaytonning do'sti va yaqin hamrohidir. Uning amallari sarob, shamol kabi uchib ketadi.

*Aqida bilmagan shaytona eldir,
Agar ming yil amal qilsa, eldir.*

Bugungi global zamonda internet tarmoqlari orqali turli yot g'oyalar va buzuv aqidalar targ'ib qilib kelinmoqda. Bu kabi holatlar katta-katta fitnalarga sabab bo'layotir. Zamona ulamlari ularning fitna va xatarlaridan odamlarni, ayniqsa, yoshlarni ogoh etadilar.



Aziz o'g'il-qizlarim! Har bir inson hayotida e'tiqod masalasi juda muhim o'rin tutadi. Hatto solih amallarni to'g'ri va qabul bo'lishi e'tiqod bilan bog'liq. Keyingi paytlarda e'tiqodda adashgan toifalar paydo bo'lib, sof e'tiqodli insonlarni, xususan, yoshlarni to'g'ri yo'ldan adashtirishga urinmoqdalar. Ular turli vositalar orqali o'zlari-ning buzuvchi aqidalarini singdirishga urinadilar. O'zingizni va yaqinlaringizni ularning xatarli tuzoqlaridan ehtiyot qiling. Buning eng oson yo'li turli buzuvchi aqidalardan himoya etuvchi qalqon – moturidiya ta'limotiga og'ishmay amal qilishinigizdir.





Fitna – ko‘z
ilg‘amas xatar



Fitna – ijtimoiy illat

Fitna shunday bir illatki, u urchigan vaqt aqllar shoshib, hayratda qoladi, qalblar esa o'lad. Barcha ishlar boshi berk ko'chaga kirib qoladi. Hayotdan xotirjamlik, ibodatlardan halovat ketib, uning o'rnini bezovtalik, notinchlik, vahima, iztirob va qo'rqinch egallaydi. Fitna bir shamolki, kichik uchqunni ham katta alangaga aylantiradi. Qarshisida uchragan hamma narsani kuydirib, kul qiladi. Fitna ko'z ilg'amas xatarki, tabassumni g'azabga, shodlikni qayg'uga, adolatni qabohatga, vafoni xiyonatga aylantiradigan, qo'yingki, barcha razolatlarni qanoti ostiga olgan illatdir. Fitna insonning eng nozik va samimiy tuyg'ulari bilan o'ynashadigan shaytoniy bir ishdiki, unga yo'liqqan kishini o'z domiga tortib, ijobat qilganlarni esa hayvondan ham past darajaga tushirib yuboradi. Fitnalar shunday hodisaki, u paydo bo'lganda har tarafdin qora bulutlar yopirilib keladi. Hammayoqni egallab olgan zulmat haqiqat ustiga parda tortadi. Insonlar shubha ichida qoladi. Natijada shaxs va jamiyat qarshisida juda katta muammo paydo bo'ladi. Fitna bir jumboqki, inson uni yechish uchun javob izlaydi. Bu qanday sodir

bo'ldi, nima qilmoq kerak, yechim nimada, to'g'ri yo'l qaysi tomonda, kimdan maslahat so'rash kerak degan savollarga javob axtaradi. Javob topilsa – topildi, bo'lmasa, fitna girdobida qolib, uning qurboniga aylanadi. Ushbu risola ana o'sha jumboqli savollarga javob bo'lsa, ajab emas.

Ma'lumki, fitna bir zamon yoki bir makonga xos emas. U turli ko'rinishlarda to davri qiyomatgacha davom etadi. Fitnalar urchigan, fasod ishlar tomir otgan davrda yashayapmiz desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Bu kabi holatlarda har bir inson sergak va ogoh bo'lishi lozim. Balolar kelmasidan oldin tayyorgarlik ko'ring deyilganidek, hushyorlikni bir zum qo'ldan chiqarmaslik kerak. Fitna hadislarida kelganidek, sodir bo'lishi aniq narsadir. Shuningdek, muqaddas dinimizda uning yechimi nimada ekani ham aytib qo'yilgan. Oqil kishi boshiga musibat tushsa, uni bartaraf qilish harakatida bo'ladi. Ahmoq odam esa bitta musibatni ikkita qilib oladi.

“Fitna” so'zi yana biror narsadan hayratlanib, ajablanishga nisbatan ham qo'llaniladi. Demak, fitna imtihon ma'nosida kelsa – ijobiy, fasodga olib boruvchi, ajablanish ma'nosida kelsa – salbiy



ma'noga dalolat qiladi. Lug'atshunos olimlar fitnaning bir qancha ma'nosi borligini aytganlar.

Jurjoni rahmatullohi alayh aytadi: "Fitna insonni yaxshi va yomon holatini bayon qiladigan narsadir". Ibn Hajar rahmatullohi alayh aytadi: "Fitna haq va botil bilinmaydigan darajada mulk talabida ixtilof qilishdan paydo bo'ladigan narsadir". Azhariy rahmatullohi alayh: "Fitna sinash, imtihon qilish ma'nolarini beradi". Munoviy rahmatullohi alayh: "Fitna bir ofat bo'lib, botiniy ishlarni yuzaga chiqaradigan muomaladir".

"Fitna" so'zining istilohdagi ta'rifi esa lug'atdagi kabi ko'p ma'nolarni bildiradi. Olimlar tomonidan aytilgan istilohlarni bir joyga jamlaydigan bo'lsak, quyidagi ta'rif kelib chiqadi: "Fitna salbiy va ijobiy ma'nolarga ega so'z bo'lib, ijobiy ma'noda kelsa, imtihon qilish, salbiy ma'noda kelganida fasod va ajablanish ma'nolarida qo'llaniladigan ijtimoiy illatdir".

Qur'oni karim oyatlarida "fitna" so'zi bir qancha ma'nolarda keladi. Bu so'z muborak kalomning turli oyatlarida shirk, kufr, gunoh, azob, sinov, qotillik, to'g'ri yo'ldan to'sish, zalolat, uzr, g'aflat kabi ma'nolarda uchraydi.

Shuni yaxshi bilib olishimiz kerakki, Qur'oni

karim oyatlari va hadisi shariflarda Alloh taologa nisbati berilgan fitna soʻzi bandalarni sinash, imtihon qilish maʼnosida keladi. Moʼmin kishining mol-davlati, bola-chaqasi, mansabi va nasl-nasabini deb fitnaga uchrashi ajablanish maʼnosidadir. Yomonlik, qotillik, fasod va adovatga sabab boʻladigan fitna boshqa maʼnoda kelib, Rasullulloh sollallohu alayhi va sallam bizlarni ogohlantirgan koʻrinishi ayni shu qismidir. Hofiz ibn Hajar rahmatullohi alayh bu haqda quyidagilarni aytgan: “Fitna soʻzi qaysi maʼnoda kelayotgani ishora va gapning ulovidan bilinadi”.

Fitna qotillikdan yomondir!

Katta gunohlarni kabira nomi bilan berilsa-da, darajada bir-biridan farq qiladi. Ularni keltirib chiqaradigan zararga qarab ajratiladi.

Fitna eng katta va eng ogʻir gunohlar sirasiga kiradi. Nima uchun bunday? Savolning javobi quyidagicha: masalan, qotillik ogʻir gunohligini yaxshi bilamiz. Lekin fitna undan-da ogʻirroq. Qotillik bir kishi boshqa kishining joniga qasd qilishi bilan amalga oshadi. Fitna esa jamiyat va undagi shaxslarning jonlariga qasd qilish demak-



dir. Qotillikda bir kishining hayotiga zomin bo'lsa, fitna sababidan butun jamiyat hayotida notinchlik ro'y beradi. Shuning uchun ham fitna qotillikdan yomonroq va ashaddiyroq, deyilgan.

“Fitna qotillikdan ham yomondir” (*Baqara surasi, 191-oyat*).

Boshqa oyati karimada esa bunday deyilgan:

“Fitna qotillikdan ham og'ir gunohdir” (*Baqara surasi, 217-oyat*).

Mufasssirlar aytadi: “Bu oyatlar garchi boshqalar haqida nozil qilingan bo'lsa-da, barcha musulmonlarga tegishli bo'laveradi. Chunki Rasululloh sollallohu alayhi va sallam fitnadan ogohlantirganlar”.

Fitnachi xizmatkor

(Rivoyat)

Bir vaqtlar savdo bilan shug'ullanadigan tijoratchi kishi bo'lgan edi. U odamlar orasida o'ziga yarasha obro'-e'tibor qozonib, to'q-farovon hayot kechirardi. Bir kuni uy ishlari uchun xizmatkor qul sotib olmoqchi bo'lib bozorga boradi. Yo'lda ketarkan, sotib oladigan xizmatkor yosh va baquvvat bo'lsa yaxshi bo'lardi, degan fikr xayolidan



o'tdi. Qul bozorini aylanarkan, birdan xayolida o'ylagandek yosh va alpqomat yigitga ko'zi tushdi. Uning oldiga borib, yana bir karra xizmatkorga nazar tashlab, egasidan narxini so'radi. Egasi arzimagan pulni aytdi. Savdogar hayron bo'lib: "Nima uchun uning narxi buncha arzon?" deb so'radi. "Unda narxni tushiradigan jiddiy aybi bor", dedi sotuvchi. Savdogar qanday aybi borligiga qiziqdi. Egasi "Mol sotsang, aybini ayt" deganlaridek, "Uning fitna va gap tashiydigan odati bor", dedi. Xaridor bu jiddiy aybga unchalik e'tibor bermay, sotib olishga qaror qildi. Ichida bu ayblarni ishga aloqasi yo'q, xizmat qilsa bo'ldi-da, menga boshqa narsa kerak emas, deb o'yladi. Tojir mana shu vaqt katta baloni sotib olayotganini bilmasdi. Qulni sotib oldi va uyiga olib keldi. Bir necha yumushlarni buyurib, darhol ishga kirishishni unga tayinladi. Qulni ko'rgan zavjasi o'zida yo'q xursand bo'lib ketdi. Qanday ham ajoyib hadya! Ayolga ham endi yengillik bo'ladigan bo'ldi. Chunki xizmatkor uy ishlarini bajarib, uning og'irini yengil qilardi. Kunlar o'ta boshladi. Qulga ham yaxshi bo'ldi, yumushlar ham unchalik ko'p emas. Egrini go'r o'nglaydi deganlaridek, xizmatkor eski odatini boshladi.

Kunlarning birida u xojaning ayoli oldiga borib,



uni gapga tutib, ko'ngliga g'ulg'ula soldi. Unga qarab, xojasi ayolni yoqtirmay qolgani, ko'ngli boshqa ayolda ekanini aytib qoldi. Gapni bo'rttirib, yolg'onlarni to'qib tashladi. Bechora sodda ayol uning gaplariga laqqa ishondi va fitnaching tuzog'iga ilindi. Xojasi haqida eshitgan gaplar ayol qalbida alanga yoqdi. Avvaliga eri haqida aytilayotgan gaplarga ishonmadi. Qul esa gapini tasdiqlash uchun qasam ichdi. Noqulay holatga tushib qolgan ojiza nima qilarini bilmay hayron bo'lib qoldi. Nahotki, mehr qo'ygan jufti haloli shunday qilgan bo'lsa? Bu qanday sodir bo'ldi? Ayol ichini turli yomon xayollar yemirardi. Paytdan foydalanib qolish niyatida qul gap boshladi: "Buning bir chorasi bor. Agar xohlasangiz, xojamni sizga bir umrga ipsiz bog'lab qo'yadigan bir yo'lni o'rgataman", dedi. Ayol rozilik bildirdi. Nima bo'lsa ham, eri bilan avvalgidek farovon yashasam bo'ldi, deb o'yladi. Qul bu ish uchun xojasining uch-to'rt dona soqoli kerakligini aytdi. Ayolga xojasi tunda uxlab yotganda, bu ishni xamirdan qil sug'urgandek, osongina hal etish imkoni borligini uqtirdi.

Makkor va ilon yog'ini yalagan qul xojasi oldiga borib, unga ham yolg'ondan tuzoq qo'ydi. U xo-



jasidan minnatdor ekanini izhor etib, evaziga hech narsa qilmaganini izhor qildi. Biroz sukut qilgach, bir muhim gapi borligi-yu, ammo uni aytishga botina olmayotganini aytdi. Xoja nima ekan deb qiziqdi. Qul gap uning ayoli haqida ekanini bildirdi. Xoja ayoliga nima qilganini tezroq aytishni so'radi. Makkor xizmatkor ayolni qanday fitnaga giriftor qilgan bo'lsa, xojasini ham shunday hiyla-makr bilan avramoqchi bo'ldi. Ayoli boshqani yoqtirib qolgani uchun undan qutulish payida yurganini aytdi. Avvaliga er ham uning gaplariga ishonmadi. Qul gapini ishontirish uchun yana qasam ichdi.

Ishonmasa, bir sinab ko'rishini aytdi. Bugun o'sha ish sodir bo'ladi. Xoja o'zini uxlaganga solib olsa, haqiqatni o'z ko'zlari bilan ko'radi. O'sha kuni tunda xoja o'zini uxlaganga solib yotarkan, xayolida nahotki, necha yillardan beri bir yostiqa bosh qo'ygan insonim – zavjayi halolim menga xiyonat qilsaya, deya o'yga cho'mdi.

Shu kecha oy ham to'lin bo'lib, uyni kunduz kabi yoritib turardi. Bir vaqt ayoli qo'lida tig' bilan u tomon yaqinlashardi. "Haqiqat"ni o'z ko'zlari bilan ko'rgan xoja g'azablanib, ayol qo'lidagi tig'ni olib, uni o'ldirdi. Bunga zimdan guvoh bo'lib turgan qul ayolning qarindoshlariga borib, xojasi ayo-



lini nohaq joniga qasd qilganini aytdi. Ayolning qarindoshlariga ham yolgʻon gaplarni gapirdi. Marhumaning qarindoshlari kelib, xojani oʻldirishdi. Bu holdan xabar topgan er tomon qasos olish maqsadida ayolning qarindoshlarini oʻldirdilar. Shu alfozda bir nobakorning fitnasidan boshlangan ish ikki qishloq ahli oʻrtasida katta nizoni keltirib chiqardi. Yana juda koʻp begunoh insonlar qoni toʻkildi.

Yuqoridagi rivoyatdan fitnaning ayanchli oqibatlarini namoyon boʻlib turibdi. Sharh va izohga hojat yoʻq. Katta boʻladimi yoki kichikmi, bari-bir fitna odamlar orasini buzuvchi omil sifatida qolaveradi. U bor joyda begunoh insonlar qurbon boʻladi. **“Fitna qotillikdan ham yomondir”** degani shu boʻlsa kerak.

Moʻmin kishi fitnadan saqlanadi

Fitna paydo boʻlganda musulmon oʻzini qanday tutishi lozim? Nimalar qilish va nimalar qilmaslik kerak? Bu boradagi dinimiz koʻrsatmasi qanday? Mana shu narsalarni har bir oqil kishi yaxshilab mulohaza qilishi kerak.



Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: **“Albatta, kelajakda kar, soqov, ko’r fitnalar bo’ladi. Kim unga yo’liqsa, uni halok qiladi. O’shanda tilni bo’sh qo’yish qilich chiqarish kabidir”**, dedilar» (Imom Abu Dovud rivoyati).

Fitna uch: kar, ko’r va soqov sifatlar bilan sifatlanmoqda. Fitna kardir. U bo’lgan vaqtda inson haqni eshitmaydi. Fitna soqovdir. U bo’lgan vaqtda haq gapirilmaydi. Fitna ko’rdir. U bo’lgan vaqtda haq ko’rinmaydi.

Ibn Umar roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: **“Fitnalardan saqlaning. Fitna (vaqti)da til xanjar zarbi kabidir”**, dedilar» (Imom Ibn Moja rivoyati).

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: **“Yaqinlashib qolgan yomonlik sababli arablarga vayl bo’lsin! Qo’lini tortgan kishi najotga erishdi”**, dedilar» (Imom Abu Dovud rivoyati).

Udaysa binti Uhbon roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi:

«Ali ibn Abu Tolib mana bu yerga – Basraga keldi. Otamning huzuriga kirib: “Ey Abu Muslim! Mana



bu qavmga qarshi menga yordam bermaysanmi?” dedi. U: “Ha, yordam beraman”, dedi. Keyin joriyasini chaqirib unga: “Qilichimni olib chiq”, dedi. Joriya uni olib chiqdi. U qilichning bir qarich yerini o’tkirladi. Ne ko’z bilan ko’rsinki, u yog’och edi. U: “Xalilim va amakingning o’g’li (Muhammad sollallohu alayhi va sallam) agar musulmonlar o’rtasida fitna bo’lsa, yog’ochdan qilich yasab olishimni tayinlagan. Agar xohlasang, sen bilan birga chiqaman”, dedi. “Shunda (Ali roziyallohu anhu) menga sening ham, qilichingning ham keragi yo’q”, dedi» *(Imom Ibn Moja rivoyati)*.

Bu hadisdan ham ko’rinib turibdiki, sahobalar o’zlarini fitnalardan qattiq ehtiyot qilishgan. Hatto fitnaga aralashmaslikka ahd berganlar.

Abu Muso Ash’ariy roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: ***“Albatta, qiyomat oldidan kechaning zulmatli qismiga o’xshash fitnalar bo’ladi. O’shanda kishi mo’min bo’lib tong ottirib, kofir bo’lib kech kiritadi. Mo’min bo’lib kech kiritib, kofir bo’lib tong ottiradi. Unda o’tirgan turgandan yaxshi, turgan yurgandan yaxshi, yurgan harakat qilgandan yaxshidir. O’shanda kamonlaringizni sindiring, (undagi) iplaringizni uzing va qili-***



chlaringiz bilan toshni uring. Biringizning (uyiga) kirilsa, Odam bolalarini yaxshisi kabi bo'ling", dedilar» (Imom Ibn Moja rivoyati).

Kamonni sindirib, uning ipini uzing. O'zingiz ham, o'zgalar ham kamon ipi bilan bir noxushlikka qo'l urmasin. Qilich yoki unga o'xshagan sovuq qurollarni toshga uring, o'tmas bo'lib yaroqsiz holga kelsin.

Abu Burda roziyallohu anhudan rivoyat qilindi: «Muhammad ibn Maslamaning oldiga kirdim. U: "Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: "Albatta, kelajakda ko'p fitna, firqalanish va ixtiloflar bo'ladi. Shunday vaqt kelganida qilichingni Uhud (tog'iga) olib bor-da, to sinib ketgunicha unga ur. Keyin to xatokor qo'l yoki hukm qilingan o'lim kelgunicha uyingda o'tir", dedilar", dedi» (Imom Ibn Moja rivoyati).

"...to xatokor qo'l yoki hukm qilingan o'lim kelgunicha uyingda o'tir", ya'ni mehribon Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam fitna vaqtida qurol ko'tarib, qo'lni qonga botirib xato qilib qo'yishdan qattiq qaytarmoqdalar. Fitnalar vaqtida musulmon kishi vafot topgunicha yoki fitnachi qo'lida qurbon bo'lguncha uydan chiqmaslikni tayinlamoqdalar.



Mulla Ali Qoriy rahmatullohi alayh hadis sharhida aytadi: “Insonlar fitna vaqtida haq bilan botilni ajrata olmaydilar. Nasihat, amri ma’ruf va nahyi munkarni eshitmaydilar. Kim haqni gapirsa, unga ozor beriladi, fitna va mashaqqatga yo’liqadi”.

Fitnalardan panoh so’rang

Duo bandani Xoliq Zotga bog’laydigan eng samimiy tilaklar yig’indisidir. Unda qalbdan chiqqan iltijolar ila muhim maqsadlar so’raladi. Hadislarda duoni mustaqil ibodat deyiladi. Ibodat bo’lganda ham ibodatlar mag’zi va iligi hisoblana-di. Inson suyagidagi iligi qurib qolsa, harakatdan to’xtaydi. Shuningdek, ibodatlarda ham duo bilan unum bo’ladi, oldinga siljish bo’ladi. Bu haqiqat-ni tushungan har bir kishi o’zi uchun kerakli va muhim narsalarni har doim duosida so’rab yuradi. Hadislarda har bir ishning maxsus duosi bo’lgani kabi fitnadan saqlanish duosi ham bor. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam Alloh taolodan ikki dun-yo yaxshiliklarini so’raganlaridek, yomonliklardan ham panoh so’rab duo qilardilar.

U zot sollallohu alayhi va sallam doimo fitnadan va turli yomonliklardan panoh so’rardilar.

Oysha roziyallohu anhodan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ushbu: ***“Allohumma fainniy a’uzu bika min fitnatin nari va azabin nari va fitnatil qobri va azabil qobri va min sharri fitnatil g’ina va min sharri fitnatil faqri va a’uzu bika min fitnatil masihid dajjal. Allohumma ig’sil xotoyaya bimail salji val barodi va naqqi qolbi minal xotoya kama naqqoytas savbal abyazo minad danasi va baa’id bayni va bayna xotoyaya kama baa’dta baynal mashriqi val mag’ribi. Allohumma fainniy a’uzu bika minal kasali val haromi val ma’sami val mag’romi”*** duolari bilan duo qilardilar» (Imom Muslim rivoyati).

Duoning ma’nosi: ***“Ey Allohim, albatta, men Sendan jahannam fitnasi va azobidan, qabr fitnasi va azobidan, boylik fitnasi yomonligidan va faqirlik fitnasi yomonligidan panoh so’rayman va yana Sendan Masih Dajjol fitnasi yomonligidan panoh so’rayman. Allohim, xatolarimni qor va do’l yomg’iri suvlari bilan yuvgin. Qalbimni oppoq kiyimni kirdan poklaganing kabi pokla va men bilan xatolarim orasini mashriq bilan mag’rib o’rtasini uzoq qilganingdek uzoq qil. Allohim, albatta, men Sendan dangasalik,***



o'ta qarilik, gunoh qilish va qarzga botishdan panoh so'rayman".

Fitnalardan himoya va qo'rg'on bo'lishi uchun ushbu duoni kanda qilmay doimo o'qib yurishimiz kerak.

Fitnadan saqlangan eng baxtli kishidir

Dunyodagi eng baxtli kishi kim? Bu savolga hamma o'zi yoqtirgan narsalarga ega bo'lish deb javob qaytaradi. Kimdir baxtni mol-dunyoda desa, yana kimdir bola-chaqaning borligida deydi, yana kimlardir oila qurishda deb biladi. Voqelikda yuqoridagilarga ega bo'lgan kishilarning tom ma'noda baxtli yashayotganiga guvoh bo'lmaymiz. To'g'ri, bu omillar ham baxtga olib boradi. Ba'zan hayotida ularga ega bo'lmasa-da, baxtiyor umr-guzaronlik qilayotgan insonlarni ko'ramiz. Ha, demak, haqiqiy baxt boshqa narsada ekan. Haqiqiy baxt, chinakam saodat kishining turli fitna-fasod ishlarga aralashmay dunyodan eson-omon o'tishi bilan bo'ladi. Bu haqiqatni Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam muborak hadislarida bayon qilib berganlar.

Miqdod ibn Asvad roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “U zot aytadi: «Allohg qasamki, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamdan: ***“Albatta, fitnalardan saqlangan kishi baxtlidir, albatta, fitnalardan saqlangan kishi baxtlidir, albatta, fitnalardan saqlangan kishi baxtlidir”***, deyayotganlarini eshitdim» (Imom Abu Dovud rivoyati).

Bir iborani uch marta takrorlanishi ushbu ishning naqadar ahamiyatli ekanini bildiradi. Darhaqiqat, Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ushbu gapni amaldagi eng yorqin namunasini o‘zlari va yo‘lchi yulduz hisoblangan sahobalari bilan birga ko‘rsatib berdilar.

Umr Alloh taoloning insonga bergan eng ulug‘ ne‘matidir. Bu ne‘matga ega bo‘lgan inson undan unumli va oqilona foydalanishi kerak. G‘animat umri mobaynida solih va savobli amallarga ko‘proq urg‘u bermog‘i lozim. Umrni behuda, gunoh, ma’siyat, fitna-yu fasod ishlarga sarf etib qo‘ymaydi. Umr insonga bir marta beriladi. U o‘tib ketganidan keyin aslo ortga qaytmaydi.

Abdurahmon ibn Abu Bakra roziyallohu anhudan, u otasidan rivoyat qiladi:

“Bir kishi dedi:



– Ey Allohning Rasuli, insonlarning eng yaxshisi qaysi?

– ***Umri uzun, amali chiroyli bo'lgan kishi.***

– Insonlarning eng yomoni-chi?

– ***Umri uzun, amali xunuk bo'lgan kishi, – dedilar***” (*Imom Termiziy rivoyati*).

Umri uzun bo'lib, shunga munosib chiroyli amallar bilan o'tishi kishining yaxshiligidan, ular uzun bo'lib, yomonlikda o'tishi esa uning yomonligidan darak beruvchi belgi bo'larkan.

Abu Dardo roziyallohu anhudan rivoyat qilindi: “Fitnalardan oldin Islomda o'lmoq qandoq ham yaxshi”, dedi (*Abu Nuaym “Fitn” kitobida rivoyat qilgan*).

Aslida inson umrining uzun bo'lgani yaxshi. Chunki uzun umr ko'rishi uni ko'proq savoblarni qozonishiga sabab bo'ladi. Hadislarda inson o'ziga o'lim tilashidan qaytarilgan. Ammo umrini buzg'unchilik, fitna-fasodga sarflagan kishining vafoti hayotidan yaxshi bo'larkan. Chunki shunda fitnalarga aralashib, katta gunohlarni qilib qo'yishdan salomat bo'ladi.

Sahobalar fitnalar haqida aytilgan hadislarini o'z quloqlari bilan eshitganlar. Ularning odatlari eshitgan hadislariga amal qilmagunlaricha boshqa

hadisga o'tmaganlar. Abu Dardo roziyallohu anhu ham mana shuni his qilgan va darhol ishga kirishib, duoda fitnaga aralashmay salomat yashab o'tishni niyat qilgan.

Ezgu ishlar fitnaga qalqondir

Har doim ummat g'adini yegan zot suyukli Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam hadislari orqali fitna vaqtida biz ummatlar nimalarga e'tibor berishimiz kerakligini ta'lim berganlar.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: ***“Kechaning zulmatli qismiga o'xshash fitnalar kelguncha amal qilib qolishga shoshiling. O'shanda kishi mo'min bo'lib tong ottirib, kofir bo'lib kech kiritadi. Mo'min bo'lib kech kiritib, kofir bo'lib tong ottiradi. U o'z dinini dunyoning o'tkinchi havasiga sotadi”***, dedilar» (Imom Muslim rivoyat qilgan).

Demak, har bir dam g'animat. Vaqt bormi, undan oqilona foydalanib qolish kerak. Hali fitnalar kelmasidan ilgari ezgu ishlar, xayrli amallarni ado etib qolishimiz lozim ekan. Fitnaning qora bulut-



lari har tomondan bostirib kelganda, qochishga joy topilmay qolishi mumkin. Ishlar shu darajada chalkash bo'larkanki, bir kechaning o'zida mo'min kofirga aylanib qolarkan.

Ushbu rivoyatni ulamolar mo'jiza hadislardan deyishadi. Chunki unda Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam hali sodir bo'lmagan ishlar – fitnalardan xabar bermoqdalar.

Fitna – ma'naviy illat

Kasalni davolagandan ko'ra uning oldini olgan yaxshi. Daf qilish ko'tarishdan osonroq. Taxliya tahliyadan² oldinda turadi.

Abu Dardo roziyallohu anhudan rivoyat qilindi: «Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: ***“Al-batta, Alloh taolo dard va davoni nozil qildi. Har bir dard uchun davoni yaratdi. Shunday ekan, davolaning. Harom bilan davolanmang”,*** dedilar» (Imom Abu Dovud rivoyati).

Hadisi sharifda har bir kasallikning shifosi borligi aytilmoqda. Demak, kim kasal bo'lsa, uning

² Bu ikki so'z tabiblar istilohi bo'lib, taxliya – bo'shatish, tahliya – davolash. Tabiblar biror kasalni davolashdan oldin birinchi uning ichini tozalab, keyin dori beradi..

shifosini izlash lozim bo'ladi. Bu ishda beparvolik va dangasalik qilish yaramaydi.

Hadisni sharh qilgan olimlar zohiran qaraganda matnda moddiy va jismoniy kasalliklar nazarda tutilgan bo'lsa-da, ma'naviy illatlarni ham o'z ichiga oladi, deydilar.

Jismoniy kasalliklarni tabiblar davolasa, ma'naviy kasalliklarni ummat tabiblari – ulamolar davolaydilar. Shuning uchun fitna vaqtida ulamolarga quloq tutish eng to'g'ri yo'ldir.

Aziz o'g'il-qizlarim! Yuqorida fitnaning naqadar yomon illat ekanini bilib oldingiz. Shunday ekan, doimo fitnalar va unga olib boruvchi ishlardan o'zingizni saqlang. Turli xil fitnalarga aralashib, guldek umringizni xazon qilmang! Zero, bir marta beriladigan umrni go'zal va ibratli holda o'tkazishimiz lozim. Chunki umrning ma'nosi obod qilish demakdir.



Dardidan nomi og'ir bo'lgan kasallik



Asr vabosi

(OIV-OITS)

Bugungi kunda respublikamizda 45 ming nafar odamlar OITS (SPID) bilan yashab kelmoqda. Ularning 55 foizi erkaklar, 45 foizi ayollar, 14 foizi ni esa 18 yoshga to'lmagan bolalar tashkil etadi. OITS bilan kasallanish ko'rsatkichi yuqoriligi ichki migratsiya hamda aholi sonining ko'pligi hisobiga Toshkent shahri hamda Toshkent viloyatiga to'g'ri kelmoqda. (2022-yil 1-fevral, O'zA).

Yildan yilga kasalliklarning soni ham, turi ham ortib bormoqda. Lekin shunday kasalliklar bor-ki, uning nomi dardidan ko'ra og'irroq. Bu kasallikka chalingan insonlar jamiyatdan uzilib qoladi, odamlar ham ulardan o'zlarini olib qochishadi. Ayrimlar ularga rahm-shafqat nazari bilan qarasalar, boshqalar ulardan nafratlanadi. Bu – OIV va OITS kasalligi ekanini anglab yetgan bo'lsangiz kerak. Bu kasallik dunyo jamoatchiligini tashvishga solayotgan muammolardan biridir. Kasallik asosan OIB infeksiyasi bor shaxslar bilan jinsiy aloqada bo'lganda, giyohvand moddalarni tomir orqali qabul qilganda, shprits va ignalardan umumiy



foydalanilganda yuqadi. Shu sababli, OITS-ga chalinganlarning aksariyatini giyohvandlar, fohishalar va bir jinslilar tashkil etadi.

Bugungi kunda OIB infeksiyasi yuqish yo'li bo'yicha birinchi o'rinda jinsiy yo'l bilan 69,8 foizni tashkil etmoqda. Kasallik turli yoshdagi aholi orasida, ayniqsa, 20–49 yoshlilar o'rtasida ko'plab qayd etilishi yanada xatarlidir. Dinimizda qaysi bir amal insonga va jamiyatga moddiy yoki ma'naviy zarar keltiradigan bo'lsa, albatta u harom qilingan. Zino ham ana shunday zararlarni keltirib chiqaradi. Dinimizda qaytarilgan har bir amalda insonning dunyo va oxirati uchun zararlar bor. Aksincha, buyurilgan barcha amallarda foydalar bisyor. Ularga amal qilgan bandaning ikki dunyosi ham obod bo'ladi.

Islom dinida hatto zinoga yaqin borish qaytarilgan. Bu “zino qilmanglar” degandan ko'ra qattiqroqdir. Musulmon odam zino qilish tugul, uning yaqiniga ham yo'lamasligi, zinoga olib boruvchi narsalardan ham uzoqda bo'lishi lozim. Alloh taolo bunday marhamat qiladi: **“Zinoga yaqinlashmanglar! Chunki bu** (ochiq ko'rinib turgan) **buzuqlik va eng yomon yo'ldir”** (*Isro surasi, 32-oyat*).



Shu sababli, tadqiqotchilar tomonidan Islom OITSning oldini olish uchun eng yaxshi vosita ekan, degan xulosaga kelingan.

Islom dinida hayotimizning har bir sohasi, xususan, shaxsiy gigiyena va jinsiy hayotga oid aniq ko'rsatmalar bor. Ularga amal qilinsa, faqat yaxshiliklarga erishiladi, aksincha, egri yo'lga qadam tashlansa, balo-ofatga muhtalo bo'linadi.

OITS kasalligiga zino asosiy sabab bo'layotgan ekan, shu o'rinda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam va bir yigit o'rtasida bo'lgan suhbatni nasihat o'laroq sizga so'zlab beraman. Shoyadki, ushbu va'z sizning bu yo'ldan qaytishingizga va shahvatlarga qul bo'lmasligingizga sabab bo'lsa.

Quloq soling! Bu yigit qattiq xohlaganidan Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning oldilariga kelib: "Yo Allohning Rasuli! Mengazino qilishga ruxsat bering!" dedi. Zino eng jirkanch va katta gunoh bo'lishiga qaramay Rasululloh sollallohu alayhi va sallam unga qo'pollik qilmadilar. Balki muloymlik bilan undan: ***"Mana shunday ishni boshqa bir kishi onang bilan qilishini xohlaysanmi?"*** deb so'radilar. Yigit: "Alloh meni sizga fido qilsin, albatta yo'q!" deb javob berdi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam: ***"Boshqa insonlar ham***



onalari bilan bunday bo'lishini xohlamaydilar. Unday bo'lsa, qizing bilan shunday ish bo'lishini xohlaysanmi?" deb so'radilar. Yigit: "Qasamki, hargiz unday emas, yo Allohning rasuli!" dedi. Rasululloh alayhissalom: ***"Boshqa insonlar ham qizlari bilan bunday bo'lishini xohlamaydilar. Unday bo'lsa, singling bilan shunday bo'lishini xohlaysanmi? Ammang bilan-chi? Xolang bilan-chi?"*** deb so'radilar. Yigit har safar: "Yo'q, aslo, hargiz, hargiz!" deb javob berar edi.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam muborak qo'llari bilan yigitni ushlab: ***"Allohim, uning gunohlarini kechir, qalbini pokla va farjini saqla!"*** deb duo qildilar. Shundan so'ng o'sha yigitdan gunoh qilishga bo'lgan istak yo'qoldi.



***Aziz o'g'il-qizlarim!** Sizlarga berilgan har bir ne'mat, xususan, sog'lik ne'matining qadriga yeting. O'zingizni har xil kasalliklarga duchor qilmang. Asr vabosi nomini olgan turli dardi bedavo kasalliklardan ehtiyot bo'ling. Bu kasalliklar nafaqat sizning, balki butun oilangiz va zurriyotlaringiz uchun xatarli va zararli ekanini aslo unutmang. Shunday hayot kechiringki, o'zingiz uchun foydali, boshqalar uchun ibrat va namuna bo'lsin.*





Yoshlarga murojaat!



Aziz o'g'il-qizlarim!

Suyukli Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam ko'plab hadislarida vaqti-vaqti bilan "Ey tojirlar jamoasi!", "Ey ayollar jamosi!", "Ey ansorlar jamoasi!", "Ey muhojirlar jamoasi!" deya jamiyatning turli qatlamiga mansub insonlarga xutba qilganlar. Shuningdek, "Ey yigitlar jamoasi!" deya yoshlarga qarata alohida murojaat ham qilganlar. U zot sollallohu alayhi va sallam ushbu murojaatlarida yoshlarga go'zal pand-u nasihat qilganlar. Unda nikohga qodir bo'lgan yigitlarni oila qurishga targ'ib qilish barobarida, ularni turli yomon yo'llardan, shayton tuzog'idan ogohlantirganlar. Yoshlar masalasi doimo Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallamning diqqat markazida bo'lgan. Ularga nikoh misolida hayot uchun kerakli va zarur bo'lgan nasihatlarni qilishlari yoshlar mavzusining nechog'lik ahamiyatli ekanidan darak beradi. Biz ham yuqoridagi hadisga amal o'laroq yoshlarga murojaat qilishga jazm etdik.

Aziz o'g'il-qizlarim!

Doim sergak turing. Hech qachon g'aflatda qolmang. Zimmangizdagi haqlarni imkon qadar puxta va kamchiliksiz ado eting. Bu yo'lda ixlos, sadoqat, muhabbat sizning doimiy hamrohingiz bo'lsin.



Aziz o'g'il-qizlarim!

Barcha ne'matlarni qadrlang. Xususan, umr bahori bo'lgan yoshlikni behuda ishlarga sarflamang. *"Qani endi yoshligim qaytsaydi"*, deb afsuslanishdan oldin qimmatli umringizni foydali ishlarga sarflab, uni sermazmun o'tkazing. Zero, har bir ne'matning hisob berilajak kuni bor. Buni esingizdan chiqarmang!

Aziz o'g'il-qizlarim!

Ta'bir joiz bo'lsa, sizlar yurtning eng qadrli boyligi, tayanchi va kelajak poydevorlarisiz. Shunday ekan, ilm – najot kaliti deya bebaho ma'naviy meros qoldirgan buyuk ajdodlarimiz izidan yuring. Ular kabi o'z sohasining yetuk mutaxassis olimi bo'lib yetishing. Sifatli ta'lim sari bosqichma-bosqich imkoniyatlar eshigi ochilayotgan bir davrda, ilm mayog'ini qo'lga olib, shu eshikdan Siz kiring!

Har ishingizda adolatli va mo'tadil bo'ling! Aslo mutaassiblik va g'uluga berilmang. O'qib-o'rganib olganlaringizni hayotga tatbiq etib, jamiyatga foyda keltiring. Aslo xudbin va befarq shaxsga aylanib qolmang. Chunki tarixdan ma'lumki, g'anim har doim loqayd kishilardan foydalanib, jamiyatni ich-ichidan yemirishga harakat qilgan.



Islom bizga ta'lim bergan, iymonning yarmi bo'lgan poklikni o'zingizga lozim tuting. Zero, poklik qut-barakaning ziyoda bo'lishiga xizmat qiladi. Faqatgina zohiriy poklik bilan cheklanib qolmay, botiniy poklikka ham e'tiborli bo'ling. Qalb pokligi bilan boshlangan harakatingiz jismingiz, so'zingiz, yurish-turishingiz-u yashab turgan manzilingizda ham namoyon bo'lsin.

Aziz o'g'il-qizlarim!

Salomatligingiz o'z qo'lingizda. Uni turli kasalliklarga muhtalo etmay muhofaza qiling. Asr vabosi deya nom olgan giyohvandlik va OITS kabi illatlar guldek umringizni xazon qilmasin.

Mol-davlatni topishda va sarflashda halollik doimiy shioringiz bo'lsin. O'zgalarning moli-ni firibgarlik, qimor, o'g'rilik kabi botil yo'llar bilan o'zlashtirmang. Musulmon birodaringizning haqiga tajovuz qilmang. Zero, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam Hajjatul vadoda uch marotaba mo'minning mo'minga qoni, moli va obro'siga tajovuz qilishdan qaytarganlar. Bu go'zal vasiyatni hech qachon esingizdan chiqarmang!

Aziz o'g'il-qizlarim!

Vatanga muhabbatli va sadoqatli bo'ling. Uning rivoji va yuksalishi yo'lida bor imkoniyatingizni ishga solib xizmat qiling.



Fitna va unga olib boradigan xatarlardan ehtiyot bo'ling. Islomofobiya soyasida muqaddas dinimizni yomonotliq qilmoqchi bo'lganlardan ogoh bo'ling. Shuningdek, dinni niqob qilib olgan, asl maqsadlari esa umuman boshqa bo'lgan kaslarning qo'ygan tuzog'iga ilinib qolmang! Bu nobakorlar g'o'r yoshlarning ishonchidan foydalanib hijrat, jihod, shahidlik kabi tushunchalarni noto'g'ri talqin qilib, ularni ovlashga harakat qiladilar.

Inson ruhiyatini o'rganuvchi olimlarning farog'atli keksalik yoshlik davrini foydali ishlar bilan o'tkazishga bog'liq degan xulosaga kelganlar. Yoshligingiz ham, keksaligingiz ham go'zal o'tsin.

Aziz o'g'il-qizlarim!

Sof e'tiqod va mazhabni mahkam tuting. Adashgan turli toifalarning puch da'volariga ishonib, o'zingizni hamda yaqinlaringizni tashvishga qo'ymang. Ayniqsa, bugungi kunda hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan ijtimoiy tarmoqlardan foylanishda uning me'yor va odoblariga rioya qiling.

Moddiy va ma'naviy gunohlardan saqlaning. Omonat umringizni ibrat oladigan darajada o'tkazing. Hayot sahifangizga dog' tushiradigan turli nomaqbul ishlar qilmang. Dunyoy-u oxiratda



ota-onangizga rahmatlar olib beradigan tarbiyali farzand bo'ling.

Nafsingizni jilovlang. Chunki barcha yomonliklar nafsning hoy-u havaslariga ergashishdan kelib chiqadi. Boshqalarni o'zgartirishdan oldin o'zingizni isloh qiling. Shunda jamiyat isloh bo'ladi.

Tarixni yaxshi o'rganing. Ajdodlaringiz hayoti va ularning qilgan ishlaridan ibrat olib, ularga munosib avlod bo'lishga intiling.

Alloh taolo siz aziz yoshlarni hamisha hifz-u himoyasida saqlasin. Qilayotgan har bir xayrli ishingizda Yaratganning O'zi madadkor bo'lsin. O'z sohangizning yetuk mutaxassisi bo'lib, yurtimizni dunyoga taniting. Yutuqlaringizni ko'rganda biz ham faxr tuyib haqqingizga duolar qilaylik. Dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimiz kabi shunday umr o'tkazingki, kelajak avlod sizni ham doimo yaxshilik ila xotirlasin!



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad Qur-tubiy. Al-Jome' liahkamil Qur'on. Bayrut, Lubnon, "Muassasatur risola". 2006-yil.
2. Abu Ja'far Muhammad Jarir Tabariy. Tafsirut Tabariy. Bayrut, Lubnon, "Muassasatur risola".
3. Imom Faxriddin Roziy. Tafsirul kabir. Misr, "Matba'atul bahiyya al-misriyya". 1938-yil.
4. Abulbarakot Nasafiy. Madorikut tanzil va haqiqut ta'vil. Qohira, "Dorul kalimit toyyib". 1433-h.y.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. Toshkent, "Hilol nashr" nashriyoti. 2023-yil.
6. Qozi Abu Bakr. Ahkomul Qur'on. Bayrut, Lubnon, "Dorul kutub al-ilmiyya". 1996-yil.
7. Imom Buxoriy. Sahihul Buxoriy. Bayrut, "Doru ibn Kasir". 1987-yil.
8. Imom Muslim. Sahihi Muslim. Bayrut, "Doru ihyo at-turos al-arabiy".
9. Imom Termiziy. Sunani Termiziy. Bayrut, "Doru ihyo at-turos al-arabiy".
10. Imom Abu Dovud. Sunani Abu Dovud. Lubnon, Bayrut, "al-Maktaba al-asriyya".

11. Imom Ibn Moja. Sunani Ibn Moja. Lubnon, Bayrut, “al-Maktaba al-asriyya”.

12. Imom Nasoiy. Sunani Nasoiy. Lubnon, Bayrut, “Dorut-ta’sil”. 2012-yil.

13. Imom Ahmad. Musnadu Ahmad. Bayrut, Lubnon, “Muassasatur risola”. 1999-yil.

14. Imom Doraqutniy. Sunani Doruqutniy. Bayrut, Lubnon, “Dorul kutub al-ilmiyya”. 1996-yil.

15. Abu Ya’lo. Musnadu Abu Ya’lo. Damashq, “Dorul Ma’mun lit-turos”. 1984-yil.

16. Imom Hokim. Mustadrokul Hokim. Bayrut, Lubnon, “Dorul kutub al-ilmiyya”. 1990-yil.

17. Imom Bayhaqiy. as-Sunan al-kubro. Haydarobod, “Doiratul ma’orif”. 1344-h.y.

18. Imom Tabaroniy. Al-Mo’jam al-kabir. Damashq, “Maktabatul ulum val-hikam”. 1983-yil.

19. Ibn Hibbon. Sahihi Ibn Hibbon. Bayrut, “Muassasatur risola”, 1993-yil.

20. Ibn Hajar. Fathul Boriy. Bayrut, Lubnon, “Dorul kutub al-ilmiyya”. 1997-yil.

21. Badriddin Ayniy. Umdatul qoriy. Misr, “Idoratut tiba’a al-munira”.

22. Alloma Qozi Iyoz. Ikmolul mu’lim bifavoidi Muslim. Misr, “Dorul vafo”. 1998-yil.



23. Ibn Battol. Sharhu sahihil Buxoriy. Riyoz, "Maktabatur rushd". 2003-yil.

24. Imom Navaviy. Sharhu sahihi Muslim. Bayrut, "Doru ihyo at-turos". 1392-h.y.

25. Alloma Munoviy. Fayzul Qodir. Bayrut, Lubnon, "Dorul kutub al-ilmiyya". 1994-yil.

26. Muhammad Zurqoniy. Sharhuz Zurqoniy ala muvattoil Imamil Malik. Bayrut, Lubnon, "Dorul kutub al-ilmiyya". 1411-h.y.

27. Mulla Ali Qoriy. Mirqotul mafotih. Bayrut, Lubnon, "Dorul kutub al-ilmiyya". 2001-yil.

28. Abu Homid G'azzoliy. Ihya ulumiddin. Saudiya Arabistoni, Jidda, "Dorul minhoj". 2011-yil.

29. Alloma Sayyid Zubaydiy. Ithofus sodatil muttaqin. Bayrut, Lubnon, "Muassasatut tarixil arobij". 1994-y.

30. Ibn Qudoma Maqdisiy. Muxtasaru minhojil qosidin. Damashq, "Dorul bayon". 1978-yil.

31. Imom Saforiniy. G'izoul albob sharhu manzumatul odob. Bayrut, Lubnon, "Dorul kutub al-ilmiyya". 1996-yil.



MUNDARIJA

Muqaddima	4
-----------------	---

Yoshlikni gʻanimat biling

Umr oqar suv kabi	8
Yoshlik – umr bahori	11

Ilm saodat kalitidir

Ilm – eng katta boylik.....	21
Ilm kitob oʻqish bilan ziyoda boʻladi	23
Ilm diniy va dunyoviyga boʻlinmaydi.....	25
Ilm erkak va ayolga birdek farzdir	28
Taʼlim dargohlarini barpo qilish fazilati	29
Toshga oʻyilgan naqsh	33

Ustozlar ehtiromi – ajdodlar merosi

Ustozlar jamiyat bunyodkorlaridir.....	38
Taʼzim sizga, aziz ustozlar!	40
Ustozga ehtirom koʻrsatgan yetar murodga	41
Ustozlik buyuk sharafdir	42
Foydali ilmga ergashish yoʻli.....	44



Tarbiya yo hayot, yo mamot

Tarbiya insonga xos xususiyat.....	49
Inson tarbiyaga muhtoj	50
Go'zal tarbiya – ikki dunyo saodati.....	50
Tarbiyaning ahamiyati.....	52
Tarbiyani farzand dunyoga kelmasidan oldin boshlash kerak	53
Tarbiya bolaning haqqidir	54

Odob – inson ziynati

Odob nima?.....	57
Islom odob dinidir	58
Inson odobi bilan aziz	60
Ilm va odob egizakdir.....	62
Odob yoshlikda o'rganiladi	62
Odob oilada o'rganiladi	65
Odobning inson hayotidagi o'rni	67
Odobli inson elga namuna.....	68

Halol kasb fazilati

Dinimiz mehnat qilishga chorlaydi	71
Islom mehnat va harakat dinidir.....	71
Halol kasb bilan mashg'ul bo'lish farzdir	75

Halol mehnat mo‘minning shioridir	76
Ijtimoiy illatlardan ehtiyot bo‘ling!	77
Payg‘ambarlar ham kasb-hunar bilan mashg‘ul bo‘lishgan.....	81

Ijtimoiy tarmoqning zararli irmoqlari

Vaqt isrofi.....	86
Yolg‘on gap va mish-mishlar o‘chog‘i.....	87
Fitna chiqaruvchi xabarlar	87
Masxaralash makoni.....	88
Noqulay holatlar oshkor etiladigan “olam”	89
Axloqsizlik avj olgan maskan.....	89
Begonalashuv.....	89
O‘zgalar aybini poylash	90
“Layk”ka o‘chlik	90

Gunohlardan uzoq bo‘ling!

Gunohlar halokatga yetaklaydi	94
-------------------------------------	----

Giyohvandlik – jinoyatlar asosi

Asr vabosidan ehtiyot bo‘ling!.....	100
Sog‘lom tana ne‘mat va omonatdir!	100
Giyohvandlik – yomonliklar onasi	101
Giyohvandlik – saodat kushandasi	102



Sog'ligingiz – boyligingiz

Avvalo, sog'liq bo'lsin	109
Allohdan ofiyat so'rang!	110
Salomatlik birinchi o'rinda	111
Ne'mat qadri yo'qotilganda bilinadi	112
Shifo izlash – vojib amal.....	112
Sog'lom tanda – sog'lom aql	113
Rivoyat.....	115

Mazhabsizlik – dinsizlikka ko'prik

Ummat birligini saqlovchi omil.....	118
Mazhabboshimiz buyuk imom –	
Abu Hanifa rahmatullohi alayh.....	125
“Bizga kema kerak emas”	128

Vatanga muhabbat – muqaddas tuyg'u

U Vatandir	131
Vatanga muhabbat fitriy tuyg'udir	133
Vatanga muhabbat qo'yish – shar'iy amal.....	134
Yurt haqqiga hatto payg'ambarlar duo qilgan..	137
Nozik tuyg'uning go'zal ta'rifi	139
Vatanning qanday haqlari bor?.....	141

Ajdodlardan ibrat	144
Vatanga xiyonat – og‘ir gunoh	145
Vatan uchun nima qildik?	147
Yurtingizga Xudo nazar qilgan... ..	148

Islom terrorga qarshi

Tinchlik – dinimiz shiori	151
Sizlarga tinchlik bo‘lsin!	152
Tinchlik haqidagi oyatlar	153
Terrorning asl maqsadi	154

Qimor – ijtimoiy illat

Ziynat bo‘ling!	157
Shayton tuzog‘idan ehtiyot bo‘ling!	158
Qimor yomonliklar onasidir	159
Ne‘matlardan so‘ralasiz	163

Aqida bilmagan shaytona eldir..

G‘uluvga ketish fitnadir	168
G‘uluvga ketish halokatga olib boradi	171
Botil e‘tiqod g‘uluvdir	174

Fitna – ko‘z ilg‘amas xatar

Fitna – ijtimoiy illat	180
------------------------------	-----



Fitna qotillikdan yomondir!	183
Fitnachi xizmatkor	184
Mo'min kishi fitnadan saqlanadi	188
Fitnalardan panoh so'rang.....	192
Fitnadan saqlangan eng baxtli kishidir	194
Ezgu ishlar fitnaga qalqondir.....	197
Fitna – ma'naviy illat	198

Dardidan nomi og'ir bo'lgan kasallik

Asr vabosi.....	201
-----------------	-----

Yoshlarga murojaat!	206
----------------------------------	------------

Foydalanilgan adabiyotlar	212
---------------------------------	-----



QAYDLAR UCHUN





SHAYX NURIDDIN XOLIQAQAZAR

Yoshlarga nasihatim

Nashr uchun mas'ul:
Sultonbek Imomnazarov

Muharrir:
Bobomurod Erali

Dizayner va sahifalovchi:
Ravshan Malik

Musahhiha:
Zebo Omonova



Nashriyot litsenziya raqami:

№ 8726 2020-07-27

Bosishga 2024-yil 01-avgustda ruxsat etildi.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$.

Harf garniturası Cambria, Ofset bosma usuli.

Hisob-nashriyot t.: 4.80 Shartli b. t.: 11,76.

Adadi: 5 000 nusxa. 24-48-son buyurtma.

Bahosi kelishilgan narxda.

O'zbekiston musulmonlari idorasiga qarashli

"Shamsuddinxon Boboxonov" NMIU da

tayyorlandi va chop etildi.

Toshkent shahri, Zarqaynar 18-berkko'cha 47-a uy.

Elektron pochta: m-nashr@mail.ru

Tel: (0-371) 227-34-30